

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



TEXNOLOGIYA TA'LIMI

**Texnologiya fanini o'qitishning
innovatsion muhitini loyihalash**

MODULI BO'YICHA O'QUV-USLUBIY MAJMUA



Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: O.A.Qo‘ysinov-Nizomiy nomidagi TDPU “Texnologiya ta’limi” kafedrasи dotsenti., p.f.d., dotsent, A.B.To‘raev-katta o‘qituvchi.

Taqrizchilar: Z.Ismoilova – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti “Pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi” kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor.
O‘.Q.Tolipov - Nizomiy nomidagi TDPU “Texnologiya ta’limi” kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor.

O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagи 1/3.6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. IShChI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	11
III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	19
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	68
V. GLOSSARIY	91
VI. FOYDALANILAGAN ADABIYotLAR RO'YXATI.....	94

I. IShChI DASTUR

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdag'i "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari, 2020 yil 27 fevraldag'i "Pedagogik ta'lif sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli Qarori, 2020 yil 30 sentyabrdagi O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i "O'qituvchi va murabbiylar-yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" nomli nutqi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lif muassasalari texnologiya ta'limi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, Texnologiya fanini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarini o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

"Texnologiya fanini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalash" modulining **maqsadi:** oliy ta'lif muassasalari texnologiya ta'limi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarining qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida o'quv mashg'ulotlarni innovatsion, texnologik, aksilogik, akmeologik, kreativ, modulli-kompetentli yondashuv asosida tashkil etish va o'tkazishga oid yangi bilimlar, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

Uzlucksiz ta'lif bosqichlarida texnologik ta'lif tizimida uzviylik va uzlucksizligini ta'minlash muammolarini aniqlash;

Texnologik ta'lif fanlarini kredit modul tizimida o'qitishni tashkil etish;

Texnologik ta'limga oid maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish mahorati, ijodkorligi va novatorligini oshirish;

O'quv mashg'ulotlarini interfaol ta'lif metodlar (o'quv loyihasi, keys-stadi, SMART-education, algoritmik xarita, Keyzen kabi texnologiyalar)ni ta'lif jarayoniga qo'llash metodikasini o'rGANISH;

Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish metodikasini aniqlash va ishlab chiqish;

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash metodikasini o'rganish;

Oliy ta'lim muassasalarida texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning innovatsion texnologiyalar asosida loyihalashtirish va tashkillashtirish;

Texnologik ta'limni tashxis qilish, korreksiyalash va prognoz qilish metodikasini o'rganish;

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning xususiyatlarini o'rganish: kuzatish, diagnostik suhbatlar, kasbga moslashish, professiografiya kabi tushunchalarni amaliyotga joriy etish.

Texnologiya ta'limida AKTdan foydalanish metodikasi (real ob'ektlar, multimedia, elektron darslik va boshq). Ta'lim jarayoniga metod, vosita va shakllarni joriy etish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Tinglovchi:

- texnologik ta'lim sohasining uzlusiz ta'lim tizimidagi uzviyligining ahamiyatini;
- texnologik ta'limining predmeti va vazifalarini;
- texnologik ta'limining dolzarb muammolari va ularni tadqiq etish metodlarini;
- texnologik va kasb ta'limida asosiy didaktik kategoriyalari, qonuniyatlarini va prinsiplarini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- texnologik va kasb ta'limida o'quv-ishlab chiqarish ta'limi bilan hamkorligini ta'minlash;
- texnologik va kasb ta'limi jarayonida predmetlararo aloqadorligini (STEAM-ta'limi) ta'minlash;
- texnologik va kasb ta'limida uslubiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;
- uzlusiz ta'lim turlariaro texnologik ta'lim tizimida uzviylik va uzlusizligini ta'minlash;
- texnologik ta'lim fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar asosida kredit modul tizimini tashkil etish;
- texnologik ta'limga oid maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

- interfaol ta'lismetodlari, o'quv loyihasi, keys-stadi ta'lismtexnologiyalarini qo'llash;
- SMART-education, algoritmik xarita, Keyzen kabi texnologiyalarini ta'lismjarayoniga tatbiq etish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lism shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish;
- oliy ta'lism muassasalarida talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash monitoringini yuritish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- texnologik ta'limning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash (STEAM-ta'limining amaliy tadbiq etilganligi. Moddiy-texnik bazani rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari);
 - O'zbekistonda texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash muammolariga oid ilmiy-tadqiqotlarni tahlil qilish;
 - texnologiya fani o'qituvchiga qo'yiladigan kvalifikatsion talablar (shaxsiy va kasbiy; kreativligi va kompetentligi, texnologik ta'limini rivojlantirishga oid ilg'or xorijiy tajribalar) qiyosiy tahlil qilish;
 - oliy ta'lism muassasalarida texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning innovatsion texnologiyalar asosida loyihalashtirish va tashkillashtirish;
 - texnologik ta'limni tashxis qilish, korreksiyalash va prognoz qilish;
 - ta'lism jarayonida o'quvchilarnining xususiyatlarini o'rganish: kuzatish, diagnostik suhbatlar, kasbga moslashish, professiografiya kabi tushunchalarni amaliyotga joriy etish;
 - texnologiya ta'limida AKTdan foydalanish metodikasi (real ob'ektlar, multimedia, elektron darslik va boshq) **kompetensiyasiga** ega bo'lishi lozim..

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

"Texnologiya ta'limi" yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlar nazariy va amaliy shakllarda olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida o'qitishning innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda interfaol ta'lism metodlari qo'llanilishi nazarda tutilgan: ya'ni,

- nazariy mashg'ulotlarda taqdimotlar, mavzuga oid filmlar hamda kompyuter texnologiyalarini joriy etish;

- amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlardan, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, va boshqa

interfaol ta'lif metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"Texnologiya fanini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalash" moduli mazmuni o'quv rejadagi "Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish", "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish", "Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish", "Ta'lif jarayoniga raqamli texnologiyalarini joriy etish", "Texnologiya ta'limi rivojlantirish strategiyalari" va "Texnologik va kasb ta'lifi didaktikasi" o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislardan orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularining dolzarbliji, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngti yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Modulning oliy ta'lidi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta'lif muassasalari texnologiya ta'lifi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarining qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida o'quv mashg'ulotlarni innovatsion, texnologik, aksiologik, akmeologik, kreativ, modulli-kompetentli yondashuv asosida tashkil etish va o'tkazish metodikasiga ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami auditoriya soati	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Uzluksiz ta'lif bosqichlarida texnologik ta'lif tizimida uzviylik va uzluksizligini ta'minlash muammolari	2	2	

2.	Texnologik ta'limga oid maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogning innovatsion texnologiyalardan foydalanish mahorati, ijodkorligi va novatorligi	2	2	
3.	O'quv fanlarini integratsiyalash turlari, yo'nalishlari, tiplari, funksiyalari. Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limga oid shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish metodikasi.	2	2	
4.	Oliy ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limga oid shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish metodikasi.	2	2	
5.	Interfaol ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limga oid shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish metodikasi.	2		2
6.	Ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limga oid shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish metodikasi.	4		4
7.	Ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limga oid shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish metodikasi.	2		2
8.	Ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limga oid shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish metodikasi.	2		2
9.	Ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limga oid shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish metodikasi.	2		2
10.	Ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limga oid shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish metodikasi.	2		2
Jami		22	8	14

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Uzluksiz ta'limga oid bosqichlarida texnologik ta'limga oid shakllari, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash muammolari.

Uzviylikni ta'minlash pedagogik muammo sifatida. Uzviylikni ta'minlashning psixologik-pedagogik asoslari

2-mavzu. Texnologik ta'limga oid maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogning innovatsion texnologiyalardan foydalanish mahorati, ijodkorligi va novatorligi

Kredit tizimi. YeSTS kreditlari: xususiyatlari va tamoyillari. Kredit tizimi asosida ta'limga jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari.

3-mavzu. Texnologik ta'limga oid maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogning innovatsion texnologiyalardan foydalanish mahorati, ijodkorligi va novatorligi

Texnologiya ta'limi o'qituvchisining kasbiy-pedagogik muhim sifatlari. Texnologiya ta'limi o'qituvchisining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish tizimi. Professional o'qituvchi shaxsi. maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogning boshqaruv mahorati, texnikasi va uslublari

4 - Mavzu: O'quv fanlarini integratsiyalash turlari, yo'nalishlari, tiplari, funksiyalari. Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limga shakllari, vositalarining roli va ularidan foydalanish metodikasi

O'quv fanlarini integratsiyalash turlari, yo'nalishlari, tiplari, funksiyalari. Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limga shakllari. Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limga vositalarining roli

AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Mavzu: Oliy ta'limga muassasalarida texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning innovatsion texnologiyalar asosida loyihalashtirish va tashkillashtirish (2 soat).

Shaxsiy va kasbiy sifatlar va ularning qiyosiy nisbatini. "Kreativlik" tushunchasining tavsiflanishini. "Kompetentlik" va "Kasbiy kompetentlik" tushunchalarining mazmun-mohiyati.

2-amaliy mashg'ulot: Mavzu: Interfaol ta'limga metodlari: o'quv loyihasi, keys-stadi SMART-education, algoritmik xarita, Keyzen kabi texnologiyalarni ta'limga jarayoniga tatbiq etish metodikasi (4 soat).

Interfaol ta'limga metodlari: o'quv loyihasi, keys-stadi SMART-education, algoritmik xarita.

3-amaliy mashg'ulot: Mavzu: Ta'limga jarayonida o'quvchilarning xususiyatlarini o'rGANISH: kuzatish, diagnostik suhbatlar, kasbga moslashish, professiografiya kabi tushunchalarini amaliyatga joriy etish (2 soat)

Ta'limga jarayonida o'quvchilarning xususiyatlarini o'rGANISH: kuzatish, diagnostik suhbatlar, kasbga moslashish, professiografiya kabi tushunchalarini amaliyatga joriy etishe

4-amaliy mashg'ulot: Mavzu: Texnologiya ta'limida AKTdan foydalanish metodikasi (real ob'ektlar, multimedia, elektron darslik va boshq). Ta'lim jarayoniga metod, vosita va shakllarni joriy etish (2 soat)

Qayta tayyorlash va malaka oshirish tinglovchilarida internet tarmog'i dan axborotlarni izlash, tahlil qilish asosida ularda kreativ qobiliyatni shakllantirishga oid ko'nikmalarini rivojlantirish

5-amaliy mashg'ulot: Mavzu: Texnologik ta'limni tashxis qilish, korreksiyalash va prognoz qilish metodikasi (2 soat)

Texnologiya ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan tinglovchilarning "Kasb tanlash motivini aniqlash", "O'quvchilarni kasbiy yo'nalaganligini aniqlash" va "Kasb tanlashda tipik xatoliklar" bo'yicha amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat

6-amaliy mashg'ulot: Mavzu: Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash monitoringi (2 soat)

Qayta tayyorlash va malaka oshirish tinglovchilarida mehnat ta'limini tashxis qilish, korreksiyalash va bashoratlash metodikasiga oid ko'nimalarini rivojlantirish

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:


- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilib yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).



II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



Namuna: Muammoli ta'lism yondashuvlarining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Muammoli ta'lism yondashuvlarining kuchli tomonlari	
W	Muammoli ta'lism yondashuvlarining kuchsiz tomonlari	
O	Muammoli ta'lism yondashuvlarining imkoniyatlari (ichki)	
T	Muammoli ta'lism yondashuvlarini amalda qo'llashdagi to'siqlar (tashqi)	



“Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” – inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “study” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

Mazkur metod muammoli ta’lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o‘rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o‘quv jarayonida ma’lum bir maqsadga erishish yo‘li sifatida qo‘llanilsa, metod xarakteriga ega bo‘ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma’lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o‘zida aks ettiradi.

“Keys-stadi metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minati bilan tanishtirish.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash.
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishslash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash.
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishslash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash.
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishslash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.

“Keys-stadi” metodining o‘ziga xos xususiyatlari

- izlanishga doir faoliyatning mavjud bo‘lishi;
- jamoaviy va guruhlarda o‘qitish;
- individul, guruhli va jamoaviy ish shakllari integrasiyasi;
- xilma-xil o‘quv loyihalarini ishlab chiqish;



- muvaffaqiyatga erishish uchun talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lif oluvchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- ta'lif oluvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaysi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: 1. “Harakatlanuvchi sodda qurilmalar (monipulyator, robotlar)”.

2. “Ro'zg'orshunoslik”.

3. “Elektronika” tushunchalarini berilgan jadval asosida tahlil qiling.

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot

“Venn diagrammasi” metodi

Venn diagrammasi – grafik ko'rinishda bo'lib, olingan natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetlarni (ko'rinish, fakt, tushuncha) taqqoslash, tahlil qilish va o'rganishda qo'llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo'ladi.

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur



metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar; juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

"Muammoli ta'lim" metodi

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning intellektual imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish quyidagi umumiy omillarga bog'liq bo'ladi:

- o'rganilayotgan mavzu yuzasidan muammoli savollar tizimi tuzish;
- qo'yilgan muammoli savollar tizimi asosida suhbat metodi orqali tushuntiriladigan mavzu materiallarini o'rgatish va uning tub mohiyatini ochib berish;
- muammoli savol asosida izlanish xarakteridagi o'quv vazifalarini qo'yish.

Yuqoridagi bosqichlar asosida o'quv materiali tushuntirilganda o'quvchilar o'zları darrov tushunib yetmaydigan fakt va tushunchalarga duch keladilar. Natijada o'rganilayotgan mavzu materiali bilan o'quvchilar orasida muammoli vaziyat hosil bo'ladi.

Muammoli vaziyatning roli va ahamiyatini aniqlash o'quvchilarning faol fikrlashning psixologik, pedagogik qonuniyatlarini hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish muammoli ta'limning asosiy g'oyasini belgilab beradi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish asosida hosil qilingan dars jarayoni muammoli ta'lim deyiladi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi faoliyati shundan iboratki, u zarur hollarda eng murakkab tushunchalar mazmunni tushuntira borib o'rganilayotgan mavzu materiali bilan o'quvchilar orasidagi muntazam ravishda muammoli vaziyatlar vujudga keltiriladi, o'quvchilarni faktlardan xabardor qiladi, natijada o'quvchilar bu faktlarni analiz qilish asosida mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar va umumlashtiradilar.

"Agar men ..." metodi

Bu metod orqali o'quvchilardan ma'lum bir kasb kishisi sifatida shu sohaga oid muammolarni qanday bartaraf etishi mumkinligi haqida o'z fikrlarini



bildirishlarii so'raladi. Masalan, "Agar men avtokonstruktur bo'lganimda ... mashinani yaratgan bo'lar edim" (Agar men avtokonstruktur bo'lganimda tog'larda ham yura oladigan mashinani yaratar edim. Buning uchun mashinaga vertolyotni harakatlantiradigan tizimni qo'llar edim). "Agar men aviakonstruktur bo'lganimda ... samolyotni yaratar edim" va h.k.

Bu metodning eng afzal tomoni shundaki, bunda o'quvchilarning hayolot (fantaziya), taqqoslash, tasavvur qilish qobiliyatları tez rivojlanadi.

"Insert" metodi

Insert – bu o'quv jarayonida o'zini anglashni faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir.


Insert – bu matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab-quvvatlash uchun kuchli vositadir.

"SAN" (uchlik – samarali, ahloqiy, nazokatli) metodi

SAN metodining maqsadi – o'quvchi (yoki tinglovchi)larda yakka, jamoaviy guruh bilan ishlash, ijodiy va tashkilotchilik ko'nikmalarini, ishga mas'uliyat bilan yondashuvni shakllantirish, bezash ishlari ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

O'quvchi (yoki tinglovchi)lar dars mavzusiga oid topshiriq mazmunidan kelib chiqqan guruhlarga bo'linadilar va ularga guruh nomlari beriladi. Topshiriq mazmuni va ketma-ketligi tushuntiriladi.






Guruhnинг ўйлашуви	
Aylana bo'ylab savollar	
Katta aylana (aylana atrofida stullar). Katta aylana (kamroq tayyorgarlik ko'rganlar). Kichik aylana (ko'proq tayyorgarlik ko'rganlar).	
Guruhlarda ishlash, archa shaklidagi partalar	
"Jonli chiziqcha" Ekspertlar	
Debatlar	



Guruhlarda ishlash

**Ta'lif metodlarini samarali qo'llash mezonlari**

Metodlar	Qaysi vazifalarni yechishda bu metod samaraliroq?	Qanday o'quv materiali mazmuni uchun bu metod qulay?	O'quvchilarni ng qanday xususiyatlari uchun bu metodni qo'llash foydali?	Bu metodni qo'llash uchun o'qituvchi qanday hislatlarga ega bo'lishi kerak?
Og'zaki bayon metodi	Nazariy bilimlarni shakllantirish uchun	O'quv materiali asosan nazariy va axborot ko'rinishida bo'lgan holda	O'quvchilar o'quv materialining og'zaki bayonini o'zlashtirishga tayyor bo'lganda	O'qituvchi bu metodni boshqa metodlardan ko'ra yaxshiroq egallagan holatda
Ko'rgazmali metod	O'quvchilarda kuzatuvchanlik ni rivojlantirish va o'rganiladigan masalalarga bo'lgan diqqatni oshirish uchun	O'quv materiali mazmunini ko'rgazmali vositalar bilan gavdalantirish mumkin bo'lgan holatlarda	O'quvchilar uchun ko'rgazmali vositalar yetarli bo'lganda	O'qituvchi qo'l ostida barcha ko'rgazmali vositalar yetarli bo'lganda yoki ularni o'zi mustaqil tayyorlay olganida
Reproduktiv (o'zlashtirilgan bilimlarni qayta bayon qilish)	Bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun	O'quv materiali mazmuni yoki o'ta murakkab yoki juda sodda bo'lgan holda	O'quvchilar bu mavzuni muammoli qilib o'rganishga hali tayyor emas	O'qituvchining bu mavzuni muammoli qilib o'rgatishga vaqtiga yo'q bo'lgan holda

Tadqiqot izlanish	Mustaqil fikrlash, tadqiqot olib borish va masalaga ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun	O'quv materiali mazmuni o'rtacha murakkablikda bo'lganda	O'quvchilar mazkur mavzuni muammoli tarzda o'rganishga tayyor bo'lgan hollarda	O'qituvchi izlanish metodini yaxshi egallagan va mavzuni muammoli o'rganish uchun yetarli vaqtga ega bo'lganda
Amaliy	Amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun	O'quv materiali mazmuni amaliy mashqlar, tajriba o'tkazish va turli amaliy faoliyatli topshiriqlarni bajarishni talab qilsa	O'quvchilar mazkur mavzhu bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarishga tayyor bo'lsa	O'qituvchi amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun yetarlicha o'quv va didaktik materiallar, mashqlar to'plami va o'quv qo'llanmalariga ega bo'lsa
Mustaqil ishslash metodlari	O'quv faoliyatida mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantirish va ularni rivojlantirish uchun	O'quv materiali mustaqil o'rganish uchun imkoniyatini bersa	O'quvchilar mazkur mavzhu bo'yicha mustaqil ishslashga tayyor bo'lsa	O'qituvchi mustaqil ishlarni tashkil qilish bo'yicha yetarlicha o'quv va didaktik materiallar ega bo'lsa
Induktiv	Umumlashtiris h va induktiv xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun	O'quv materiali darslikda iduktiv tarzda berilg'an yoki uni induktiv tarzda bayon qilish samarali bo'lgan holda	O'quvchilar induktiv xulosa chiqarishni yaxshi bilib, deduktiv xulosa chiqarishga qiynalayotgan bo'lsalar	O'qituvchi ta'limning induktiv metodlaridan yaxshi xabardor bo'lsa
Deduktiv	Tahlil qilish va deduktiv xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun	O'quv materiali darslikda deduktiv tarzda berilg'an yoki uni deduktiv tarzda bayon qilish samarali bo'lgan holda	O'quvchilar deduktiv fikr yuritish va xulosa chiqarishga tayyor bo'lsalar	O'qituvchi ta'limning deduktiv metodlaridan yaxshi xabardor bo'lsa



III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: UZLUKSIZ TA'LIM BOSQICHLARIDA TEXNOLOGIK TA'LIM TIZIMIDA UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI.

Reja:

1.1.Uzviylikni ta'minlash pedagogik muammo sifatida.

1.2.Uzviylikni ta'minlashning psixologik-pedagogik asoslari.

Tayanch tushunchalar: *Uzviylik, uzluksizlik, aloqa, aloqadorlik, predmetlararo aloqadorlik, hamkorlik, uzviy aloqadorlik.*

1.1. Uzviylikni ta'minlash pedagogik muammo sifatida Davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy va texnik-texnologik jihatlardagi rivojida ta'lism-tarbiya ishi ustuvor soha hisoblanadi.

Ta'lism-bu jamiyatning maqsad muddaolariga muvofiq tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarning katta avlod tomonidan yosh avlodga vorisligini ta'minlaydigan tizim.

Eslab qoling!



Kadrlar tayyorlashning asosi hisoblangan uzluksiz ta'lism ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirish va yuqori malakali, keng ixtisosli mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoit yaratib berish, ya'ni yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarga mushtarak tarzda uzluksiz ta'lism-tarbiya ishini yo'lga qo'yilishiga qaratilgan. Zero, eski (an'anaviy) ta'lism-tarbiya tizimi zamirida yangi jamiyat qurib bo'lmasligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir.

Uzluksiz ta'lism tizimining har bir bo'g'inida ta'lism-tarbiyaviy ishlarni hozirgi kun talablari darajasida tashkil etib o'tkazishda, bu jarayonda bevosita ishtiroy etuvchi o'qituvchi-murabbiylarning o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib, ma'lum ma'noda uning sifat va samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zero, o'quv-uslubiy majmular (ta'lism standartlari, o'quv reja dasturlari, darsliklar, o'qitish vositalari, didaktik materiallar kabilar) har qancha takomillashgan holda ishlab chiqilmasin, ularni bevosita amaliyotga o'qituvchilar tatbiq etadi. O'qituvchi insoniyat jamiyatni tomonidan uzoq o'tmish tarix davomida to'plagan ijtimoiy tajribasini yosh avlod tomonidan o'zlashtirib, uni yanada takomilashishida bevosita vorislikni ta'min etadi.

Bu o'z navbatida har bir ob'ekt (buyum, predmet, hodisa, jarayon, tirik mavjudot)ni har tomonlama chuqur va puxta o'rganishni talab etadi.

Fan, ta'lism, ishlab chiqarish va amaliyot orasida ham mustahkam o'zaro aloqadorlik hamda uzviylik mavjud bo'lib, uni ta'minlash ham muhim dolzarb muammolar yechimini topish bilan bog'liq. Ma'lumki, yosh avlod ta'lism – tarbiyasi faqatgina ta'lism-tarbiya muassasalarida emas, balki oilada, mahallada, jamoada, bir so'z bilan aytganda ma'lum ijtimoiy muhitda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham oila, ta'lism muassasalari, jamoatchilik orasida uzviylik va



hamkorlik ishlarining yo'lga qo'yishni tadqiq etish muhim pedagogik muammolar sirasiga kiradi.

Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimi, ya'ni turli ta'lim bosqichlari orasida uzviylikni ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim).

Chunki, shu paytgacha bir ta'lim turidan ikkinchisiga o'tganda ta'lim- tarbiya jarayonining barcha ko'rsakichlarini pastlashishiga sabab bo'luvchi omillarni bartaraf etish muammosi o'z yechimini topgani yo'q. Bu yerda uzviylikning amalga oshirilishini muhim tomoni, har qaysi keyingi bosqichda oldingi bosqichda o'zlashtirilganlarga mohirona tayanish va kelgusi bosqich uchun asos yaratish, ya'ni o'qitish jarayonining uzluksiz, dinamik rivojlanishini ta'minlash uzviylikni amalga oshirilishining muhim tomonidir.

Uzluksiz ta'limning bir bosqichi yoki bo'g'inidan ikkinchi bosqichiga ravon o'tish, barkamol avlodni shakllantirishni ta'minlashda qanday bosh yo'naliishlarga diqqat-e'tiborni kuchaytirish kerakligini aniqlab olish zarur.

O'quvchilarni nisbatan past ta'lim turidan yuqori ta'lim turiga muvaffaqiyatlari o'tishlari uchun ta'lim jarayonining barcha tashkil etuvchi komponentlari uzviyligini ta'minlash zarur.

Oliy ta'lim muassasalari zamon va istiqbol talablariga javob beradigan, keng ixtisoslikka ega, yuqori malakali, ishlab chiqarishni mohirlik bilan tashkil eta oladigan, yangiliklarga intiluvchan, mustaqil va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan. Bunga uzviylikni ta'minlash bevosita o'zining muhim hissasini qo'shadi.

Muammoning didaktik yo'naliishi – uzviylikni ta'minlashning didaktik jihatini ta'lim prinsiplari, mazmuni, shakllari, metodlari uzviyligini ishlab chiqishdan iborat.

Ta'lim jarayonining o'zagi, ya'ni tizim hosil qiluvchi komponent uning maqsadi hisoblanadi.

Yosh avlodga ijtimoiy tajribani uzatish uchun, bu tajribani pedagogik – psixologik, fiziologik jihatdan moslashtirish, ya'ni ta'lim mazmuniga aylantirish kerak. Buning uchun esa insoniyat jamiyatini to'plagan bebafo, shu bilan birga ulkan tajribani barchasini emas, balki eng muhim tizim hosil qiluvchilarni ajratib olish, qisqa vaqt ichida ortiqcha zo'riqishlarsiz yosh avlod tomonidan o'zlashtirishga erishish zarur. Boshqacha qilib aytganda o'zlashtirilganlarni faqatgina xotirada saqlab qolish bilan chegaralanmay, balki ularni rivojlantirish, takomillashtirish, tinchlik va farovonlik yo'lida ijodiy qo'llash zarur.

Shunday qilib, uzviylikni muhim tomoni ta'limning oqilona mazmunini tanlash va samarali metod, shakl va vositalar tizimini izlashdan iborat. Turli tarixiy davrlarda ta'lim mazmunida u yoki bu jihat muhim ahamiyat kasb etib o'z ta'sirini uzviylikda topgan.

Ta'lim tizimining turli bo'g'inlarida uning mazmunini maqbul taqsimlanishi, o'ziga xos zaruriyat bo'lib, o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy



fazilatlar orasida uzviylik va izchillik asosida amalga oshiriladi, tashabbuskorlik, mustaqillik va ijodkorlik sir-sinoatlarini egallash imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, hozirgi paytda ta'lim jarayoni jamoaviy xarakterga ega, ya'ni turli o'quv predmetlari o'qituvchilar o'quvchilar jamoasi bilan xamkorlik faoliyatini amalga oshiradilar. Bundan predmetlararo uzviy aloqadorlikni, o'qituvchilarini o'quvchilarga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirlaridagi muvofiqlikni ta'minlashni tadqiq etish kelib chiqadi. O'quvchilarga talab qo'yishda izohlar, tushuntirishlar, belgilashlarda o'zaro muvofiqlik zarur. Hozirgi kunda barcha turdag'i o'quv mashg'ulotlar (ma'ruzalar, laboratoriya-amaliy mashg'ulotlari, seminarlar, hisobot, grafik, kurs va diplom, uy ishlari, sinov va imtihonlar va hokazolar)ni yagona yondashuv (talab) asosida tashkil etishga katta ehtiyoj paydo bo'ldi.

Har qanday ta'lim muassasasida pedagoglar faoliyatidagi o'zaro muvofiqlikning muvaffaqiyatlari amalga oshishining zaruriy sharti o'qituvchilarida pedagogik-psixologik tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog'liq.

Ma'lum o'quv predmeti doirasida uzviylik deganda shu o'quv predmet bo'yicha nazariy materialni muntazam va ketma-ket o'rganish, uning laboratoriya va amaliy mashg'ulotlari hamda mustaqil ishlari mazmuni bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash tushuniladi.

Har qanday mashg'ulotlarning alohida bosqichlari orasidagi uzviylik muammosini tadqiq etish va ishlab chiqish zarur. Oliy ta'lim muassasalari sharoitida uzviylikni ta'minlash samaradorligi ma'lum ma'noda tizimdagi xatti - harakatlarning birligiga bog'liq:

O'qituvchi → kafedra → dekanat → rektorat. Bunda uzviylik va uyg'unlik ketma-ketligi, darajasi, ko'lami namoyon bo'ladi.



Eslab qoling!

Ko'p sonli manbalar va pedagogik amaliyotning turli sohalarini tahlili ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelib, uni rivojlantirishga o'ziga xos to'siq bo'layotgan muammolar mavjudligidan guvohlik beradi. Bular asosan bizning fikrimizcha o'rganilayotgan ob'ektlarning ba'zi bir jihat va xususiyatlarini bir-biriga bog'lamasdan lavhalar shaklida o'rganish natijasida yuzaga kelib mantiqan bog'lanmagan va tizimlashmagan bilimlarni o'zlashtirilishiga sabab bo'lmoqda.

Bunday holatlarni bartaraf etishda uzviylikni ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga dialektik yondashuv o'z ifodasini yaxlit holda uzviylikda topadi. O'qitishda uzviylikning mohiyati yangi bilim, ko'nikma, malakalar va shaxsiy fazilatlar bilan avvalgilari orasida kerakli aloqadorlikni o'rnatish, bilimni kengaytirish va chuqurlashtirishda o'z ifodasini topadi.

Uzviylikni amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayoniga dinamik xarakter berib, uning ishtirokchilari faoliyatini uyg'unlashtiradi, faollashtiradi, takrorlash va parallelizmni bartaraf etadi, ta'lim maqsadlari va mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlarida o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.



Ta'limgan yaxlit tizim shaklida tasavvur etish uning asosiy komponentlari orasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash, istiqbolda uni rivojlanТИRISH bo'yicha yashirin imkoniyatlarini topish, maqbul rejalarshirish imkonini beradi. Bir komponent bilan boshqalarini bog'lash, uzviylik, barqaror yaxlitlik, tizimlilik va dinamik o'zgaruvchanlikni ta'min etadi.

Shuning uchun ham uzviylikning namoyon bo'lishi, aloqadorlik sifatida talqin etilishi, mohiyati va ko'pirralilagini ko'rsatishda "aloqa" kategoriyasi muhim.

O'zbek tilining izohli lug'atida "Aloqa" va "Aloqador" tushunchalariga quyidagicha izoh berilgan:

Aloqa 1.Kishilar yoki narsalar, voqealar, hodilar orasidagi o'zaro munosabot, ichki, uzviy bog'lanish.

Aloqador munosaboti, aloqasi bo'lgan, tegishli, bog'li, dahldor. **Ta'limgan jarayonida muhim aloqalar va munosabatlarni tadqiq etib o'rganishda ilmiy bilish kategoriyasi aloqalar mantiqiy metodologik konsepsiyasidan kelib chiqishi zarur.**



Eslab qoling!

Ob'ektiv olamning qonuniyatlarini bilish hodisalar orasidagi sabab-oqibatli aloqalarni tadqiq etish va ulardan eng muhimlarini ajratib olish hisobiga amalga oshiriladi. Bilish harakati ob'ektlarning umumiy aloqadorligidan imkon qadar muhim aloqalarini o'rnatish tomon harakatlanadi.

Ta'limgan tizimi tuzilmasining aloqadorligini yoritishda tadqiqotchilar uning quyidagi asosiy ko'rinishlarini ajratib ko'rsatadilar:

a) **universal qonuniyatli aloqa** - barcha hodisa, jarayon, jonli zot va predmetlarning o'zaro ta'siri;

b) **sabab-oqibatli aloqa** - universal aloqadorlikni imkon qadar eng kichik qismlarga bo'lish, universal aloqadorlikdan o'zaro qonuniyatli bog'liq bo'lgan ikkita hodisa ajratiladi;

v) **funktional aloqa** – hodisalar yoki o'lchamlar orasidagi barqaror uzviy aloqador shakl, bunda bir hodisaning o'zgarishi ma'lum ma'noda boshqalarini ham o'zgarishiga olib keladi.

Tartiblilik (ketma-ketlilik) prinsipiiga ko'ra quyidagi aloqadorliklar farqlanadi:

a) **ierarxik aloqalar** (nima past, nima baland, nima imkon qadar muhim yoki ikkinchi darajali);

b) **boshqarish aloqalari** (nima faol) – imkon qadar tizimlashtiruvchi aloqalar, funksional yoki aloqadorliklarining ko'rinishlari;

v) **tarixiylik nuqtai nazaridan olib qaralganda uzviylik** muammosi ijtimoiy tajribani yosh avlodga uzatish talabi paydo bo'lishi bilan birga vujudga keladi.

g) **ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaralganda uzviylikning** asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larini o'zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi.

d) **genetik jihatdan uzviylik** o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi o'quv predmetlari sifatida talqin etilib, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik integrativ aloqadorliklarga zamin sifatida xizmat qilib, eng kamida ta'limgan standartlari darajasida ta'limgan mazmunini sintezlash yo'li



bilan mantiqan tugallangan shaklga keltiradi. Bundan uzviylikning o'zagi "aloqadorlik" tushunchasi ekanligi kelib chiqadi.

Shuning uchun ham uzviylik jarayonida qaralayotgan komponentlar orasidagi aloqadorlik amalga oshadi, uzviy aloqadorlik iborasi qo'llaniladi.

Uzviy aloqadorlik bu- o'quv jarayonining bir komponentidan ikkinchisiga yo'nalgan bir tomonlama aloqadorlik tushuniladi.

Masalan, qandaydir aniq bir o'quv predmeti bo'yicha nazariy materialning laboratoriya va amaliy ish mazmuni bilan uzviy aloqadorligi yoki mashg'ulotning alohida bosqichlari orasidagi aloqadorlik.

Aloqalarning universal shakli, o'rganilayotgan komponentlari orasidagi o'zaro ta'sir ikki tomonlama yo'nalgan bo'lsa, uzviy o'zaro aloqadorlik deb ataladi. Bunga tipik misol sifatida pedagoglar va tahsil oluvchilar orasidagi o'zaro ta'sirni ko'rsatish mumkin.

Ba'zi hollarda o'zaro ta'sirda diqqat-e'tibor o'zaro aloqador ob'ektlarga ko'chiriladi. Predmetlararo so'zi o'ziga predmetlararo o'zaro ta'sir tushunchasini qamrab oladi.

Predmetlararo aloqalar so'zi o'quv predmetlari orasidagi o'zaro ta'sir natijasida yoki ularning tarkibiy qismlari orasida rivojlanish jarayoni kechishini, ya'ni nimanidir paydo bo'lishini anglatadi.

Demak, yangini o'zlashtirish uchun predmetlar orasida aloqadorlik jarayonining o'zi amalga oshiriladi.

O'quv predmetlari mazmuni yoki hodisalar orasida o'zaro aloqadorlik mavjud, lekin maxsus pedagogik faoliyat amalga oshirilmasa uzviylik amalga oshirilmaydi. Masalan oliy ta'lim muassasalarida o'rganiladigan umumiy pedagogika bilan kasb-hunar pedagogikasi o'quv predmetlari orasidagi o'zaro aloqadorlikni ko'rsatishning o'zi yetarli. Ular orasida chuqur ob'ektiv aloqadorlik mavjud. Lekin, maxsus ishlab chiqilgan pedagogik xatti-harakatlar tizimisiz, ya'ni ixtisoslik o'quv predmetlarida vazifalarni pedagogika bilan bog'liq holda yechimini topishga yo'naltirilmasa, ular orasida uzviylik vujudga kelmaydi. Aksincha, bunday tizimni faoliyat ko'rsatishi natijasida, ya'ni uzviylik ta'minlansa o'quvchilarda pedagogikadan o'zlashtirgan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikma va malakalari shakllanmaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda uzviylik o'quv jarayoni komponentlari orasida amalga oshirilgan aloqadorlikdir.

Kasbiy ta'lim pedagogikasida ta'lim jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi quyidagi qonuniyatli barqaror aloqadorliklar aniqlangan:

- Kasbiy ta'limning hayot, amaliyot bilan bog'liqligi;
- Kasbiy ta'limning fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalari va jamiyatning madaniyat darajasi bilan bog'liqligi;
- Kasbiy ta'lim va rivojlanishning birligi kabilar.

Uzluksiz ta'lim tizimining bo'g'lnlari orasidagi o'zaro aloqadorlikni amalga oshirish muammosi uning alohida turlari va bosqichlari o'zaro aloqadorligini dialektik boshqarish dolzarb muammo bo'lib, uzviylik prinsipi asosida yechimini topishi mumkin.



Ko‘p olimlar uzlusiz ta’lim tizimida uzviylik bir o‘quv predmeti doirasidan chiqish mumkinligini ko‘zda tutib, mazmunan tutash va yondosh o‘quv predmetlarini integratsiyalab, ya’ni boshqa sifat darajasida o‘rganish ham mumkinligini e’tirof etmoqdalar. “Uzviylik” tushunchasining mohiyati nima?

Uzviylikni ta’minalash jarayonida ob’ektlar orasidagi aloqadorlik, yangida eskining ba’zi bir elementlarini olib qolinib, rivojlanish sodir bo‘ladi. Uzviylik asosida inkorni-inkor qonuni yotib, miqdor ko‘rinish sifat ko‘rinishga o‘tadi.

Uzviylik tabiat, jamiyat va bilishda namoyon bo‘luvchi ob’ektiv jarayondir. Jamiyatga nisbatan uzviylik quyidagi ikki yo‘nalishda qaraladi:

- **Uzviylik** - bu ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni bir avloddan ikkinchi avlodga uzatish, yosh avlod tomonidan o‘zlashtirish;

- **Uzviylik** - bu jamiyat xotirasining maxsus mexanizmi, o‘tmish madaniyati-ma’naviyati haqidagi axborotlarni saqlab qoladi va shu asosda yangi qadriyatlarni tarkib topadi.

Pedagogik ensiklopediyada “uzviylik” iborasiga quyidagicha izoh berilgan: “Ta’limda uzviylik zarur aloqadorlik va o‘quv predmeti qismlarining to‘g‘ri munosabatlarini o‘rnatalishini ko‘zda tutadi, shuningdek, u uzlusiz ta’limning har qaysi bosqichida tahsil oluvchilar bilimi, ko‘nikmalari va shaxsiy fazilatlariga qo‘yilgan talablar bilan tavsiflanadi”.

O‘zbek tilini izohli lug‘atining yangi nashrida uzviylikni asosi “uzviy” iborasi sifatida qaralib, unga quyidagicha izoh berilgan: “Uzviy-chambarchas holdagi, o‘zaro bog‘langan, ajralmas”

Xulosa qilib aytganda ta’lim uzviyligini ta’minalash ijtimoiy va madaniy sohalarda avlodlar vorisligini ta’minalash mexanizmidir.

Oliy o‘quv yurtlarida texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni boshqa ixtisosliklar bo‘yicha o‘qituvchilar tayyorlash jarayoniga nisbatan murakkabligi va o‘ziga xos jixatlari bilan ajralib turadi. texnologiya ta’limi o‘qituvchilarining amaliy faoliyatida pedagogik, psixologik, loyihachilik, tashkilotchilik kabi ko‘plab xislatlari bilan bog‘liq xolda ishlab chiqarish bilan bog‘liq ishchanlik, ishbilarmonlik, mustaqillik mujassamlashgandir.

Uzviy aloqadorlikni ta’minalash keng qamrovli, murakkab pedagogik muammo. Bu muammoning yechimini topishga bag‘ishlangan ishlarda uni yaxlit holda emas, balki turli jixatlarigina tadqiq etilgan. Lekin uzviy aloqadorlik tahsil oluvchilarining o‘quv bilish faoliyatini faollashtirish, ta’limning ilmiyligi, amaliyligi, tushunarligi, o‘zlashtiriladigan bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarning yaxlitligi hamda tizimlilagini oshirishga xizmat qiladi.

Uzviy aloqadorlikning ilmiy nuqtai nazardan asosiy vazifasi – olamning yaxlit birligi haqidagi deolektik g‘oyalarga asoslanib, dunyoni bilish. Tabiat va jamiyatdagi hodisalarining o‘zaro bog‘liqligini yoritib berishdan iborat.

Uzviy aloqador bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish o‘z navbatda o‘rganilayotgan o‘quv materialining yetakchi g‘oyasini aniqlash, asosiy tushunchalarining mohiyatini anglash, uning mazmunini chuqurlashtirish, kengaytirish, boyitish bilan bir vaqtida atroq olamda ro‘y berayotgan jarayon va hodisalarining o‘zaro uzviy bir-biri bilan



bog'liqligini ilmiy isbotlab beradi. Shu bilan birga talabalarning ongliligi, faolliligi, mustaqilligini ta'minlab, turli fanlardan o'zlashtirgan bilimlarini umumlashtirish malakalarini rivojlantiridi.

Uzviy aloqadorlik ta'limning ilmiy amaliy ahamiyatini oshirish nuqtai nazaridan tadqiq etilib, didaktik prinsip, vosita, shart-sharoit kabilar sifatida talqin etilgan.

Uzviy aloqadorlik uzlusiz ta'limda tizimlilikning gnoseologik shakli sifatida namoyon bo'ladi. Uzviy aloqadorlikni ta'minlanishi tahsil oluvchilarda metodologik kategoriylar nuqtai nazaridan umumlashtirilgan aniq bilimlarni shakllantirishiga imkon beradi. Shuning uchun ham uzviy aloqadorlikning ta'limtarbiya jarayonidagi metodologik vositasi turli fanlar o'zlashtirilgan xilma-xil ob'ektlarning birligi (yaxlitligi)ni ta'minlashdan iborat. Ushbu yaxlitlik dastlab ilmiy dalillarning aloqasi darajasida qayd etilishi sababli oliy hamda malaka oshirish ta'lim turlarida ta'lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, tahsil oluvchilarning qiziqishlarini oshirish hamda ularda ilmiy dunyo qarashni shakllantirish omili deb talqin etildi (qaraladi). Uzviylik nazariy ta'lim bilan ishlab chiqarish ta'limi va amaliyotining birligini ta'minlashga, ya'ni o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy topshiriqlarning yechimani topishda qo'llanishiga imkon beradi. Demak, barcha ta'lim turlarida o'quv rejasiga kiritilgan o'quv predmetlari tahsil oluvchilarda bilim, xatti-harakat va shaxsiy fazilatlar tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan. Bunga esa uzviy aloqadorlikni ta'minlamasdan erishib bo'lmaydi.

Uzviy aloqadorlikning metodologik asosi bo'lib moddiy aloqaning yaxlitligi, nazariya va tafakkurning o'zgarishi hamda dialektik rivojlanishi hisoblanadi.

Uzviy aloqadorlikning psixofiziologik asosi esa inson fikr yuritish tabiatidan kelib chiqadi. Chunki uzviy aloqadorlik o'rganilayotgan ob'ektlarning turli jihatlarini yaxlit holda bilishga imkon berib, ko'lami jixatidan keng va chuqur, mohiyatiga ko'ra esa yaxlit tizim shaklidagi bilim, xatti-harakatlar hamda shaxsiy fazilatlar shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Uzviy aloqadorlik olamni ilmiy asoslangan holda yaxlit bilishning omili sifatida turli fanlarga oid bilimlar orasidagi aloqalarini diolektik rivojlantirish yo'llarini ko'rsatadi, ushbu qayta ishlash va umumlashtirish natijasida hosil bo'ladigan o'quv materialini uzviyashgan o'quv materiali deb atashga hamda tahsil oluvchilarda ilmi ydunyoqarashni shakllantirishga imkon buradi.

Uzviy aloqadorlik uzlusiz ta'limni maqbullashtirishning muhim omili ekanligi sababli uni amalga joriy etishdagi asosiy qiyinchiliklar sifatida quyidagilar:

- turli o'quv predmetlari mazmunida o'zaro muvofiqlashtirilmagan atamalar va belgilarning qo'llanishi;
- dasturiy o'quv materialdan asosiy g'oya, nazariya va qoidalarning ajratib olinemaganligi;
- ilmiy bilimlarning ichki aloqadorligini ta'minlanmaganligi, ya'ni ularni mantiqan tunganlanmagan holda o'rganilayotganligi;
- o'quv rejasiga kirgan o'quv predmetlarining tarqoqligi, ya'ni ularning mazmunan uzviyligi va izchilligini ta'minlanmagan holda o'rganilashi kabilar.

Uzviylikning didaktik jihatdan muhimligi quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- uzviy aloqadorlik mukammal bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlar shakllantirish holda rivojlantirishning zaruriy sharti;
- yaxlit moddiy dunyoning turli jixatlarini dialektik rivojlanish tarzida bilishda ta'lim mazmuning barcha tashkil etuvchi komponentlarini organik aloqadorligini talab etishi;
- zamonaviy fan yutuqlari asosida yangi texnika, illoq ishlab chiqarish texnologiyalari, yangicha xo'jalik yuritish va mulkchilik shakllari kabilarning ilmiy asoslarining mohiyatini anglab yetishga imkon berishi;
- o'quv rejalariga kirgan o'quv predmetlarining o'rganishni mazmunan va jarayoniy jixatlarini muvofiqlashtirilishini;
- uzviy aloqadorlik ma'lum miqdordagi o'quv materialining turli o'quv predmetlaridan takrorlanishi bartaraf etishi, o'quv vaqtini texash va tahsil oluvchilar o'quv-bilish faoliyatlarini vositasida ta'lim-tarbiya jarayoniga iqtisodiy samara berishi;
- tahsil oluvchilarda ilmiy asoslangan bilimlar asosida ishonchli izlanuvchan kasbiy faoliyat ko'rsatkichlari uchun imkoniya yaratadi. Xulosa o'mida shuni ta'kidlash zarurki, uzviy aloqadorlikning tom ma'nodagi vazifasi haqidagi fikr-mulohazalarning turli-tumanligining asosiy sababi unga turlicha yondashilganligi va uning ko'p qirraliligidir.

1.2. Uzviylikni ta'minlashning psixologik-pedagogik asoslari. Hozirgi zamon va istiqbol talabalariga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifasi uzlusiz ta'limning bosqichli (bakalavriyat va magistraturadan iborat) oliy ta'lim muassalariga yuklatilgan bo'lsa, amaliy faoliyat ko'rsatayotgan kadrlarni hayot bilan har doim hamnafas bulishlarini ta'minlash muammosi malaka oshirish kurslari zimmasiga yuklatilgan. Ma'lumki, mutaxassis kadrlarining oliy ta'lim muassalarida o'zlashtiilgan biim, xatti-harakat usullari va kasbiy mahoratlari ta'limning ilgarilab yurish prinsipiiga amal qilingan bo'sada, uzoq davr mobaynida o'z kuchini to'laqonli saqlab qolmaydi. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalarini tezkorlik bilan o'zgarishi, ijodkorlar, ilg'orlar tajribalari va ko'plab boshqa olimlar muntazam ravishda malaka oshirish jarayonida eng avvalo oliy ta'lim bosqichlari orasida uzviylikni ta'minlashini kun tartibdagi dolzarb masala sifatida qo'yadi.

Ko'p sonli tadqiqotchi olimlarning xulosasiga ko'ra malaka oshirish muassasalariga kelgan tinglovchilarning 28,7 foizi oliy o'quv yurtidagi o'qitishni, ayniqsa, metodik tayyorgarlikni zamоновиу та'lim muassalarida faoliyat ko'rsatish uchun yetarli emas deb biladilar. Bu ko'rsatkichni bevsita kasb ta'limi o'qiuвchilari misolida ko'radigan bo'lsak, masala juda achinarli holda ekanligiga amin bo'lamiz. Chunki, hech kimga sir emaski, faqat kasb ta'limi fakultetiga kiruvchilargina bo'lajak mutaxassisligi, ya'ni kasb ta'limi fanlari bo'yicha kirish imtihonlari topshirmaydilar. Bu hol o'z navbatida kasb-hunar ta'limiga bo'lgan qarashlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlash hamda ularni malaka oshirishda tizim hosil qiluvchi omil sifatida kasbiy faoliyat etrof etilib yozma tarzdagi model



sifatida, u DTS va TTS, o'quv rejalarda o'z ifodasini topishi zarur. Chunki kasbiy tayyorgarlik jarayonida o'zlashtirilgan bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlar amaliyotda o'z tatbig'ini topadi. Bilimlar amaliy faoliyatda qo'llansagina, o'z qiymatiga ega bo'ladi. Shundagina umumilmiy va umumkasbiy o'quv predmetlari maxsus o'quv predmetlariga asos sifatida tan olinish bilan birga o'z avtonomligi hamda tuzilmasini saqlab qoladi. Umumilmiy, umumkasbiy va maxsus o'quv predmetlari imkon qadar parallel yoki qisqa muddatli farq bilan o'r ganilishiga imkon beradigan o'quv rejalari maqbul hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida zikr etilgan o'quv predmetlari turkumini bosqichma-bosqich o'zaro aloqadorlikda o'r ganish didaktikaning oddiydan murakkab tomoniga harakatlanish asosiy prinsipi bilan mos tushadi. Shuningdek umumilmiy va umukasbiy o'quv predmetlarining kasbiy yo'n alganligi ta'minlashda tahsil oluvchilarni faolligini ta'minlashning muhim zahiralari mavjud. Oqilona kasbiy yo'n alganlikni ta'minlash uchun o'quv materialini nisbatan tez o'zgaruvchan "qobiq" va barqaror qismga "yadro" qismga ajratish zarur. Nazariy bilimlar yig'indisi (prinsiplar, nazariyalar, asosiy qonunlar) o'quv predmeti mazmuning tizim hosil qiluvchi yadrosi deb yuritsa, daliliy va amaliy material nisbatan tez o'zgaruvchan, ya'ni qobig'ini tashkil etadi.

Umumilliy va umumkasbiy o'quv predmetlar mazmuning asosiy yadro qism barcha mutaxassislar uchun birday o'zgarmas bo'lib, uning qobiq qismi mutaxassisliklar hamda ixtisoslik bo'yicha daliliy va amaliy ko'rinishda ya'ni o'zgaruvchan bo'ladi. Shularni hisobga olgan holda kasbiy yo'n alganlikni amalga oshirish mexanizmni ko'rsatish mumkin. Eng avvalo shuni aytish zarurki, har bir o'qituvchi o'zi o'qitadigan kursi uchun predmetlararo aloqadorlikni ta'minlash maqsadida daliliy va amaliy tadbiq etiladigan material tanlashi zarur, ularning bo'lajak kasbiy faoliyatidagi o'rnini ko'rsatish bilan bir vaqt ni o'zida tahsil oluvchilarni faollashtiradi va amaliy tatbig'ini ko'rsatib ishoniradi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida muhandis-pedagoglarning roli" mavzusida turli yo'n alishlar bo'yicha uning amaliy tadbig'ini ko'rsatish mumkin. Umumilmiy va umukasbiy o'quv predmetlarning kasbiy yo'n alganligini ta'minlash bilan tahsil oluvchilarni qiziqishlarini oshirish bilan birga kasbiy g'urur his tuyg'ulari shakllantiriladi.

Oliy ta'lim muassalarida kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimi orasida ilmiy asoslangan uzviylikni ta'minlash samarali yo'n alishlardan biri hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish tizimlari orasida uzviylik deganda o'quv materialining maqbul ketma-ketligi tushinilib, uning natijasida maksimal darajada kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tarkib topishga imkon beradi.

Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish orasidagi uzviylik qat'iy tizim asosida bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlari o'zlashtirishga, rivojlantirishga imkon berishi kerak. Uzviylikni amalga oshirish maqsadiga muvofiq pedagogik ishlarni ko'zda tutadi. Yuqorida zirk etilgan tizimlararo uzviylikning ta'minlanishi amaldagi o'qituvchilar tez



fursatlarda yangiliklar o'rganilib amalda qo'llashlariga, ya'ni hayot bilan hamnafas bo'lishlarini o'zlashtirish qo'yidagi ikki omilni hisobga olgan holda amalga oshishi mumkin:

- 1) o'quv predmetlari mazmuni va mantig'ini;
- 2) bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni o'zlashtirish qonuniyatlarini.

Kasb ta'lif o'qituvchilar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimlari orasida maqbul uzviylikni ta'minlash uchun ko'p sonli olimlar va amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan taklif etilgan "O'qitish jarayonining maqbul tuzilmasi" va "muammoli rivojlantiruvchi ta'lif" konsepsiyaniga tayanish zarur. Bunda pedagogik jarayonning komponentlarini qamrab olish bilan birga tahsil oluvchilarningg ongli mustaqil izlanuvchan o'quv-bilish faoliyatlarini o'yg'unlashtirish kerak.

Uzviylikni o'rnatishda muhim vazifa ichki va tashqi aloqadorlik tizimini maqbullashtirish sanaladi. Bunday aloqadorlikni amalga oshirish uchun maqbul shart-sharoit yaratish, o'quv rejalarida predmetlarni va dasturlarda mavzularni maqbul joylashtirish, muhim o'quv materialini ajratish, mashq va laboratoriya – amaliy ishlar tizimini ishlab chiqish va shu kabilar zarur.

Oliy kasbiy pedagogik tayyorgarlik hamda ularning malakasini oshirish uzviylikni mohiyati uzviylik aloqadorlikda o'z ifodasini topadi va predmetlararo, mavzulararo turlicha ko'rinishdagi aloqadorlik tushiniladi.

Turli o'quv predmetlar mavzularini rejalashtirish tuzilmasini maqbullashtirish uchun o'quv materialini graf va matritsa hamda nazariy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Uzviylikni o'rnatishda o'quv predmetlarining ichki va tashqi aloqalar tizimini maqbullashtirish muhim vazifadir.

Uzviylikning umumpedagogik muammolari quydagi masalalarni ko'zda tutib, maqbul kasbiy pedagogik tayyorgarlik ketma-ketlikni ta'minlaydi: eng avvalo, malakali pedagoglarga jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar aniqlanadi; ikkinchidan, ta'lif va tarbiyaning yagona maqsadlari o'yg'unligi o'rnatiladi; uchinchidan, ta'lif mazmuni, moddiy-texnik va ilmiy-uslubiy ta'minotga qo'yilgan talablar aniqlanadi; to'rtinchidan, o'quv predmetlarning ketma-ketligi tahlil etilib, ular orasidagi aloqadorlik o'rganiladi; beshinchidan, shakllanishi ko'zda tutilgan bilim, xatti-harakat usullarini mo'ljalga oluvchi topshiriq (vazifa)lar ro'yxati ishlab chiqiladi.

Uzviylikning didaktik muammolari – ilmiy asoslangan ta'lif mazmuni, shakli, metodlari va vositalarini tanlashni ta'min etadi. Didaktik materialning mantiqiy tuzilmasini ishlab chiqish va unga uyg'un ta'lif shakl, metod va vositalarini qo'llash.

Uzviylikning tarbiyaviy muammolari – bozor munasabatlari sharoitida mustaqil respublikamizni jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egalashiga xizmat qiladigan mutaxassis kadrlarni tarbiyalashdan iborat.

Ta'lif-tarbiya ishida tahsil oluvchilarning yoshi, individual xususiyatlari, shart-sharoit, o'zining imkoniyatlari kabilarni hisobiga olish, ular ongi va qalbiga ishonchli ta'sir qilish o'qituvchi mehnati muvaffaqiyatining garovidir. Bo'lajak



o'qituvchilarda ana shunday xislatlarni shakllantirish oliv ta'lif muassalarida amalga oshiriladi.

Rus olimi V.A. Mudrik quydagi xislatlarga ega shaxslar o'qituvchilik kasbini tanlamasligi kerak deb biladi:

- sog'igi yomon bo'lib, undan forig' bo'lishga ishonmasa;
- o'z ustida uzoq va muntazam mashaqqatli ishlashiga qaramay, nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish imkoniyati bo'lmasa;
- odamlar bilan yaxshi muloqot, munosabat muhitni yarata olmasa;
- yoshlar va kattalarga nisbatan barqaror g'azablanish hamda ular bilan kelisha olmaslik (hamkorlik qila olmaslik) ruhi bo'lsa;
- do'stlari va atrofidagilari unda oliyjanoblik, ezgullik, insonparvarlik yetishmaslini, nohaqlik, ustunlik va xarakterining yomonligini muntazam ko'rsatib kelgan bo'lsa;
- xalq farovonligi, yurt tinchligi, jamiyat taraqqiyotiga befarq bo'lsa.

Har qanday kasb sohibi kabi o'qituvchilik kasbida ham qiyinchiliklardan qo'rqish, chekinish, uning kamoloti to'xtashini anglatadi. Shuning uchun ham, o'qituvchi o'z kasbiy mahoratini oshirish borasida muntazam mustaqil holda ishlashi shart. Demak, izlanuvchanlik, ijodiy faoliyat, kasbiy kamolot asosi bo'lib, u ilmiy bilimga va tajribaga asoslanadi. Bilim shunday kuchki, unga olam sir-sinoati dosh bera olmaydi. Lekin, shuni ham unutmaslik kerak-ki, bilimga eltuvchi yagona yo'l – bu mashaqqatli mehnatdir.

Zamon talablariga hamnafas kasb ta'limi o'qituvchisi qiyin o'quv materiali emas, balki o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan o'qituvchining izohi mayjud, degan qabilida ish yuritishi kerak. O'quv materialining o'zagini tashkil etuvchi tushunchalar orasidagi bog'liqlik, uning murakkabligi va mantiqiy tuzilmasini belgilaydi. O'qituvchi tomonidan materialni tahsil oluvchilar yoshi, tayyorgarlik darajasi, individual xususiyatlariga mos sodda, tushunarli va qisqa bayon eta olmasligi, uning eng katta kamchiligidir.

O'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyati majmuaviy xarakterli bo'lib, juda ko'plab vatandosh hamda xorijiy olimlar tomonian tadqiq etilib, quyidagi o'zaro aloqalar vazifalarni bajarishi ko'rsatilgan:

- loyihalovchilik – ta'lif turi, maqsadi, mazmuni va vazifalari, tahsil oluvchilarning individual xususiyatlari, shart-sharoit, o'zining tayyorgarlik darajasi kabilarga mushtarak holda ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi komponentlarni uyg'unlikda rejalashtirish;
- tashkilotchilik – qo'yilgan maqsadga yetishish uchun tahsil oluvchilar jamoasini tashkil etib, ularni o'qib-o'rganishga safarbar etish;
- fikr almashish (kommunikativ) – inson – inson munosabatlari va muloqotini o'rganish, tahsil oluvchilar ongiga hamda qalbiga yo'l topish, ularni ishontirish;
- axborotchilik – o'zi o'qitayotgan o'quv predmeti bo'yicha asosli, chuqur va puxta, yondosh hamda tutash fanlar bo'yicha ham yetarli bilim, xatti-harakat usullariga ega bo'lib, tahsil oluvchilarga yetkaza olish;

- rivojlantiruvchilik – ijtimoiy buyurtma, ta’lim turi, maqsadi, vazifalari, shart-sharoit, tahsil oluvchilarning individual xususiyatlari kabilarni hisobga olgan holda ularni aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlantirish;
- yo‘naltiruvchanlik – tahsil oluvchilarning individual xususiyatlari: yoshi, qiziishi, moyilligi, qobiliyati kabilarni hisobga olgan holda Ye.A. Klimov ko‘rsatib o‘tgan: inson-inson; inson-texnika; inson-fan; inson-san’at; inson-tabiat faoliyati sohalaiga yo‘naltirish;
- tadqiqodchilik – davlat va jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligi, tinchligini ko‘zlovchi dolzarb hamda istiqbolli muammolarning yechimini topishda ijodiy izlanish, faol ishtirok etish, tajriba-sinov ishlarini olib borish, g‘oyalarni ilgari surish;
- texnik-texnologik – o‘zining kasbiy-pedagogik mahoratini oshirish, o‘quv yurtining moddiy-texnik, o‘quv-uslubiy ta’minotini mustahkamlash, ta’lim mazmuniga yangi texnika, ilg‘or ishlab chiqarish va pedagogik texnologiyalarni kiritish.

Sanab o‘tilgan va boshqa ko‘plab vazifalarni umumlashgan holda, mo‘ljalga olish, amalga oshirish va nazorat qilish bosqichlariga bo‘lish mumkinligini P.Ya. Galperin ko‘rsatgan. Bu tur va bosqichdagi vazifalarni bajarish uchun o‘qituvchi shaxsida quydagilar mujassamlanmog‘i lozim: ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy, psixologik, pedagogik, milliy-g‘oyaviy, ilmiy-tabiyy, matematik, texnik-texnologik, demografik, tabiiy-fiziologik, ekologik, huquqiy, nafosat, umummadaniy kabi bilimlar; aqliy, jismoniy, kasbiy-pedagogik va maxsus malakalar, ijobiy-shaxsiy fazilatlar.

Yuqoridagilardan kasbiy-pedagogik faoliyat, xususan, texnologiya ta’limi o‘qituvchisining faoliyati majmuaviy xarakterga egaligi kelib chiqadi. Shuning uchun ham, uni tadqiq etishda tizimli yondashish zarur. Tizimli yondashish asosida yaxlitlik tamoyili (prinsipi) yotib, o‘rganilayotgan ob’ektning barcha tashkil etuvchi elementlari, jihatlarini o‘zaro uzviy aloqadorlik hamda munosabatda deb talqin etiladi. Tizimni tashkil etuvchi komponentlarning birligi, uni tuzilish jihatidan yaxlitligini ta’minalash bilan birga rivojlanish yo‘nalishini ham belgilaydi. Bunda, oddiydan murakkabga, xususiydan umumiyligka, ma’lumdan noma’lumga, tarixiylikdan mantiqiylikka, sababdan oqibatga kabi qonuniyatlarga tayanib ish ko‘riladi. Tizimga kiruvchi tarkibiy qismlar orasida o‘zaro aloqadorlik va muvofiqlik bo‘lmasa, u yaxlit tizim sifatida o‘z funksiyasini bajara olmaydi.

Pedagogik tizim uchun ham eng muhimi, uning yaxlitligi va tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorligi va munosabatlaridir. Kasb ta’limi o‘qituvchilari tayyorlashni takomillashtirishda tizimli yondashuvdan foydalanish bir vaqtning o‘zida ta’lim turi, vazifalari, mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish shart-sharoiti, metodlari, vositalari, tahsil oluvchilarning individual xususiyatlari, moddiy-texnik, o‘quv-uslubiy ta’moti kabilarni hisobga olish ko‘zda tutiladi.

Ma’lumki, kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham yosh avlodga “nima” o‘rgatish kerak, degan masalaga katta ahamiyat berilgan bo‘lib, ta’lim mazmunini ko‘zda tutgan. Ta’lim mazmuni davlat ta’lim standarti, o‘quv rejasi va dasturlari, darslik, o‘quv-uslubiy qo’llanmalar, didaktik materiallar

kabilarda o'z ifodasini topadi. Ta'lim mazmuni standartda tayyorlanayotgan mutaxassisiga qo'yilgan talablar majmui sifatida, o'quv rejalarida o'quv predmetlari ko'rinishida, o'quv dasturlarida esa aniq nomdagi o'quv predmeti mazmuni, uni o'rganish tartibi, hajmi, tuzilmasi kabilarni o'ziga qamrab oladi. O'quv predmetining mazmuni u tegishli bo'lgan fan, mutaxassislarning amaliy faoliyatni, mutaxassislar bevosita muloqotda, munosabatda bo'ladigan ob'ektlardan yetarli va zarur darajada tanlab olinadi hamda tizimlashtiriladi. Uning yetarli va zaruriy darajasi davlat ta'lim standartlari talablarini qondirishga xizmat qiladi. Bu tizimni tashkil etuvchi alohida tarkibiy qismlariga nisbatan yuqori darajali xususiyatga ega.

Kasbiy ta'limni muvaffaqiyatlama amalga oshishi eng avvalo, ta'limning mazmuni bilan belgilanadi. Ta'lim maqsadlari va mazmuniga mos o'quv-bilish faoliyatini psixologik jihatdan asoslanganligi, ya'ni psixologik asoslari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi o'z o'quv predmetini, o'zi o'qitadigan fan qonuniyatlarini yaxshi bilibgina qolmasdan, balki ta'lim – tarbiya qonuniyatlarini ham yaxshi bilishi, o'zlashtirish jarayonining qanday borayotganligini, o'quvchilarining o'quv bilishi qanday kechayotganligini ham yaxshi bilishi kerak.

1. Ta'lim oluvchining o'qishga munosabati-diqqatga, his-to'yg'ularda, qiziqishlar va iroda, shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi.

Diqqat odam ongingin ob'ektiga yoki biror faoliyatiga qaratilishi, yunaltirilishidir. Diqqat bo'lmasa biror ishni qilib bo'lmaydi.

Ixtiyorsiz diqqatning yuzaga kelishiga o'quv materialining mazmuni, ta'sirchanligi, ravshanligi, bir-biridan farqlanishi yoki boshqacha aytganda ob'ektiv omillar sabab bo'ladi.

Darsda faol ta'lim omillaridan foydalanish ixtiyorsiz diqqatni vujudga keltiradi. Biroq ta'lim-tarbiya ishi oddiy ermak emas, balki o'quv-bilish faoliyatini talab etuvchi mehnat bo'lgani uchun ongli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Ixtiyoriy diqqat bo'lgan paytda o'quvchi butun vujudi bilan tinglash, ko'rish, mohiyatini anglash, ya'ni fikr yuritishga o'zini majbur qiladi.

O'qituvchinig vazifasi mashg'ulot paytida faqatgini muhitni yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarining o'rganilayotgan ob'ektlarni idrok etishga tayyor turishlarini ta'minlashdan ham iboratdir. Shu o'rinda butun mashg'ulotni ixtiyoriy diqqatga asoslanib amalga oshirib bo'lmasligi, chunki u kishidan juda katta zo'riqish kuchlarini talab etishini ham yoddan chiqarmaslik kerak.

2. O'qitishning emotsionalligi – uzatilayotgan axborotlar o'quvchilarida o'qib-o'rganishga, bilishga, his-tuyg'u qiziqish uyg'otish bilan bog'iq holatdir. O'quvchilardagi quvonch, ishonch, istiqbol his – tuyg'ular vujudga kelishi materialni mukammal o'zlashtirish imkonini beradi.

Ta'lim mazmunining murakkablashishi, hajmini ortishi, o'quv vaqtini qisqartirilishi kabilar kasb-hunar ta'limida muhim muamolar keltirib chiqaradi. Emotsional holat o'quv-bilish faoliyatini – haqiqiy ijod, quvonch, yuksak sifat va samara garovidir.



3. O'qib-o'rganishga qiziqish - o'quvchilarni ematsional holati, biror faoliyatni tanlashga munosabati va yo'nalishidir. Qiziqishlar bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Qiziqishda o'quvchining o'qib-o'rganishga faol munosabati namoyon bo'ladi. Qiziqish o'quvchiga materialni mukammal o'zlashtirish, aqliy qobiliyatni rivojlantirish, dunyoqarashi doirasini kengaytirish imkonini beradi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar qiziqishlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, ma'lum omillar vositasida ta'sir qilib, istak va maylga aylantirishdir.

4. Iroda - muayyan maqsadga erishish yo'lida vujudga keladigan qiyinchiliklarni yengish, chalg'itadigan omillardan o'zini tiya olish, o'qib-o'rganishga ishtiyoq kabilarda namoyon bo'ladi. Demak, faqat istak, maqsad bilan kifoyalanmay intilish va irodavsi mustahkam bo'lish orqali o'quv materiali o'zlashtiriladi, uning mohiyati anglanadi, amalga joriy etish bo'yicha xatti-harakat usullari shakllanadi. "Iroda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarida – masalani yechishga, qo'yilgan savolga javob topishga va hokazolarga intilishda ham namoyon bo'ladi". Irodani o'stirishda o'quvchilar kundalik ish tartibi (rejimi), o'qish va oqilona dam olishni bir-biri bilan to'g'ri almashtirib turish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Yo'l-yo'riq - kasbiy tayyorgarlik jarayonida materialning nazariy va amaliy jihatdan ahamiyatini ko'rsatib, ijobiy munosabatlarni tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. O'quv materiallaridan muhimini eslab qolish zarurligi, bu asosda o'quvchilar keyinchalik bayon yozishlari va ma'lum muddatdan so'ng 53,5% so'z va jumlalar xotirada saqlab qolinishida yul – yo'riq muhim axamiyatga ega ekanligini M.G. Davletshin ko'rsatib o'tgan.

"Bilish jarayoni murakkab faoliyat bo'lib, unda jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, abstrakt tafakkurdan amaliyatga o'tiladi, ana shundan so'ng ob'ektiv haqiqat bilib olinadi".

Idrok qilish jarayoni eshitish, ko'rish, his etish, ushlab bilish kabilalar orqali amalga oshiriladi. Axborotni uzatilish sur'ati o'quvchilarning fikrlash sur'atlariga mos bo'lishi kerak, degan psixologik qonuniyat mavjud.

6. Kuzatish – muayyan soha hodisalarini muntazam va uzoq vaqt ataylab maxsus idrok etishdir. Shaxsning eng muhim sifatlaridan biri kuzatuvchanlikni shakllantirish zarur. Kuzatuvchanlik o'quvchining tabiat, ijtimoiy hayot hodisalaridagi (o'quv materialidagi) o'xshashlik va tafovutni sezib olishda, muhim hamda zarur narsani ajrata bilishda o'z ifodasini topadi.

Kasbiy ta'lim-tarbiya jarayoni o'quvchilar tomonidan DTS (TTS), doirasidagi bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash, ularni amalda qo'llashga oid xatti-harakat usullari, shaxsiy fazilatlar shakllantirishni kuzda tutadi. Kasbiy ta'limda xotira va tafakkur jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Xotira – inson tajribasida ma'lumotlarni eslab qolish va keyinchalik yana esga tushirishdan iborat aqliy faoliyatdir. Psixologiya fani o'quv materialini eslab qolish tezligi, to'liqligi, aniqligi va mustahkamligining muayyan shartlarini aniqlagan. O'quv materialini eslab qolishda sezgi organlari qanchalik ko'p ishtirok etsa, uning shunchalik puxta esda qolishi aniqlangan. K. D. Ushinskiy tabiri bilan aytganda, o'quvchi xotirasida biror narsani puxta o'mashib qolishini istagan



pedagog bolalarning ko‘proq sezgi organlari – ko‘zлari, qulqlari, tovushlari, muskul harakatlari sezgisini va hatto, imkon bo‘lsa, hid hamda ta’m bilish organlarining ham ishtirok etishi haqida g‘amhurlik qilishi zarur. O‘qituvchi ko‘rsatmali vositalarni qo‘llashda ana shu psixologik qonuniyatlarga tayanadi. Eslab qolish tezligi, to‘liqligi aniqligi va mustahkamligi eslab qolinadigan materialni bilishga, mohiyatini anglab olishga bog‘liqdir.

Hajm jihatdan katta bo‘limgan va tushunarli bo‘lgan materialni bir butunligicha o‘rganish zarur. Katta hajmdagi materialni qismlarga bo‘lish va birini ketidan ikkinchisini (ma’no jihatdan bog‘lanadigan qismlarni) o‘rganish kerak. Xotirasi bo‘lgan odam bilimlar egallaydi, malaka va ko‘nikma hosil qiladi. Uning aqlan fikrlash doirasi kengayadi.

Hayol – idrok qilinmaydigan (masalan, tarixiy voqealar, geografik ob’ektlar va boshqalar) ob’ektlarni tasavvur etishda o‘z ifodasini topadigan aqliy qobiliyatdir.

8. Ijodiy tafakkur – kishi aqliy faoliyatining yuksak shakli bo‘lib, real borliqning bilvosita va umumlashtirgan in’kosisiz, borliq olam ob’ektlari orasidagi aloqa va munosabatlarning aks etishi, ular umumiylarini aks etish jarayonidir.

NAZORAT SAVOLLARI.

1. Kadrlar tayyorlashning asosi nimalarda o‘z aksini topadi?
2. Uzluksiz ta’lim tizimining har bir bo‘g‘inida ta’lim-tarbiyaviy ishlarni talablari darajasida tashkil etish va o‘tkazish.
3. Uzviylikning pedagogik va psixologik mohiyatini bayon qiling.
4. Muammoning didaktik yo‘nalishi deganda nimani tushunasiz?
5. Ma’lum o‘quv predmeti doirasida uzviylik haqida fikringizni bayon qiling.
6. Aloqadorlikning asosiy ko‘rinishlarini bayon qiling.

2-MAVZU. TEXNOLOGIK TA’LIM FANLARINI KREDIT MODUL TIZIMIDA O‘QITISHNI TAShKIL ETISH. KREDIT-MODUL TIZIMI TAMOYILLARI, TURLARI, TARKIBIY QISMLARI.

Reja:

1. Kredit tizimi. YeSTS kreditlari: xususiyatlari va tamoyillari.
2. Kredit tizimi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta’minlashning innovatsion metodlari.


Tayanch tushunchalar: *Kredit tizimi, YeSTS kreditlari,*

1. Kredit tizimi. YeSTS kreditlari: xususiyatlari va tamoyillari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan 2019 yilning 8 oktyabrida «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda “respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish



va oliy ta'limga muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish belgilab berildi.

Shuningdek, 2030 yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'limga muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'limga dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi.



Davlatimiz rahbarining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berishning taklif etilishi, maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga bilan qamrab olish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, ta'limga yo'naliishlari va o'qitiladigan fanlarni qayta ko'rib chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar sonini 2 barobar qisqartirish, oliy ta'limga o'quv jarayoni kredit-modul tizimiga o'tkazish, qator oliy ta'limga muassasalarini o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tkazish, ta'limga sohasini to'liq raqamlashtirish, davlat-hususiy sheriklik mexanizmlarini ta'limga sohasiga ham keng tatbiq etish masalalari shu kunning dolzarb masalalari ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Ushbu murojaatnomada birinchi o'ringa xalqning bilim darajasini oshirish masalasi qo'yilgan, bu esa millatning raqobatbardoshligini belgilovchi omil hisoblanadi. Shu sababli, tabiiyki, ushbu hujjatda zamonaviy talablar va jahon standartlariga javob beradigan milliy ta'limga tizimini yaratish muammosining elementlari ham o'z aksini topgan.

1999 yilda 29 ta davlat tomonidan Bolonyada yagona ta'limga muhitini yaratish jarayonida ishtirok etish haqidagi Deklaratsiya imzolandi. Uning maqsadi taqqoslanadigan darajalar tizimini qabul qilish, akademik va kasbiy tan olishni yengillashtirish va bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratildi. Bolonya jarayoni barcha davlatlar uchun ochiq bo'lib, bugungi kunga kelib ishtirokchi davlatlar soni 50 ga yaqinlashib qoldi.



Bolonya deklaratsiyasini imzolagan barcha davlatlar oliy ta'limning ikki bosqichli (bakalavriat – 3-4 yil, magistratura – 1-2 yil) tizimiga o'tishgan. Oliy ta'limdan keyin doktor (3-4 yil) darajasini olishga imkon yaratiladi.

Xorijda ECTS (European Credit Transfer System) tizimi ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir o'quv faniga yuklama hajmidan, kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhimligidan kelib chiqib kredit bali belgilanadi. Talaba har bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan taqdirda belgilangan kreditlarni oladi va bu kreditlar yig'indisi unga mos bo'lgan bakalavr yoki magistrlik darajasini olishga imkon beradi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bu tizim haqida ba'zi odam dastlab noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishadi, ya'ni, "kredit"ni baho deb noto'g'ri tushunishadi. Kredit – bu baho emas, balki biror fanni o'zlashtirish uchun sarflanadigan talabaning ish hajmining o'lchovi hisoblanadi.

Kredit ta'lim tizimiga o'tish O'zbekiston Respublikasida ta'lim bosqichlari va akademik darajalarni aniq baholashga imkon beradi va ularni shaffof, tashhislanadigan va tan olinadigan holatga keltiradi. Bu esa jahonda tobora ommalashib borayotgan ta'lim muhitiga qo'shilishning bosh shartlaridan biri hisoblanadi.

«Kredit» atamasi (ECTS-credit)- sinovdan o'tdi, ma'lum bir kursni o'quv yurtida o'tganligi haqidagi guvohnoma ma'nosini anglatadi. ECTSda «Kredit» - shartli sinov birligi bo'lib, talabaning o'quv fanining ma'lum bir qismini o'tganligi haqidagi ma'lumot beradi. Har bir o'quv faniga ma'lum miqdordagi kredit birliklari ajratiladi. Kredit birliklari soni, talabalarning mehnat sarfiga mos holda belgilanadi.

Kredit tizimining asosiy tamoyillari va elementlari O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga uzoq vaqt davomida innovatsiyalar shaklida tatbiq qilib kelindi va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Masalan, kadrlar tayyorlashda ikki bosqichli oliy ta'lim – bakalavriat va magistratura, hamda ikki bosqichli doktorantura yo'lga qo'yildi, o'quv rejalarida tanlov fanlari joriy etildi, mustaqil ta'lim turlari va ularning hajmi aniq belgilab qo'yildi, haftalik auditoriya yuklamalari 30 soatgacha qisqartirildi, amaliy mashg'ulotlar va malakaviy amaliyotlar hajmi oshirildi, akademik almashinish dasturlari va diplomlar nostrifikatsiyasi yo'lga qo'yildi, mutaxassislikka aloqasi bo'lмагan fanlar soni qisqartirildi, talaba-o'qituvchi nisbatini 16:1 gacha oshirish rejalashtirildi va h.k. Ushbu amalga oshirilgan ishlar kredit-modul tizimiga mos elementlar bo'lib bizning bu tizimga ortiqcha qiyinchiliklarsiz o'tishimizga yordam beradi. Demak, oliy ta'lim tizimiga tadbiq qilib kelinayotgan so'nggi yillardagi innovatsiyalar bizni bu tizimga ancha yaqinlashtirib qo'ydi.

Biz bu yerda kredit-ta'lim tizimiga o'tishda pedagoglar uchun muhim bo'lgan ikkita jihat haqida to'xtalib o'tmoqchimiz – birinchisi, kredit-modul tizimida qo'llaniladigan atamalar bo'lsa, ikkinchisi – bu talabaga qaratilgan o'qitish usulidir.

Kredit ta'lim tizimi atamalari hali bizning ta'lim tizimimizda unchalik ommalashmagan bo'lsa ham ular ma'lum ma'nolarda qo'llanib kelinmoqda.

Masalan, "Educational Program" (ta'lif dasturi) muayyan ta'lif bosqichi (bakalavriat, magistratura, doktorantura) bo'yicha mutaxassislikni anglatса, "Academic Program" (o'quv dasturi) o'quv fanini bildiradi va "Syllabus" (sillabus) atamasi bilan bir xil ma'noni anglatadi. "Course" atamasi o'quv yilini emas, balki o'quv kursini, fanini, modulini bildiradi. "Faculty" atamasi fakultetni emas, balki professor-o'qituvchilar tarkibini anglatadi. O'qituvchining lavozimini ko'rsatishda "Lecturer" (lektor, ma'ruzachi) va "Tutor" (tyutor) atamalari keng qo'llaniladi. Klassifikatorda qo'llaniladigan "mutaxassislik" tushunchasini ifodalash uchun ingliz tilida "Speciality" emas, balki "Major" atamasi qo'llaniladi. O'quv rejasi esa "Academic Plan" emas, balki "Curriculum" shaklida ishlataladi.

ECTS ning xususiyatlari. Zamonaviy o'qitish texnologiyasi, oliv ta'lif muassasasining jihozlanganligi, professor-o'qituvchilar tarkibi faqat darajali, yuqori malakali kadrlardan iborat bo'lishi, o'qitishning yuqori sifatlari - ECTS uchun dastlabki zaruriy talablar hisoblanadi. O'quv jaryonini tashkil etishning ushbu tizimi, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'quv rejasi bo'yicha:


Barcha o'quv fanlari ikki guruhga bo'linadi - majburiy va talaba tanlovi asosidagi fanlar.

- ♦ Bu nisbatan taxminan 1:2 teng qabul qilinadi;
- ♦ Har bir talaba shaxsiy o'quv rejasiga ega bo'ladi;
- ♦ Asosiy hujjat transkript (transcript of records) u ECTS ning unifikatsiyalashgan hujjat bo'lib, yagona shaklda tuziladi, o'qitish natijalarini tan olish uchun majburiy hujjat hisoblanadi. Transkriptda, talabaning mazkur davlatda qabul qilinga baholash tizimida ham, ECTS tizimi bo'yicha ham olgan baholari, olingan ECTS kreditlari bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi.

- ♦ Har bir semestrda o'r ganiladigan fanlarning soni 3-5 ta bo'lishi;
- ♦ Mustaqil ishga ajratilgan soatlar, auditoriya soatlarida ko'p bo'lishi;

Kredit o'zida talabaning o'quv fanini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan barcha mehnat sarflarini mujassamlashtirdi. O'quv fani uchun ajratilgan kreditlar soni, aksariyat hollarda 3 ga teng bo'ladi.

2.2. Kredit tizimi asosida ta'lif jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari. O'quv jarayonini rejalashtirishda quyidagi atamalar qo'llaniladi:



“Academic Calendar” - o‘quv jarayoni jadvali;

- “Core Subjects” - majburiy fanlar;
- “Elective Courses” – talabalar tomonidan ixtiyoriy tanlanadigan fanlar;
- “Course Description” – fanning qisqa mazmuni, qisqa bayoni;
- “General Education Requirement” (GER) – umumta’lim fanlari, tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar; asosan 1-2 kurslarda o‘qitiladi;
- “Office Hours” – talabaning dars jadvalida ko‘rsatiladigan, o‘qituvchi rahbarligida auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ish turi; bu faoliyat turlariga bizning ta’lim tizimimizdagi hisob ishi, chizma ishi, kurs ishi, kurs loyihalarini misol keltirish mumkin;
 - “Prerequisite”, “Postrequisite” – fandan oldin va keyin o‘qilishi zarur bo‘lgan fanlar; talaba biror fanga yozilishi uchun undan oldin o‘qilishi zarur bo‘lgan fanlarni o‘qigan bo‘lishi shart; shu tariqa keyingi o‘qish traektoriyasini ochib boradi;

Ko‘rinib turibdiki, bu atamalarning ekvivalentlari bizda mavjud, faqat ularni amaliyotda qo‘llashimiz lozim.

Kredit-modul tizimini tashkil qilishda bizning hozirgi ta’lim tizimimizda mavjud bo‘lмаган va uning o‘зигагина xос bo‘lgan atamalar ham qо‘llaniladi. Masalan:

- “Credit, Credit-hour” - kredit, kredit-soat, ya’ni o‘quv ishlari hajmini o‘лчашнинг yagonalashtirilgan birligi; bir kredit semestr davomida har haftada o‘tiladigan bir akademik soatni va uni o‘зlashtirish uchun belgilangan mustaqil ta’lim soatlarini o‘з ichiga oladi;
- “Enrollment” - talabaning shaxsiy traektoriyasini shaklantirish uchun yangi o‘quv kurslariga yozilishi;
- “Office of Registrar” – Registrar ofisi – fanlarga talabalarni qayd qilish va ularning o‘quv davridagi barcha o‘зlashtirish ko‘rsatkichlarini qayd qilishning markazlashtirilgan xizmat turi; Registrar ofisining faoliyat turlari keng bo‘lib, talabaga qaratilgan barcha yozuvlarni o‘з ichiga oladi; bu faoliyat turlari bizning tizimimizda bir nechta bo‘limlarga (dekanat, o‘quv bo‘limi, kadrlar bo‘limi, ma’naviyat bo‘limi, qabul bo‘limi va h.k.) bo‘lib yuborilgan;



- Grade Point Average (GPA) – o'rtacha ball, talabaning fanlarni o'zlashtirishining o'rtacha bahosi (fanlar bo'yicha kreditlarning raqamli ekvivalentlarga ko'paytmalari yig'indilarining o'quv davridagi umumiy kreditlar soniga nisbati); talabalarni keyingi bosqichga o'tkazish uchun qo'llaniladi.

- Transcript – akademik ma'lumotnomma, belgilangan shakldagi hujjat bo'lib, o'quv davridagi o'tilgan fanlarni va ular bo'yicha to'plangan kreditlarni, baholarni va o'rtacha balni ko'rsatadi.

“Advisor” (edvayzer) – talabaga mutaxassislik bo'yicha o'quv traektoriyasini tanlash va o'quv davridagi fanlarni o'zlashtirish bo'yicha yordam beruvchi mutaxassislik kafedrasini o'qituvchisini bildiradi, bu atama bizning leksikonimizdagi murabbiy, ustoz ma'nolariga yaqin keladi.

Kredit-modul tizimini tadbiq qilishda ushbu xalqaro atamalardan tashqari o'zbek tilida qo'llash mumkin bo'lgan bizning ta'lim tizimimizda mavjud bo'limgan yoki boshqa ma'noda qo'llaniladigan quyidagi atamalar ham paydo bo'ladi, masalan:

- talabaning shaxsiy o'quv rejasi – namunaviy o'quv reja va tanlov fanlari katalogi asosida talaba tomonidan uning edvayzeri ko'magida tanlanadigan o'quv traektoriyasi; ishchi o'quv rejani tuzish uchun asos bo'ladi; bizning ta'lim tizimimizda bunday hujjat mavjud emas.

- ishchi o'quv rejasi – talabalarning shaxsiy o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan o'quv rejasi, o'qituvchilarining o'quv ishlari yuklamalarini hisoblash uchun asos bo'ladigan hujjat; kredit-modul tizimidan farqli ravishda bizning ta'lim tizimimizda ushbu hujjat namunaviy o'quv rejasi asosida shakllantiriladi.

- kredit ta'lim tizimi – o'quv jarayonini tashkil etish shakli bo'lib, talabalarga o'z o'quv traektoriyalarini muayyan chegarada belgilash imkonini beradi, mustaqil va ijodiy bilim olishni rag'batlantirishga yo'naltiriladi, o'zlashtirilgan bilimlar hajmi kreditlarda o'lchanadi.

- kurs siyosati – fanni o'zlashtirish bo'yicha talabalarga qo'yiladigan talablar; bizning ta'lim tizimimizda bunday atama qo'llanilmaydi, fanni olib borish OTM tomonidan belgilangan ichki tartib-qoidalar asosida tashkil qilinadi.

- ma'lumotnomma-ko'rsatkich – akademik kalendar, oliy o'quv yurti haqidagi umumiy ma'lumotlar, talabaning huquqlari va majburiyatları, kredit ta'lim tizimining asosiy qoidalari, har bir fan bo'yicha yakuniy baholashlarni hisoblash metodikasi va o'rtacha ball (GPA), yakuniy davlat attestatsiyasi talablari va shu kabilarni o'z ichiga oladigan ma'lumotnomma.


- mustaqil ish – mavzular bo'yicha mustaqil ta'limga ajratilgan ish bo'lib, o'quv-uslubiy adabiyotlar va tavsiyalar bilan ta'minlanadi, testlar, nazorat ishlari, kollokviumlar, referatlar, bayon va hisobotlar shaklida nazorat qilinadi; kredit ta'lim tizimida amaldagi ta'lim tizimidan farqli ravishda mustaqil ish “o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi” va “talabaning mustaqil ta'limi” kabi turlarga ajratiladi.



- namunaviy o'quv reja – o'quv fanlarini o'rganish ketma-ketligi va hajmini belgilovchi o'quv rejasi; amaldagi ta'lif tizimidan farqli ravishda bu hujjatda akademik soatlari ko'rsatilmaydi.
- oraliq attestatsiya – fanlarni o'zlashtirishning kompleks baholanishi; bu nazorat turi bizda unchalik ommalashmagan, u fanlararo nazorat hisoblanadi.
- tyutor – fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi va maslahat beruvchi, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qiluvchi va bajarilishini ta'minlovchi, fan bo'yicha bilimlarni tizimga keltiruvchi, semestr va kurs ishlariga rahbarlik qiluvchi, o'quv amaliyotlarini tashkil qiluvchi o'qituvchi.
- fan kodi – o'quv rejasida har bir fan uchun belgilab qo'yiladigan harf-raqamli belgi, xalqaro nomlanish asosida belgilanadi; bunday kod amaldagi ta'lif tizimida o'quv rejalaridagi fan bloklari bo'yicha tartib asosida belgilanadi va keyinchalik deyarli qo'llanilmaydi. Ushbu kod xalqaro nomlanish asosida belgilanadi va fanni qisqa nomlash uchun keyinchalik barcha jarayonlarda qo'llaniladi.

Endi, kredit-modul tizimining talabaga qaratilgan o'qitish usuli haqida to'xtalib o'tamiz.

Oliy ta'limga qarashlarda "teaching" formatidan "learning" formatiga tomon o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, ya'ni talabani "o'qitish" emas, balki talaba "o'qishi" kerak degan g'oya ustuvor bo'lmoqda. Bu g'oyaga ko'ra inson butun umri davomida o'qiydi, talaba fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil tarzda o'zlashtiradi, o'qituvchining vazifasi esa – talabaning shaxsiy qiziqishlaridan kelib chiqqan holda unga zarur yordamlarni ko'rsatishdan iborat bo'ladi.



Kredit-modul tizimida milliy ta'lif dasturlari xalqaro tan olinishini, talabalarning va professor-o'qituvchilarning mobilligi ta'minlanishi lozim. Amaldagi ta'lif tizimida bu jarayonlar yo'lga qo'yilgan. Faqat, ochig'ini tan olish kerak, turli OTM lardagi turdosh va bir xil yo'nalishdagi o'quv rejalarining o'zaro mosligi ta'minlanmagan.



6 Кредит = 180 соат ўқиш юкламаси
(40% аудитория соатлар / 60% мустақил ўқиш соатлар)

Oliy ta'lif bosqichlari bo'yicha O'zbekiston modeli tayanch bosqich kamida 3 yil davom etishi jihatidan Bolonya jarayonlari talablariga va har biri 2 pog'onadan iborat 2 bosqichdan iboratligi bo'yicha Amerika modeliga mos keladi.

Bakalavriat dasturi kasbiy



faoliyatning umumiy, integrallashgan jihatlarini inobatga olish, kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish va mustaqil bilim olish ko‘nikmasini shakllantirish orqali ixtisoslik fanlari bo‘yicha bilimlar asosini egallahni nazarda tutuvchi keng tayanch kasbiy tayyorgarligini nazarda tutadi.

Magistraturada ta’lim mutaxassislikka va ilmiy-pedagogik tayyorlovga yo‘naltirilgan. Magistratura ta’lim dasturlarida ta’limning ilmiy-metodologik yo‘nalganligi va soha bo‘yicha chuqur mutaxassislik tayyorgarligi ko‘zda tutiladi. Magistratura bitiruvchilariga “magistr” akademik darajasi taqdim etiladi. Magistrlar doktoranturada o‘qishni davom ettirish huquqiga egadirlar.

Doktorantura oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning yakuniy ta’lim bosqichi hisoblanadi. Doktorlik dasturlarining o‘ziga xosligi ta’lim va izlanuvchilik faoliyati o‘rtasida optimal muvozanatni ta’minlash, keng ilmiy, o‘quv va metodologik tayyorlov, mamlakatdagi o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarning akademik mobilligini ta’minlashda namoyon bo‘ladi.

Doktorantura dasturini egallagan va doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan shaxslarga falsafa doktori (PhD) ilmiy unvoni, mutaxassislik bo'yicha doktoranturani o'zlashtirganlarga esa fan doktori ilmiy unvonlari (tibbiyot, san'at, ta'lim, huquq, texnika, kimyo va h.k.) beriladi.

Shunday qilib, ta’lim tizimlarini yagona xalqaro ta’lim muhitiga muvofiqlashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasida oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’limning quyidagi kasbiy ta’lim bosqichlari joriy etilgan:

1) bakalavriat – birinchi bosqich dasturi (o‘rta ta’limdan keyingi birinchi pog‘ona) bo‘lib, o‘qish muddati 4 yil; endilikda u ikkita bosqichdan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq: pastki (oraliq daraja) – 2 yil va yuqorigi (akademik daraja) – 2 yil, bu oliy ta’lim samarasining 2 hissa oshishiga olib keladi;

2) magistratura – ikkinchi bosqich dasturi (o‘rta ta’limdan keyingi ikkinchi pog‘ona) bo‘lib, o‘qish muddati 1-2 yilni tashkil etadi, bunda chuqur mutaxassislik va ilmiy-pedagogik tayyorlov amalga oshiriladi;

3) doktorantura – oliy ta’limdan keyingi ikkinchi bosqich dasturi (o‘rtalama ta’limdan keyingi uchinchi pog‘ona) bo‘lib, o‘qish 3-4 yil davom etadi va ikki bosqichda amalga oshiriladi – falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy unvonlariga erishish nazarda tutiladi.

Syllabus – bu ta’lim oluvchilar uchun o‘quv fani ishchi dasturining qisqacha mazmuni bo‘lib, unda o‘quv fanining maqsadi, vazifalari hamda ta’lim oluvchilarga qo‘yiladigan talablar o‘z ifodasini topadi.

O'quv fani dasturining mazmuni (silabus) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ◆ O‘quv fanning to‘liq nomlanishi va uning o‘kuv rejasidagi tartib raqami;
 - ◆ O‘quv fanini o‘rganish maqsadi;
 - ◆ O‘quv fanining qisqacha mazmuni;
 - ◆ Kalendar-mavzuviy reja, mashg‘ulotlar jadvali bilan;
 - ◆ O‘qitish texnologiyasi;
 - ◆ Talabaning mas’uliyati va unga qo‘yilgan talablar;
 - ◆ Talabalar bilimini baholash tartibi va mezonlari;
 - ◆ Asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar ro‘yxati



O'qituvchining o'quv yuklamasini hisoblashda:

- ♦ Umumiy mehnat sarfi miqdori (auditoriya sotlari va mustaqil ish) bir o'quv yilida 750-800 soatni tashkil etishi - e'tiborga olinadi.

O'qitish jarayonining asosini:

- ♦ Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari;
- ♦ Talabaning mustaqil ishida, o'qituvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi;
- ♦ Talaba o'quv fanini va o'qituvchini tanlash huquqiga ega.

Har bir talabaga axborot paketi beriladi, u quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- ♦ Oliy ta'lismuassasida haqida ma'lumot;
- ♦ O'quv rejasi;
- ♦ O'quv jarayonining grafigi;
- ♦ O'quv fanlarining mazmuni;
- ♦ Oliy ta'lismuassasada qabul qilingan ta'lism tizimining metodik xususiyatlari haqida ma'lumotlar;
- ♦ Talabalar bilimini baholash tizimi va baholar shkalasi haqida ma'lumotlar;
- ♦ Ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarga tegishli ma'lumotlar;
- ♦ Tarixiy va madaniy sohaga oid ma'lumotlar;
- ♦ Qo'shimcha ta'lism xizmatlari to'g'risida ma'lumotlar.

ECTS – oliy maktabda o'quv jarayonini tashkil etishning eng demokratik tizimidir.

ECTSning asosiy tamoyillari. ECTS quyidagi asosiy tamoyillarga tayandi:

1. **Transferancy** – bu ECTS tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to'siqsiz kirishiga shart-sharoit yaratish. Ushbu shart-sharoit kuchli axborot targ'iboti vositasida yaratiladi, uning natijasida umumiy yangilik, aniqlik va ochiqlik muhiti shakllantiriladi.

Axborot targ'iboti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ♦ Almashish sxemasiga kiritilgan talabalarning o'qish natijalari haqida bir biriga o'z vaqtida axborot yetkazib turish;
- ♦ Oliy o'quv yurtlarining o'z axborot paketlari bilan muntazam almashib turishlari, ta'lism xizmatlari doirasida bir birini imkoniyatlarini o'rganish;
- ♦ Oliy o'quv yurtlarida, ECTS haqida to'la ma'lumotlarning mavjudligi.

2. **Agreement** – Talaba bilan ikkala oliy ta'lismuassasining ECTS koordinatalarini orasida tayyorlash mazmuni, o'qish tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o'quv rejalaridagi farqni bartaraf etish tartiblari haqida o'zar kelishuvlarini anglatadi.

3. **Credits** – Host universitetida (qabul qiladigan univesitet) muvaffaqiyatli o'tilgan barcha fanlar Post- universitetda (talabani boshqa OTM ga jo'natgan universitet) hisobga olinishi zarur.

4. **Ta'larning insonparvarlashuvi** - bu shaxsning turli ta'lilmiz xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishi va ta'lilmiz jarayonida inson qobiliyatining ochilishini anglatadi. ECTS ta'limga davom ettirish uchun oliy ta'lismuassasini, o'quv fanlarini va o'qituvchilarini tanlash imkoniyatni beradi.

5. **Ta'larning individuallashtiruvchi** - bu har bir talabaning individual reja va ta'limgan dasturlariga ega ekanligini ifoda etadi. Talaba tanlovi asosidagi fanlar 70% ni, majburiy fanlar esa 30% dan oshmaydi. Talabaning mustaqil ish hajmi 70% ni, auditoriyadagi ishi esa 30% tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar individual ta'limgani tashkil etishga asos bo'lib xizmat qiladi.

6. **Ta'larning samaradorligi** – guruhda individual o'qitishli auditoriya mashg'ulotlari va talabaning mustaqil ishlarini uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Auditoriya o'quv vaqtining 70% gacha qismini individual o'qitishga, shuningdek umumiy o'quv vaqtining 70% gacha qismini mustaqil ishga ajratilishi o'quv fanlarining talabalar tomonidan tabiiy qobiliyatlar darajasida o'zlashtirishga imkon yaratadi. Ushbu bilan ta'larning samaradorligi ta'minlanadi.

ECTS tamoyillari - shaxsning to'la rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriyigini ko'zda tutadi.

NAZORAT SAVOLLARI

7. O'zbekiston Respublikasi ta'limgan tizimiga kredit modul tizimida o'qitishni tashkil etishning maqsadi vazifalari.

8. Kredit tizimining asosiy tamoyillari va elementlari.

9. Kredit ta'limgan tizimi atamalari mohiyatini bayon qiling.

10. ECTS ning xususiyatlari?

11. Kredit tizimi asosida ta'limgan jarayonlarini tashkil etish haqida fikringizni bayon qiling.

12. Kredit tizimi asosida ta'limgan sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari.

3-MAVZU. TEXNOLOGIK TA'LIMGA OID MAXSUS FANLAR BO'YICH A MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGNING INNOVATSION TEXNOLOGIYaLARDAN FOYDALANISH MAHORATI, IJODKORLIGI VA NOVATORLIGI.

Reja:

1. Texnologiya ta'limi o'qituvchisining kasbiy-pedagogik muhim sifatlari.

2. Texnologiya ta'limi o'qituvchisining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish tizimi.

3. Professional o'qituvchi shaxsi. maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogning boshqaruv mahorati, texnikasi va uslublari.

Tayanch tushunchalar:*kasbiy-pedagogik sifatlar, shakllanish, ijodkorlik, pedagogik mahorat, boshqarish texnikasi, kasb, kasbiy shakllanish.*

3.1. Texnologiya ta'limi o'qituvchisining kasbiy-pedagogik muhim sifatlari Respublikamizda ta'limgan tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, faol va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmokda.



Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning modernizatsiyalashayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti, mutaxassis kadrlardan o‘z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to‘ldirib va kengaytirib borishni talab etadi.

Kasb – jamiyatga zarur bo‘lgan faoliyatning tarixan yuzaga kelgan shakllaridir. Uni bajarish uchun inson bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisiga mos keluvchi qobiliyat va kasbiy sifatlarga ega bo‘lishi lozim.


Kasbiy shakllanish – muayyan bir sohani takomillashtirishga qaratilgan bilim, ko‘nikmalar majmui. Kasbiy shakllanish – ta’lim olish jarayonida u yoki bu sohaga doir bilim, ko‘nikmalar majmui. Kasbiy shakllanganlik – ahamiyatga ega kasbiy natijalarga erishish va faoliyatini yuqori darajada amalga oshirish imkonini beruvchi psixik sifatlari majmuidir.

Kasbiy sifatlar – shaxsning muayyan sohadagi bilim, ko‘nikmalari, malakalari majmui va mehnat faoliyatida o‘z qobiliyatini sifatli va samarali amalga tadbiq etish imkoniyatidir.

Kasbiy shakllanishda kasbiy sifatlar va rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq: kasbiy sifatlar bir tomonidan kasbiy rivojlanish jarayonida shakllansa, boshqa tomonidan esa, shaxsning mutaxassis sifatida namoyon bo‘lishining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Amaliy jihatdan bu quyidagilarni anglatadi: yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda o‘z o‘rniga ega bo‘lish, raqobatga bardoshlik, farovon kelajakni ta’minlash uchun mutaxassis doimiy ravishda

rivojlanishi, qolaversa, ijtimoiy va mehnat sharoitida o‘zining mavqeini tahlil qilib borishi lozim. Shuning uchun kasbiy sifatlarni taddiq qilishning zamonaviy yo‘nalishi shaxsning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishi jarayoni bilan o‘zaro bog‘liq jihatlarini o‘rganish hisoblanadi.

Kasbiy shakllanish individning mutaxassisiga shakllanishi, ya’ni insonning o‘zi, kasbiy va ijtimoiy muhitdagi mavqeい haqidagi



tasavvurlarining o‘zgarishi, qolaversa, yangi kasbiy sifatlarni o‘zida qaror toptirishi, keng ma’noda aytadigan bo‘lsak, shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi anglashi bilan hamohanglikda kechadigan jarayondir. Kasbiy shakllanish inqirozlari davrida kasbiy sifatlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

O'qituvchilar kasbiy sifatlarining shakllanganligi pedagogik mehnatning barcha tomonlari: (kasbiy faoliyatda, kundalik munosabatlarda, shaxsiyat rivojlanishida, mehnatning majmuyl natijasi)da namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, oliy talim muassasalarini o'qituvchisining eng muhim vazifasi talabalarning kasbiy sifatlarini barqarorlashtirish, to'ldirish va uzatish mexanizmlarini boshqarish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich takomillashtirish uchun psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishdan iborat. Ularni amalga oshirish bosqichlari quyidagicha: talaba faoliyatining o'qituvchi tomonidan boshqarilishi; o'qituvchi va talaba tomonidan kasbiy sifatlar shakllanishini birgalikda boshqarilishi; bo'lajak mutaxassisning kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishini mustaqil boshqarishi.

Texnologik ta'lifi o'qituvchilari talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirishda quyidagilar taqozo etiladi:

- pedagogik hamda ishlab chiqarish amaliyotida muammoli vaziyatlarda aniq qaror qabul qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish;



- ta'lif yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha axborotlar olish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun fanlararo o'zarlo aloqadorlikka erishish asosida muammoli vaziyatlari topshiriqlarni ishlab chiqish va ularni tizimlashtirish;

- pedagog kadrlar tayyorlash tizimi sifatini oshirishda ta'limning yangi shakllaridan foydalanish jihatlarini ilmiy asoslash.

Texnologik ta'lifi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarda kasbiy sifatlarni shakllantirishni bilim olishga qiziqish va qobiliyatni, pedagogik madaniyatni takomillashtirishga qaratilgan omil sifatida qarash lozim. Muammoni hal etishning muhim omili sifatida texnologik ta'lifi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilardan pedagogik takomillashish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish va malakasini oshirish talab etiladi.

Texnologik ta'lifi o'qituvchilari talabalarda kasbiy sifatlarni shakllantirishlari uchun faoliyatini aniq bir maqsadga yo'naltirishi va unga erishishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak.

- O'z bilimini mustaqil oshirish, pedagogik amaliyot o'tayotgan ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi va axborot resurs markazi imkoniyatlaridan unumli foydalanish, o'quv xonasi, ustaxona va amaliyot shart-sharoitlari ta'lim oluvchilariga moslashtirish kerak.

- Bo'lajak texnologik ta'lifi o'qituvchisi o'zida quyidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

- o'quvchilarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olish;

- o'quvchilar bilan emotsional aloqa o'rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyatining turli jahbalariga faol ta'sir etish.

3. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchisi o'zining kasbiy sifatlarini shakllantirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo'llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik ob'ektlarni to'g'ri tanlab faoliyat ko'rsatishi kerak.


4. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchisi pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual tarzda yoki jamoa bilan birga o'z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq.

5. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchisi o'z bilimlarini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etish va ma'lum maqsadga yo'naltirish zarur. Buning uchun u:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;
- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik-psixologik va texnik tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

Texnologik ta'limi o'qituvchisining kasbga yaroqliligi bu – sub'ektiv shart-sharoitlardan qat'i nazar, barqarorlik bilan ajralib turadigan, ta'lim va tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga individual tayyorgarlik bilan asoslanadigan muhandislik-pedagogik faoliyat darajasidir. Bu ehtimoliy natijalarni oldindan ko'ra bilish, ularni baholash, pedagogik vaziyatni tahlil qilish va izlanayotgan natijalarga erishish yo'lida samarali faoliyat tizimini modellashtirish, o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritish va uni asoslab berishga qodir bo'lgan texnologik ta'limi pedagogining mos keluvchi bilimlari va tajribasidir.

Shu nuqtai nazardan texnologik ta'limi pedagogining kasbiy yaroqliligini kasbiy yetuklik bosqichi sifatida, kasbiy mohiyatni shakllantirishning boshlang'ich bosqichi sifatida ko'rib chiqish mumkin.





1-shakl. Texnologik ta'lifi o'qituvchilari kasbiy sifatlarining shakllanish funksiyalari

Pedagogik tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, oliv ta'lif muassasalarida o'qitish jarayoni talabalarining kasbiy yaroqliligin shakllantirish va uning darajasini tashxis qilish bo'yicha maxsus tashkillashtirilgan ishlarsiz, talabalarining uzluksiz texnologik ta'lif tizimida tayyorgarlikning birinchi bosqichida olingan o'z kasbiy tajribasini hisobga olgan holda, faqat bilimlar, malaka va ko'nikmalar shakllantirish bilan chegaralanadi.

3.2. Texnologiya ta'lifi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish tizimi

Hozirgi zamон sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning metodologik va ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan integrativ bilim berishning tizimli modellarini ishlab chiqish va natijalarini ob'ektiv baholash bo'yicha tadqiqotlar AICHI university of Education (Yaponiya), National Institute Of Technical Teachers Training And Research (Hindiston), Shaansi Normal University (Xitoy), Princeton university (AQSh), Belfield pedagogical university (Germaniya), National Advice on pedagogical technology (Angliya), Ta'lif akademiyasi (Rossiya), Toshkent davlat pedagogika universiteti (O'zbekiston) kabi nufuzli oliv ta'lif muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Texnologiya ta'lifi o'qituvchilari kasbiy-pedagogik ijodkorliklarini rivojlantirishning **birinchi sharti** boshqa oliv ta'lif muassasalari singari pedagogik yo'nalishdagi ta'lif tizimida ham ilg'or, innovatsion va yetakchi bo'lgan bilim olish texnologiyalarini yaratish jarayoni bilan bog'liq. Talabalarining bilim olishida kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish jarayonini takomillashtirish shartli ravishda ikkita yo'nalishi ajratiladi. Birinchi yo'nalish tashqi faktorlarga va ta'sirlaga qaratilgan. Texnologiya ta'lifi o'qituvchining kasbiy-pedagogik ijodkorlik faoliyati mazmuni, uni tashkil etish tamoyillari, bosqichlari, tarkibiy qismlari, o'quv jarayonining loyihalash darajalari haqida bilimlarni ishlab chiqish, o'quvchilarning oliv ta'lif muassasalarida kasbiy mustaqil faoliyatlarini boshqarish uchun axborot bazasini shakllantirishidir.

Kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishning ikkinchi yo'nalishi talabanining shaxsiga yo'naltirilgan. Bu refleksiv faoliyat: ularning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish, pedagogik ijodiy faoliyatning individual uslubini ongli shakllantirish, shuningdek, oliv ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini shakllantirishning individual uslubi hisoblanadi.



Texnologiya ta'lifi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorliklarini rivojlantirishning **ikkinci sharti** - pedagogik qadriyatlar tizimini shakllantirish bilan bog'liq loyihalash faoliyatidir.



Kasbiy-pedagogik ijodkorliklarini rivojlantirishda o'qituvchining o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini namoyon qilish bilan bog'liq qadriyatları, ya'ni kelajakdagi o'qituvchining reproduktiv faoliyatiga e'tibor qaratiladi.

Uchinchi sharti texnologik-faoliyat turiga kiradi, chunki u o'quv jarayonini ishlab chiqish va bajarish operatsiyalari va amaliyotlarni o'zlashtirishi bilan bog'liq bo'lib, ushbu tadbirlarni bajarish uchun ko'nikmalar shakllantiriladi. Kasbiy-pedagogik ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish doimiy ravishda amalga oshiriladi: birinchi navbatda reproduktiv, produktiv, qisman izlanuvchan va kreativ darajalarda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi muhim hisoblanadi.

To'rtinchi shart, o'qituvchining kommunikativ qobiliyatları bilan bog'liq. O'quv jarayonida kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish usullarini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarni mustaqil muloqotchanlik faoliyatga jalb qilish mumkin. Kontekstli ta'limga va o'quv amaliyoti asosida amalga oshiriladigan ta'limga kasbiy-pedagogik ijodkorlik orqali amalga oshirilishi mumkin. Ta'limga texnologiyalarining turli xil variantlarini muhokama qilish, ularning afzalliklari va kamchiliklari, muayyan ta'limga texnologiyalarini ishlab chiqishda birqalikdagi tadbirlar, ta'limga jarayonini taqlid qilish - bularning hammasi kommunikativ qobiliyatni talab qiladi.



O'qituvchining kasbiy-pedagogik ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning **beshinchi sharti** o'qituvchining malakasiga, intuitsiyasiga va shaxsiy imtiyozlariga asoslangan estetik xususiyatga egaligi. Ushbu tadbirlarning natijasi pedagogik jarayonning nozik, chiroyli va uyg'un loyihasini amalga oshiradi. Texnologiya ta'limi o'qituvchilarining estetik didini rivojlantirish, jumladan, loyihalash faoliyati rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Ijodkorlik – «qayta shakllantirish», – «mavjud shakl unsurlari yordamida yangi shakl yaratish demakdir». «Qayta shakllantirish» ijodkorligi o'z ichiga oldindan ma'lum bo'lgan shaklga o'xshagan yangi shaklni kashf etishdir, ya'ni bu jarayon munosib bo'lmagan shaklni, munosibrog'i bilan almashtirishni o'z ichiga oladi. Bu degani, oldingiga qaraganda mukammalroq tarkibiy qismlarni joylashtirish demakdir. Shu kabi ijodkorlikni o'rga-nish imkoniyatlarini isbotlash uchun qanday evristik, ya'ni yangi taklif va yo'riqnomalarimiz borligini ko'rsatishimiz zarur. Imkoniyatlarni, yangi yo'llarni faol izlashimiz, narsalarni o'rga-nish, chalg'ituvchi va taxminiy fikrlarni aniqlay bilishimiz darkor. Bu holda o'rganish imkoniyatlari asosiy yo'nalishlarni idrok qilish, yo'l va choralarini faol bilishga intilishni taqozo qiladi. Albatta, topilgan shakl-qoidalarimizga bo'ysundirilishi darkor.

Ijodkorlik «bir shakldan ikkinchi shaklga o'tkazish» – bu jarayonda qoidalarning yangi qolipi, chizmasi, ma'lum tuzilma-larning yangi turi yuzaga keladi. Yangi yaratilgan shakllar eski shakllarning yangicha talqini bo'lmaydi. Lekin narsalarni anglash-ning haqiqatan yangi usullari va yangi shakllari sifatida



paydo bo'ladi, metaforalarning qo'llanilishi – bu bir shakldan ikkinchi shaklga o'tkazish «transformatsion» ijodkorlikka misol bo'ladi.

Bu ijodkorlik uchun evristik jarayon shakl va qoidalardan boshqariladigan shakl qoidalarini rivojlanishi uchun tug'ilayotgan imkoniyatlar sari harakat qiladi. Ijodkor shaxs qoidalar yaratilishi bilanoq, ularga suyangan holda, yangi qoidalar yaratish ustida ish boshlaydi. Undan so'ng faoliyat shakllarini ochish, oldin hech qachon qo'llanilmagan shakllarni kashf etish uchun bosh qotiradi.

Talabalarda ijodkorlik ko'nikmasini rivojlantirishda asosiy e'tiborni ijodiy fikrlashga yo'naltiriladigan fikrlash fe'llari va fe'l ifodalarini qo'llagan xolda mashg'ulotlarni tashkil etish lozim. Ijodiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish uchun o'qituvchilar talabalarga ularni fikrlashga undaydigan savollar tarkibidagi fe'llarga e'tibor berishlari lozim. Talabalardan "bilim, ko'nikma va malaka tushunchalarini ta'riflab bering" kabi topshiriqlar ijodiy fikrlashni shakllantirmaydi. Savoldagi "ta'riflab bering" so'zi o'zingda mavjud "bilimlaringni birma-bir aytib ber" kabi tuyuladi. Ijodiy fikrlashni osonlashtirish uchun fikrlashga undovchi so'zlar, ya'ni bog'liqlikni toping, yarating, bashorat qiling, tahlil qiling, bayon eting, tasavvur qiling va shu kabi so'zlardan foydalanilsa samaradorlik yuqoriq bo'ladi.

3.3. Professional o'qituvchi shaxsi. maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogning boshqaruvi mahorati, texnikasi va uslublari. Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. O'qituvchilik sharaflı, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'ziga yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalari bayon etiladi. O'qituvchining yosh individual xususiyat-larini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayotidagi amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlik, boshqaruvi qobiliyatini egallash-ni talab etadi. Xo'sh, pedagogik mahorat nima?

Pedagogik mahorat deganda, pedagogik jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda keng dunyoqarash va qobiliyatlarini shakllantirish hamda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish tushuniladi.

O'qituvchilik mahorati yuzasidan tahlil qilingan manbalarda «pedagogik mahorat» – «o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik qobiliyati», «o'qituvchining muomala madaniyati va nutq san'ati», «pedagogik nazokat, odob va ahloq», «turli kelib chiqadigan pedagogik vaziyatlarga munosabat», «o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ilmiy ijodiy ishlash» kabi iboralar bilan tavsiflanadi. Demak, pedagogik mahorat o'qituvchining kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus sifatlari bilan birga o'z kasbiga layoqatliligi, mehri bilan tavsiflanadi.



Абу Наср Фаробий
870-950

«О'qituvchi, – deydi Al-Farobiy, – aql-farosatga, chirolyi nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur». U o‘z fikrini davom ettirib, «О'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o‘xshaydi, shu sababli o‘qituvchi eshitgan va ko‘rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chirolyi nutqqa ega bo‘lishi, yoshlarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalab berishni bilmog‘i lozim. Shu bilan birga o‘z ornomusini qadrlashi, adolatli bo‘lmog‘i lozim. Ana shundagina u insonlikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi», deb ta’kidlaydi.

Nasriddin Tusiy o‘zining «O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida» nomli asarida: «О'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo‘lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalananadigan bo‘lishi lozim. O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qaerda zaharhandali, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchining o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin», deydi. Demak, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi pedagogik mahoratdan oqilona foydalanishi, boshqarish mexanizmlaridan foydalanishi zarur. «Boshqaruv» so‘zi odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariladigan ob’ekt yoki sub’ekt tizimiga faol ta’sir ko‘rsatishi tushuniladi.

Bugungi unda boshqaruvning ma’nosi bo‘yicha bir necha yo‘nalishni ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalishga ko‘ra, boshqaruv ma’nosi – faoliyatdir. Masalan, boshqaruv jarayoni bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan, o‘z vaqtida boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri Anri Fayol boshqarishni:

- keljakni ko‘rvuchi;
- faoliyatni tashkillashtiruvchi;
- tashkilotni idrok qiluvchi;
- faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi;
- qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli qurol, deb ta’riflaydi.

Ikkinci yo‘nalishdaboshqaruv bir tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxs yoki guruhga ta’sir etishi, deb hisoblanadi.

S.N.Tidor boshqaruv ma’nosini quyidagicha tavsiflaydi:

- maqsad yo‘nalishida ob’ektni muvofiqlashtirish;
- maqsadga erishish uchun ob’ektga ta’sir etish;
- maqsadga erishish yo‘nalishida tizimni tashkil etishga ta’sir ko‘rsatishni vertikal muvofiqlashtirish.

M.Sharifxo‘jaev «Boshqaruv – bu o‘ziga xos yuksak san’at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir», deb ta’riflaydi.

Anri Fayol XX asrning boshlarida boshqaruvning beshta funksiyasini ajratib ko'rsatgan: rejalarshirish, tashkil etish, farmoyish berish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish.

Bugungi kunda davlatimiz, jamiyatimiz ta'lim xodimlari oldiga qo'ygan talablarni bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz taraqqiyotini hal etishda pedagoglar zimmasiga mas'uliyatli vazifalar yuklatilgan. O'qituvchining oldiga o'z kasbining mohir ustasi, o'quvchilar jamoasini boshqara olish qobiliyatlarini rivojlantirish kabi qator talablar qo'yiladi.

Pedagogik jarayonni boshqarish nimadan boshlanadi? Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalarshirish tashkil etish, o'quv vaziyatlari bo'yicha qaror qabul qilish, kafolatlangan natijani qo'lga kiritish, nazorat qilish, kasbiy faoliyatni muvofiqlashtirish bilan belgilanadi.

Demak, o'qituvchi tinmay o'z malakasini oshirishi, o'z ustida izlanishi, qunt bilan ishlashi talab etiladi. Buning uchun pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida boshqaruvi tizimi chuqr o'rgatilmoqda.

Pedagogik mahoratni oshirishda boshqaruvi san'atidan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ta'lim menejmentida dolzarb bo'lgan masalalar mavjud:

Ta'limda maqsadni aniq qo'ya bilish va bosh g'oyalar yechimiga e'tibor berish.

2. Pedagogik jamoada so'z va ish birligini yo'lga qo'yish, sog'lom muhit yaratish.

3. Ta'limda Davlat ta'lim standartlari talablari ijrosini sifatli kafolatlash.

4. Jamoa va o'quvchilar orasida ongli intizomni shakllantirish.

5. Har bir kasbdosh pedagogga samimiy munosabatda bo'lish.

6. Ijodkorlik, tezkorlik va ishonchni qozonish, keng qamrovli fikr yuritish, maqsad va istiqbolni avvaldan ko'rish, qilingan ishlarni tahlil etish, tanqidiy qarash, taklif kiritish, tatbiq etishga erishish.

7. Pedagogik jamoaning ichki tartib-qoidalariga amal qilish.

8. Ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish uchun sog'lom muhit va moddiy sharoit yaratish.

9. Ish yuritishda davlat, nodavlat tashkilotlar, ta'lim muassasalari, oila, mahalla bilan samimiy hamkorlik o'rnatish va ta'lim-tarbiya sifatini oshirish.

10. Ta'lim-tarbiya jarayonida sifat va samaradorlikni ta'minlash kabilardan iborat.

Bunda pedagog faoliyati quyidagi shartlarga javob berishi lozim:

– tarbiya va tahsil oluvchilarga ta'sir o'tkaza olish;

– talabchanlik;

– mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;

– obro'-e'tiborga ega bo'lish;

– pedagogik jamoa ishonchini oqlash;

– o'quvchilar faoliyatini to'g'ri idrok etish;



– ta’lim-tarbiya natijalarini kuzata bilish, baholay olish, zarur holatlarda tanqid qila olish.

Pedagogga xos sifatlar: tashkilotchilik; kasbiy ishchanlik; muomalada kirishimlilik; har qanday vaziyatda o‘zini tuta olish, vazminlik; kasbiy mahorat; uddaburonlik, bunyodkorlik; maslahat bera oladigan; aql-idrokli; o‘ziga ishonadigan; o‘rnak bo‘la oladigan; nazorat qiladigan.

O‘rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkiri Abu Nasr Farobi boshqaruv san’atidan foydalanishda quyidagilarga e’tiborni qaratish lozimligini uqtiradi:

- o‘z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmaslik;
- tabiatan nozik, farosatli, xotirasi mustahkam, zehni o‘tkirlik;
- o‘z fikrini tushuntira olish qobiliyatining ilm-ma’rifatga havaslari jo‘rligi;
- haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevish;
- yolg‘onni va yolg‘onchini yomon ko‘radigan;
- o‘zini va o‘zgalarni qadrini bilish va oriyatli bo‘lish;
- mol-dunyo ketidan quvmaslik, adolatpar-var, halol, insofli bo‘lish;
- qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lish kabilar.

Pedagogik jarayonni samarali boshqarishda aniq ish rejaga ega bo‘lish muhim hisoblanadi.

Pedagog ish rejasini ishlab chiqishda quyidagilarga e’tiborni qaratishi lozim.

1. O‘quv yili davomida ta’lim-tarbiya bora-sida olib boriladigan ishlar tahlili, ya’ni bilimlar bellashuvi, fan olimpiadalari, ko‘rik-tanlovlari va boshqa ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, tuman, viloyat, respublika miqyosidagi yuqori natijaga erishgan ijobiy ish-lar, kamchiliklar va muammolar sarhisobi.

2. Yangi o‘quv yilida amalga oshiriladigan vazifalarni belgilash:

- tashkiliy-pedagogik;
- o‘quv-tarbiya ishi samaradorligini oshirish;
- ma’naviy-ma’rifiy ishlar;
- metodik ishlar;
- moddiy-texnik bazani mustahkamlash;
- ilg‘or tajribalarini o‘rganish, umumlash-tirish va ommalashtirish.

Pedagogning boshqaruv faoliyati muvaffaqiyatli kechishi uning psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishi bilan belgilanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh kadrlarni ko‘ngildagidek o‘kitish va tarbiyalash xaqida ran borar ekan, bu g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali vazifani fakat malakali pedagogik maxoratga ega bo‘lgan kasbiy professionallikka ega bo‘lgan pedagog kadrlar bilan amalga oshirish mumkin.

Shunday ekan, pedagoglik kasbi-katta san’atdir. Bu san’atga u yoki bu pedagog osongina, o‘z-o‘zidan erisha olmaydi. Buning uchun o‘qituvchilik kasbiga, ya’ni sog‘lom avlodning chinakam murabbiy bo‘lishga xavasi, ishtiyoki zo‘r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o‘zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshira boruvchi, mustaqillik g‘oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar. Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish va



pedagogik maxorat tug‘ma talant yoki nasldan-naslga o‘tuvchi xususiyat emas, balki izlanish, ijodiy mehnat mahsulidir. Bu ko‘p qirrali pedagogik faoliyat zaminida ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish hamma o‘qituvchilar uchun standart, ya’ni bir kolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.

Bu jarayonda ilg‘or o‘qituvchining pedagogik faoliyati, maxorati va tajribalarini boshka o‘qituvchi o‘rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o‘z faoliyatini ilg‘or tajribalar bilan boyitishi zarur. O‘qituvchining pedagogik mahorati asosan auditoriya mashg‘ulotlarida yoki masofaviy on-layn darslarda yaqqol ko‘rinadi. Chunki o‘quv mashgulotlari o‘zining mazmun va mohiyatiga ko‘ra o‘qituvchining ta’lim muassasasidagi asosiy ishidir. Shu sababli u ilmiy, g‘oyaviy va ommabop bo‘lishi, turmush bilan tinglovchilarning tayyorgarlik darajasi bilan bog‘lanishi zarur. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi bilan tinglovchilar o‘rtasida o‘zaro jonli til, fikr almashuvi, samimiy munosabat, hurmat, asosiy maksadga erishishda xamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiylig so‘z va quruq nasixatgo‘ylikdan iborat



bo‘lgan, rasmiyat uchun yuzaki o‘tkaziladigan dars-ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlari tinglovchilarni kiziktirmaydi, ularni ilmiy, g‘oyaviy va amaliy jixatdan yetarli oziklantirmaydi. Shunday ekan, o‘quv mashg‘ulotlarini shunday tashkil etish kerakki, uning ta’sirida tinglovchilarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e’tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi darkor.

Pedagogik mahorat tushunchasi mazmunini “*Pedagogik ensiklopediya*” va pedagogik psixologik adabiyotlarga asoslanib quyidagicha ta’riflash mumkin:

Pedagogik mahorat - o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan yuksak darajada madaniyatli , o‘z fanini chukur biladigan, yondash sohalarni yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish metodikasini mukammal egallagan o‘qituvchi - tarbiyachi.

Pedagogik mahorat - o‘qituvchining ustoz murabbiylik fazilatlari, o‘qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste’dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy bilim va tushuncha, ko‘nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati.

Pedagogik mahorat - o‘qituvchidagi quyidagi qobiliyatlar mujassami:

- dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi;
- o‘z ta’lim oluvchilarini iloji boricha o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bir xil fikrga keltira olishi;
- mavzu mohiyatini to‘la ochib bera olishi va zaruriyat bo‘lgapda ularga bu mavzuning o‘z kasbiy faoliyatidagi o‘rni va roli haqida tushuncha bera olishi;
- dars davomida befarq xolda katnashayotgan talabani tezda dars mazmunini o‘rganishga jalgan qila olishi;



- darsni yana davom ettirishini hohlovchi ta'lif oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta'lif oluvchilarning qancha qismini tash kil etishini baxolab borish va bu orqali dars o'tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lishi;

- dars maksadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyatiga ega bo'lishi va h.k.

Pedagogik mahorat – o'qituvchining o'z fanlarini o'rganishda erishgan tajribalarini o'z faoliyatida ijodiy qo'llagan holda o'quv tarbiya ishining xamma qirralarida eng yuqori darajada erishilgan yutuqlardir.

Pedagogik mahorat - bu o'qituvchi - pedagogning shunday shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroficha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida tinglovchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishniig maqbul yo'llarini izlab topib amaliy faoliyatida qo'llashida namoyon bo'ladi

Pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarini mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrashi va intuitsiyasi, hayotga ahloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qatiy ifodasi tushuniladi.

Pedagogik mahorat – o'qituvchining kasbiy yo'nalishdagi ijodkorligini oliy namunasi, pedagogik mahorat o'qituvchida yillar davomida shakllanib boradi. Mahoratli o'qituvchi hamisha ilg'or tajriba sohibi bo'la oladi. Shuning uchun "Pedagogik texnologiya" tushunchasi tarkibiga "yangi", "ilg'or", "novatorlik", "ijodkorlik", "kasb tafakkuri" kabi tushunchalar singdiriladi. Bu tushunchalarning rivoji pedagogik mahoratda namoyon bo'ladi.

O'qituvchining kasbiy pedagogik mahoratining asosiy mazmun mohiyatini mezonlari va ko'rsatkichlari-pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika sirlarini puxta egallah va yuksak kasbiy saloxiyatga – professionalizmga ega bo'lish, ta'lif-tarbiya jarayonida tinglovchilar bilan o'zaro mulokot olib borish taktikasini qo'llash va ularga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardorligi, pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olish, nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, ma'naviy ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish hamda amalga oshirish, pedagogik faoliyat jarayonida xulk-atvorini va hissiyotlarini jilovlay olish va boshka xususiyatlardan iborat. Demak, yuksak pedagogik mahorat egasi, ya'ni professional kasb egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, ham ijodkorlikni, ham novatorlikni (yangilikka intilishni) tarbiyalashi lozim.

Buni quyida keltirilayotgan o'qituvchining kasbiy mahorati mazmuni va mohiyati asosida ko'rishimiz mumkin:

Mutaxassislarining tadkikotlari natijasida o'kituvchilarni pedagogik bilimlar, pedagogik mahoratni egallahlarining besh darjasini aniqlangan: axborot, tezarus, uslubiy, texnologik, tadqiqot.

Axborot darajasida. asosiy vazifa mavjud bilim hakida axborot olish imkoniyatini ta'minlashdan iborat



Uslubiy daraja nafaqat ilmiy bilimlar, balki kasbiy ko'nikmalarining ham mavjudligini, pedagogik nazariyotchilar tomonidan ishlab chiqilgan uslublarni o'zlashtirilganligini anglatadi.

Texnologik daraja ilmiy bilimlarni va tavsiya etilgan ilg'or tajribani amaliyatga joriy etish maqsadida ularni sifatli va samarali aks ettirishni nazarda tutadi. Aks ettirish to'g'ridan-to'g'ri nusxa ko'chirish degani emas. Bunda muayyan metod qo'llanilayotgan shart-sharoit, xususan, tinglovchilarning tayyorgarlik darajasi, ularning odatlari, o'qituvchi-pedagoglarning texnologik madaniyat va pedagogik mahorat darajasi hisobga olinishi lozim.

Ta'kidlash zarurki, o'qituvchining texnologik madaniyati pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratining tarkibiy kismi hisoblanadi. Texnologik madaniyatli va yuksak kasbiy pedagogik professionallikka ega o'qituvchi pedagogika fani va amaliyotini birlashtiradi.

Tadqiqot darajasi shu bilan tavsiflanadiki, o'qituvchi ilmiy bilimdan foydalanuvchidan uni yaratuvchisiga aylanadi. Yangilik yaratuvchi o'qituvchi-pedagoglar amaliyotning ilmiy saloxiyatini, tadqiqot faoliyatni uchun kerakli tadqiqot maydonining mavjudligini namoyish eta oladilar.

Shunday kilib, pedagogik mahorat o'qituvchi-pedagoglarning ko'nikmalarini tarkibiga amal qiladi va amaliy faoliyatda ular orqali ruyobga chiqadi. Shu sababli pedagogik mahorat o'qituvchining pedagogik madaniyati va pedagogik ko'nikma, etikasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Pedagogik ijodkorlik. Oliy ta'limga muasasasi ta'limga jarayonida innovations texnologiyalardan foydalanish bevosita ta'limga jarayonini amalga oshiruvchi o'qituvchilarga alohida talablar qo'yadi. Amaliy faoliyatga ijodkorona tatbiq etishning asosiy tayanch nuqtalari hisoblangan, o'z-o'zini takomillashtirish texnologiyasining konseptual asoslarini, asosiy qoidalarining mohiyatini o'zlashtirgan pedagog talabalarga ta'limga va tarbiya berishda innovations g'oyalarning yetakchisi bo'la olishi mumkin. Bu esa quyidagilarni taqozo etadi:

a) u talabani tinglay biladi va uni eshita oladi, shaxsiy fikrlarini ifodalashiga, ochiqdan-ochiq qarshi chiqishiga bag'rikenglik munosabatida bo'la oladi, o'zar tenglik va ishonchga asoslangan munosabatlarni o'rnatadi, vaziyatdan munosib ravishda chiqqa oladi;

b) pedagog yangi g'oyalarni hamisha qo'llab-quvvatlaydi, g'oya va fikrlarini bemalol, erkin ifodalash mumkin bo'lgan muhitni yarata oladi;

v) qiyin yoki nizoli vaziyatlarda aybdorni emas, keskinlik va ixtiloflarning kelib chiqish sabablarini izlaydi;

g) talabalar jamoasida mo'tadil psixologik muhitni yarata oladi, ularning muvaffaqiyatlari va xizmatlarini tan ola biladi.

Ijodkor pedagog o'z kasbining yetuk ustasi – ustoz pedagog, ma'lum pedagogik mahoratga ega shaxs hisoblanadi. Pedagog barcha vaziyatlarda ham o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o'z bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni, ilg'or pedagogik tajribalarni, metod va usullarni mutazam o'rganib, kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirib boradi.



Ijodkorlik – yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratish bilan natijalanadigan faoliyat turi

Pedagogik ijodkorlik – 1) ta’lim beruvchi tomonidan o‘quv-tarbiya vazifalarini yuksak sifat darajasida o‘zgacha hal etilishi. 2) ta’lim-tarbiya amaliyoti va nazariyasining boyitilishi.¹

O‘qituvchining ijodiy individualligi uning individual xususiyatlari (fikrlashning ilmiy tarkib topganligi, ishga ijodiy yondashish, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilish va hokazolar)ning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bunday o‘qituvchining kasbiy faoliyati uning hamkasblarinikidan yangi yondashuv hamda vositalarni topish borasida tinmay izlanish olib borishida namoyon bo‘ladi. Pedagoglar orasidagi ijodkor individuallikning yorqin namunasi sifatida tashabbuskor o‘qituvchilarni ko‘rsatish mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI.

1. Texnologiya ta’limi o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik muhim sifatlarini sanab bering?
2. Texnologik ta’limi o‘qituvchilarini talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish yo‘llari.
3. Texnologik ta’limi o‘qituvchilarini talabalarda kasbiy sifatlarni shakllantirishi uchun uning faoliyat yo‘nalishlari.
4. Texnologik ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy sifatlarining shakllanish funksiyalari?
5. Texnologiya ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligi.
6. Texnologiya ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy-pedagogik ijodkorliklarini rivojlantirishning shartlarini bayon qiling.

¹ Педагогик атамалар лўғати / Джураев Р.Х., ва б. “Фан нашриёти”. Т.: 2008. – 137 б.



**4 - MAVZU: O'QUV FANLARINI INTEGRATSIYaLASH TURLARI,
YO'NALISHLARI, TIPLARI, FUNKSIYALARI. TEXNOLOGIK
TA'LIMGA OID FANLAR BO'YICH A MASHG'ULOTLARNI TASHKIL
ETISHDA TA'LIM SHAKLLARI, VOSITALARINING ROLI VA
ULARDAN FOYDALANISH METODIKASI.**

Reja:

1. O'quv fanlarini integratsiyalash turlari, yo'nalishlari, tiplari, funksiyalari.
 2. Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim shakllari.
 3. Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim vositalarining roli.

Tayanch tushunchalar: *Integratsiya, mashg‘ulotlar, sinf-dars tizimi, ta’lim shakllari, ta’lim vositalari.*

4.1. O‘quv fanlarini integratsiyalash turlari, yo‘nalishlari, tiplari, funksiyalari. Ilm-fan yo‘nalishlarining o‘zaro aloqadorligi o‘z mohiyatiga ko‘ra mos holdagi fan asoslarini namoyon qiluvchi o‘quv fanlarida aks etadi. Hozirgi zamон ilm-fanining barcha tarmoqlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, shuning uchun ham o‘quv fanlari bir-biridan ajralib qolishi mumkin emas. Fanlararo integratsiya kasbiy tayyorgarlik jarayonida ilm-fan asoslarini chuqur va har tomonlama o‘zlashtirishning asosiy sharti hamda vositasi bo‘lib sanaladi, bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirishga, ilmiy tushuncha va qonunlarning shakllanishiga, o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni takomillashtirishga va uni maqbul tashkil etishga, ilmiy dunyoqarash shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, ular o‘quvchilar bilimining ilmiy darajasini oshirishga, mantiqiy fikrlashlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga imkon tug‘diradi. Fanlararo integratsiyani amalga oshirish, dasturiy materialni o‘rganishda takrorlanishni bartaraf qiladi, vaqtни tejaydi va o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma hamda malakalarini shakllantiradi.

Fanlararo integratsiya muammosini tadqiq qilishdagi yondashuvlarning har xilligiga, Fanlararo integratsiyani ro‘yobga chiqarish bilan bog‘langan turli pedagogik masalalarni hal qilishga intilishga bog‘liq holda fanlararo integratsiya atamasini ta’riflashning nafaqat har xil turlari, balki fanlararo integratsiya turlarini tasniflashning har xillari ham mayjud.

Ko‘pgina mualliflar ta’kidlashlaricha, fanlararo integratsiyani amalga oshirish o‘qitishning barcha funksiyalarini – ta’limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy va qiziqtiruvchi funksiyalarini amalga oshirishga yordam beradi. Mashg‘ulotlarda fanlararo integratsiyani samarali amalga oshirish shakllaridan biri bo‘lib, amaliy tavsifli masalalarni yechish hisoblanadi.

P.N.Novikov fanlararo mazmunga ega majmuaviy tavsifli masalani quyidagicha ta’riflaydi: “... Buning sharti va talabi asosiy hamda yondosh fanlarning komponentlarini o’z ichiga olgan, yechilishi va tahlili berilgan fanlar orasidagi aloqadorlikni belgilovchi tushunchalarning hajmi va mazmunini yanada



chuqurroq va to‘laroq ochishga yordam beruvchi masaladir”. P.N.Novikov bunday masalalarni asosiy va bir-biriga bog‘liq fanlar mavzularining nisbati bo‘yicha quyidagi uchta turga ajratgan [93]:

- Shakliy (formal) masala – bunday masalalarning ifoda qilinishida boshqa fanga tegishli parametrlar (atamalar, belgilar kabi) mavjud bo‘lib, ular masalani yechishda bevosita ishtirok etmaydi;
- Muhim ahamiyatga ega masala – bunday masalaning ifoda qilinishida boshqa fan mavzulari mazkur masalani yechish uchun ochiq-oydin berilmaydi, lekin uni qo‘llamasdan ham yechimni topish mumkin emas;
- Muhim ahamiyatga ega shakliy – bunday masalaning ifoda qilinishida yechim uchun zarur bo‘lgan yondosh fan mavzusi ochiq ko‘rinishda beriladi.

Muallif ikkinchi xildagi masalalarning alohida ahamiyatini ajratib ko‘rsatadi, chunki ular eng yaxshi darajada “bir-biriga bog‘liq fan mavzusini mustaqil va mantiqan asosli holda tanlash malakasini rivojlantiradi... bu mavzuning ahamiyati asosiy fanni o‘rganish uchun tushunishga yordam beradi”.

Fanlararo integratsiyaning umumkasbiy, maxsus va boshqa o‘quv fanlarida o‘rnatalishi o‘qitishning amaliy yo‘naltirilganligini ta’minlaydi.

Pedagogikada Fanlararo integratsiya muammosi eng avvalo, asosiy diqqat e’tiborni o‘quv rejasiga kirgan fanlarni o‘rganish tartibini muvofiqlashtirish va tahsil oluvchilarda mazmunan mukammal, mantiqan tugal tizimli bilim, xattiharakat metodlari va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan.

O.A.Abduqudusovning fikricha fanlararo integratsiyani amalga oshirilishiga quyidagilar ma’lum ma’noda to‘sinqinlik qiladi:

1. Fanlarida o‘zaro muvofiqlashtirmagan atama va tushunchalarning qo‘llanishi;
2. O‘quv materiallaridan g‘oya, nazariya, masala yoki tushunchalarning ajratib ko‘rsatilmaganligi;
3. Ilmiy bilimlarning ichki aloqadorligini hisobga olinmaganligi;
4. O‘quv fanlarining yagona maqsadni ko‘zda tutmaganligi kabilar.

Fanlararo integratsiya – bu real borliq aloqalaridir, ular dunyoning ob’ektivligini aks ettiradi va shunga ko‘ra o‘qitishning mazmuni, metodlari va tashkil etish shakllarini belgilashi lozim. Aynan mana shu yillarda fanlararo integratsiyaning asosiy didaktik vazifalari, ularni o‘quv mashg‘ulotlarida amalga oshirish metodlari aniqlandi.

“Fanlararo integratsiya o‘qitishning zamonaviy jarayonlarini, o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatini rivojlantirishning eng muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Butun o‘qitish jarayonini yanada yuqori bosqichga ko‘tara turib, Fanlararo integratsiya o‘quv jarayonining rivojlantiruvchi, ta’limiy funksiyalarining birligini ta’minlash bilan ko‘p tomonlama ta’sir ko‘rsatadi.

Fanlararo integratsiya – bu uzlusiz aloqada bo‘lgan yagona butunni yaratish jarayoni va uning natijasi hisoblanadi.

Shuning uchun fanlararo integratsiya deganda biz ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarda amalga oshirilishi bilan bilimlarning umumlashishiga, tizimlashishiga va mustahkamlanishiga, umumlashgan ko‘nikma va malakalarning, yakuniy



natijada esa – har tomonlama rivojlangan shaxsning ilmiy dunyoqarashi hamda sifatlarining shakllanishiga yordam beradigan o'quv fanlari maqsadlari, vazifalari va mazmuniy elementlarining yagonaligini tushunamiz. Ma'lumki, tizim ma'lum bir maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi bir butunlikni ko'zda tutadi. Tizim sifatida esa biz kasb-hunar ta'limi tizimini olishimiz mumkin. O'quv fanlari ichida bilimlarning alohida tizimini mantiqiy aloqadorlik o'qitish mazmunida o'z aksini topadi. Chunki istalgan o'quv fani mazmunini didaktik tizim deb qarash mumkin bo'lib, unda bog'lovchi vazifani yetakchi tushuncha va g'oyalar bajaradi. Yetakchi tushuncha va g'oyalar fan mazmunida tizim hosil qiluvchi aloqadorlik vazifasini bajarib, ularning atrofida uning tuzilmaviy elementlarini yagona tizimga birlashtiradi. Yetakchi tushuncha va g'oyalar o'qitish jarayonida mujassamlashtiruvchi vazifani bajarishi ham mumkin. Fanlararo integratsiya asosida o'rganilayotgan mavzular o'quvchilar bilish faoliyatining umumlashgan xususiyatiga yordam beradi.

Fanlararo integratsiya har xil darajalarda amalga oshiriladi:

- turli turkumlarga tegishli bo'lgan o'quv fanlari darajasida (umum o'quv fanlariaro yoki turkumlararo aloqadorlik);
- o'quv fanlarining bir turkum o'quv fani darajasida (ichki aloqadorlik);
- ichki o'quv fani darajasida.

Fanlararo integratsiyaning hozirgi zamon talqini quyidagi kategoriylar va tushunchalar – bir butunlik, vujudga kelish va rivojlanish, manfaatlar muhokamasi, majmuaviy bilish, tizimli yondashuv, ong va amaliyotning ijtimoiylashuvi XXI asr yagona umumiy tendensiyasining turli jihatlarini tavsiflovchi boshqa xususiyatlari – yangicha fikrlashning paydo bo'lishi tizimida yoritiladi.

Fanlararo integratsiya eng avvalo, o'z tuzilmasiga ko'ra tavsiflanadi, chunki predmetning ichki tuzilishi uning shaklini belgilaydi, shunga ko'ra biz aloqadorlikning quyidagi shakllarini ajratib ko'rsatamiz (1-jadval):

1-jadval:

Fanlararo integratsiya shakli va turlari bo'yicha tasnifi:

Fanlararo integratsiya shakllari	Fanlararo integratsiya turlari	Fanlararo integratsiya turlarini tashkil etuvchi o'quv materiallar mazmuni
Tarkibi bo'yicha	1. Mazmuni bo'yicha	Dalillar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalar bo'yicha
	2. Bajariladigan operatsiyalari bo'yicha	Shakllantiriladigan ko'nikmalar, malaka va fikrlash operatsiyalari bo'yicha
	3. Metodik qo'llanilishi	Pedagogik metodlardan foydalanish bo'yicha
	4. Tashkil etilishi bo'yicha	O'quv-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish shakllari va metodlari



			bo'yicha
Aloqadorlikning yo'nalishlari bo'yicha	Bir tomonlama; Ikki tomonlama; Ko'p tomonlama.		To'g'ri; Teskari (qaytar) yoki tiklanuvchi.
Aloqadorlikni tashkil etuvchi elementlarining o'zaro ta'siri bo'yicha	Xronologik Ko'nikma	Izchillikdagi; Sinxron; Istiqboldagi.	
		Xronometrik	Lokal; O'rtacha vaqt davomidagi; Uzoq vaqt davomidagi.

Birinchi shaklda Fanlararo integratsiyalar turlarini tarkibi bo'yicha ajratamiz. Fanlararo integratsiya tarkibi bo'yicha aniq mavzuni o'rganishda boshqa o'quv fanlaridan nimalar olinishini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, Fanlararo integratsiya tarkibi ko'nikma, malaka va fikrlash operatsiyalari bilan shakllanadigan o'quv mavzusining mazmuni bilan belgilangani uchun ularning birinchi shaklida Fanlararo integratsiyalarning quyidagi xillarini ajratish mumkin: Mazmuni bo'yicha – o'rganilayotgan mavzu mazmuni bo'yicha turli o'quv fanlarida o'rganiladigan tushunchalar, hodisalar, jarayonlarni talqin qilish birligi bo'yicha;

1. Bajariladigan operatsiyalari bo'yicha – fanlararo xususiyatda shakllanadigan ko'nikmalar, malakalar va fikrlash operatsiyalari bo'yicha;
2. Metodik qo'llanilishi – turli o'quv fanlari bo'yicha o'quv ishlari metodlarini kelishtirish, turli o'quv fanlari mavzularini o'rganishda bir xil metodlarni qo'llash (grafik, tahliliy);
3. Tashkil etilishi bo'yicha – orasida aloqadorlik o'rnatiladigan o'quv fanlari bo'yicha mashhg'ulotlarni tashkil etish shakllari va tuzilmasini mos kelishi.

Ikkinchi shaklda Fanlararo integratsiya turlarini tashkil etuvchi o'quv materiallar mazmuni bo'yicha ajratamiz.

Fanlararo integratsiyaning xatti-harakat metodlarining yo'nalishlari bo'yicha Fanlararo integratsiya asosda o'rganilayotgan bir (bir tomonlama), ikki (ikki tomonlama) yoki bir nechta (ko'p tomonlama) o'quv fanlarining aniq ko'rib chiqilayotgan o'quv mavzusi uchun fanlararo axborot manbasi bo'lib hisoblanishini ko'rsatadi.

Fanlararo integratsiyaning xatti-harakat metodlarining yo'nalishlari bo'yicha turlari fanlararo axborot bazaviy o'quv fanining o'quv mavzusini o'rganishda foydalanilishi (to'g'ri aloqadorlik) yoki mazkur mavzu shuningdek boshqa mavzular, boshqa o'quv rejasidagi fanlar uchun ham (teskari aloqadorlik) foydalanilayotgan yoki yo'qligini bildiradi.

Fanlararo integratsiyaning uchinchi, vaqt omili bo'yicha shaklida aloqadorlikning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

1. Xronologik – bu amalga oshirish ketma-ketligi bo'yicha aloqadorlikdir;
2. Xronometrik – aloqadorlikni tashkil etuvchi o'zaro harakatlar davomiyligi bo'yicha aloqadorlikdir.



Vaqt omiliga ko‘ra:

- boshqa fanlardan jalb qilingan qanday bilimlar o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan, qaysilarini esa kelgusida hali faqat o‘rganishgina talab qilinadi (xronologik aloqadorlik);

- qaysi mavzu fanlararo integratsiyani amalga oshirish jarayonida o‘rganish muddati bo‘yicha yetakchi sanalishi, qaysi biri esa yetaklanuvchi ekanligi (xronologik sinxron aloqadorlik);

Fanlararo integratsiyani amalga oshirish jarayonida mavzularning o‘zaro harakati qanchalik uzoq davom etishi kabilarni ko‘rsatadi.

4.2. Texnologik ta’limga oid fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishda ta’lim shakllari. Hozirgi vaqtda Respublikamiz professional ta’limi tizimida ruy berayotgan o‘zgarishlar, kasb va texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash, ularning professional faoliyatini yanada rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Ularning professional faoliyati o‘quv mashg‘ulotlarini innovatsion va texnologiya yondashuvlar asosida tashkil etish, o‘qitishning interfaol ta’lim metodlari, hamda vositalaridan keng foydlana olish kompetensiyalari bilan bevosita bog‘liq. Texnologik ta’limga oid fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishda ta’lim shakllaridan noan’anaviy ta’lim muhim o‘rin egallaydi.

Noan’anaviy ta’lim - talabalarni o‘z kasbiga qiziqtiruvchi, bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalarni bajaradi. Tajribalarda ta’kidlanganidek, agar mashg‘ulot odatdagisi - faqat tinglab o‘tirishga asoslangan usulda o‘tkazilganda, talabalar axborotning ko‘pi bilan 20 foizini o‘zlashtirgan bo‘lsa, ilg‘or pedagogik usullardan foydalilaniganda esa, bu ko‘rsatkich 80-90 foizgacha oshganligi tasdiqlangan.

Noan’anaviy ta’limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo‘ladi va mustaqil - ijodiy fikrlash qobiliyatları rivojlanishi negizida bo‘lajak kasbiy faoliyatga oid boshlang‘ich ko‘nikmalar shakllantirilib, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni amaliyot bilan bevosita bog‘lab olib borishni ta’minlaydi. Shuning uchun ham u, rivojlantiruvchi o‘qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ta’limni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o‘qituvchining o‘quvchilar bilan olib boradigan mashg‘ulot turlarini tushunamiz. Xozirgi kunda, ta’lim muassasalarida ta’limni sinf-dars shaklida olib borish keng tarkalgan. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ta’limni tashkil etish shakllari ijtimoiy to‘zum manfaatlariga mos xolda paydo bo‘lgan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda ta’lim berish ishlari odamlarning mexnat faoliyati, turmush tarzi bilan o‘zviy bog‘langan xamda bilim berish, o‘rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan.

Davr o‘tishi bilan kupchilikka bilim berish extiyoji paydo bo‘ladi. Ta’lim tizimi mazmuni, bilimlarning murakkablashuvi, bolalarni gurux- guruh qilib, to‘plab o‘qitishni taqozo qilgan xamda ta’lim bilan shugullanuvchi mutaxassislar, o‘qituvchi tayyorlash zaruriyatini keltirib chikargan.


Shu davrga kelib o'qitishning maxsus tashkiliy shakllari paydo bo'la boshlaydi. Buning natijasida sinf-dars tizimi paydo bo'ldi. Xalk orasida xayotiy tajribaga, bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar murabbiy, o'qituvchi bo'lib faoliyat kursatdi.

Xalkimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, maktab va madrasalarda yoshlarga bilim berish bilan shugullanganligi «Avesto» va boshka tarixiy manbalardan ma'lum. Ammo kadim davrlarda ta'limni kat'iy chegaralangan vaktda, bir xil yoshdagi bolalar bilan olib borish, ta'lim mazmunini boskichma-boskich berish masalalariga aniqlik kiritilmagan edi.

Ta'limning tashkiliy masalalari Al-Forobiy «Fan va akl zakovat» asarida o'quv fanlarini guruxlarga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy moxiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan. Pedagogika tarixida ta'lim tashkil etishning asosiy

shakli dars xisoblangan. Sinf-dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda buyuk chek pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1592-1670) xizmatlari katta, uni sinf-dars tiziminining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan.

Ya.A Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida o'quv mashg'ulotlarini gurux shaklida tashkil kilish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaktda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar



berilishini, guruxlardagi bolalarning yoshi va soni bir xil bo'lishiga alovida e'tibor berdi. Dars davomida o'quvchilar dikkatini tuplash, materiallarni batafsil tushuntirish, o'quvchiga savollar berish, o'zlashtirish jarayonini nazorat kilish zarurligini ta'kidlaydi.

Bu tarixiy jarayonda Pedagogika fani oldida turgan muammolardan biri ta'limning tashkiliy shakllarini samaradorligini oshirish, ayniksa, darsni samaradorligini oshirish bilan bog'lik ilmiy-nazariy uslubiy va amaliy muammolarni xal etuvchi tadqiqotlar olib borishda ko'pgina amaliy ishlar bajarilgan. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar tadbik etish bilan bog'lik ishlar kilinmokda.

Sinf deganda, yoshi va bilimlarni o'zlashtirish darajasi o'rtacha bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhi tushuniladi.

Dars – aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaktda bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi raxbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir.





Darsning maqsadi, mazmuni, xajmi ta'lif standartlari (o'quv reja, dastur, darslik va qo'llanma) asosida belgilanadi. Dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal kilinishi lozim:

Xar bir sinfda o'quvchilarning yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishi lozim.

Dars kat'iy jadval buyicha belgilinagan aniq muddatda olib borilishi kerak.

Dars o'qituvchi raxbarligida butun sinf bilan va aloxida o'quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.

Dars o'quv fanining xarakteri, utilayotgan materialning mazmuniga karab turli usullar va vositalarda olib boriladi va ta'lif tizimining bir kismi sifatida tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirmok uchun zamin yaratadi.

Shuni unutmaslik kerakki, o'quv yurtlarida ta'lif ishlari fakat sinf-dars shaklida olib borilmasdan, balki amaliy mashg'ulotlar, tajriba ishlari shaklida xam olib boriladi. Bu mashg'ulotlar sinfdan va mktabdan tashkarida fakultativ



mashg'ulotlar, tugaraklar, ekskursiyalar shaklida olib boriladi.

Dars – ta'lifning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo'lishi, bilimlar mustaxkam o'zlashtirilishi, o'quvchi-talabanining shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olinan xolda tashkil etilishi dars oldiga kator didaktik talablarni kuyadi. Jumladan:

Xar bir dars aniq maqsadni ko'zlagan xolda puxta rejalshtirilmogi lozim. Bu jarayonda o'qituvchi darsning ta'limi va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars boskichlarini, ya'ni kanday boshlash, kanday tamomlash kurgazmali materiallardan foydalanish kabilarni oldindan xal kilib oladi. Xar bir dars aniq g'oyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda foydalanmog'i lozim.

Xar bir dars matabning, ijtimoiy muxitning imkoniyatini xisobga olgan xolda amaliyot bilan bog'lanmogi, kursatmali vositalar bilan jixozlanmogi lozim.

Xar bir dars xarakteriga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalanilgan xolda tashkil etilishi lozim.

Dars uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.

Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro faol munosabatda bo'lishi lozim, o'quvchi talaba passiv tinglovchiga aylanmaligi lozim.

Mashg'ulotlar butun sinf bilan va xar bir bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan xolda olib borilishi kerak.

Oliy ta'lif tizimida xususan Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lif shakllari tanlashda professor-o'qituvchining o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi.

V.V.Davydov, L.V.Zankovlar fikriga ko'ra o'qituvchi **innovatsion faoliyatining** asosiy fuksiyalari pedagogik jarayon va uning komponentlaridagi quyidagi ijobiy o'zgarishlardan iborat deyildilar.



- V.V.Davidov, L.V.Zankovlar fikriga ko'ra o'qituvchi innovatsion faoliyatining asosiy fuksiyalari pedagogik jarayon va uning komponentlaridagi quyidagi ijobiylar o'zgarishlardan iborat deyildilar



Ta'lif muassasalarida o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli quyidagicha amalga oshiriladi:

O'QUV XONASIDAN
TASHQARIDAGI
MAShG'ULOTLAR



QO'ShIMChA
(YoRDAMChI)
MAShG'ULOTLAR



O'QUV XONASIDAGI
MAShG'ULOTLAR



**O'QUV
MAShG'ULOTIGA
MODDIY-TEXNIK
ShAROITNI
YaRATILISHI**



**TALABALARINI
O'QUV
MAShG'ULOTIGA
TAYYOR GARLIGI**



**O'QITUVChINING
O'QUV
MAShG'ULOTIGA
TAYYOR GARLIGI**

Oliy ta'limgizda ma'ruza o'quv jarayoning xam usuli, xam shakli xisoblanib, u talabalarga fan asoslarini ogzaki, uzbeki va muntazam singdirishga xizmat kiladi. Ma'ruza tufayli talaba shu fanning moxiyatini tushunib boradi xamda ularni erkin fikrlashga, fan ustida uylashga majbur etadi. Shu sababli ma'ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishning uziga xos maktabiga aylanadi. Ma'ruzani shunday ukish lozimki, uning ta'sirida talabalarda shu fanga uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli karashlar, ilmiy e'tikod, goya va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun ukituvchi xar bir ma'ruzaning mazmunini fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim. Ma'ruza ijobiy xamkorlikka tayanib tashkil kilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma'ruza jarayonida xam ta'limi, xam tarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirish yollaridan biri – o'qituvchi bilan talabalar o'rtaida do'stona, faol munosabatlarni tiklab olinishdan iborat.

Bundan tashkari dars va ma'ruzaning samarali natijasi ukuvchi va talabalaring ukuv jarayonidagi ruxiy xolatlarini kay darajada xisobga olinishiga xam boglik. Shunday ekan, ta'limgizni samarali tashkil etish, uning dars, ma'ruza va boshka shakllaridan ukitish jarayonida urinli foydalanishlari uchun shubxasiz ukituvchining pedagogik maxorati, pedagogik madaniyati, uz predmetini puxta bilishligi va ukuvchi talabalar bilan umumiy til topa olishligi goyat katta axamiyatga egadir.

Ta'limgiz jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas, muhim qismlaridan biri bo'lib u o'qitish, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish masalalari bilan shug'ullanadi.

4.3. Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limgiz vositalarining roli. Mutaxassis modeli ta'limgiz maqsadlarini aniqlashning asosi sifatida Pedagogik amaliyotda yangi yo'l va vositalarini jadal tatbiq etilayotganligini kuzatish mumkin. Biroq ba'zi ta'limgiz shakl va faol usullar o'rniiga bo'linmas ta'limi texnologiyalar zarur. Lekin ta'limi jarayonni



texnologiyali loyihalashtirish va rejalashtirishni, faqat texnologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi bajara olishi mumkin.

Texnologik bilimlar tizimi quyidagi tashkil etuvchilardan iborat: — tushunchaga oid qism - texnologiyalashtirishning murakkabroq bo'lgan toifa va qoidlarini o'rganishga yo'l; — ta'lif texnologiyasining tarkibiy qism va harakatlanuvchi tuzilma - ta'lif jarayonini bashoratlash va loyihalashtirish asosi to'g'risida tushuncha; — talimiy texnologiyalarning konseptual asoslari - har qanday ta'lif texnologyasi negiziga pedagogik va psixologik fanlar yutug'ida ifodalangan pedagogik g'oya asos bo'ladi; — maqsadni belgilash - agar pedagogik vazifalar aniqlangan bo'lsa va o'quv faoliyatining yakuniy natijalari bir ma'noda ifodalangan bo'lsa, boshlanish shartlari ma'lum bo'lsa, ta'lif jarayonini loyihalashtirish mumkin; — ta'lif berish modeli – maqbul yo'llar (usul va shakllar) va vositalar yig'indisi - mavjud sharoitlar va belgilangan vaqtida ob'ektning boshlang'ich holatini o'zgartirish bo'yicha ko'zlanayotgan natijalarga erishish kafolati; — boshqaruvning yo'l va vositalar yig'indisi: bashoratlash, loyihalashtirish, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat va baholash, shuningdek tezkor o'zgartirish to'g'risida boshqaruv xulosasini qabul qilish maqsadida ta'lif jarayonini uzlusiz va muntazam kuzatish - monitoring.

O'qitish rejasini tuzishning har bosqichida o'qituvchining boshqaruv harakatlarini ko'rib chiqamiz. Maqsadni belgilash - didaktik vazifalarni aniqlash, o'quv natijalarini shakllantirish. Bu pedagogik faoliyatni asosiy omili bo'lib, ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchining birgalikdagi faoliyati harakatini umumiyl natijaga yo'naltiradi. Tashxis - ta'lif oluvchilar xususiyatlarini va mavjud moddiy - texnik imkoniyatlarni o'rganish. Bu maqsadni to'g'rilash zarurligiga va ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi. Bashorat qilish - o'rnatilgan vaqt ichida mavjud sharoitlarda pedagogik va o'quv faoliyati natijalarini oldindan ko'rish. Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazish vositasi va yo'llarini aniqlash. Tashxis, bashorat qilish va loyihalash rejani ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi. Rejalashtirish - oldindagi o'zaro bog'liq pedagogik va o'quv faoliyatining rejasini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. U texnologik xarita ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Tashkillashtirish - ta'lif beruvchi tomonidan talabalarni belgilangan ishga jalb qilish, belgilangan maqsadga erishishda ular bilan hamkorlik qilish. Axborotli ta'minlash - o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazib berishning yo'l va vositalarini amalga oshirish. Bunda yig'ilgan axborot jarayonining borishini tezkorlikda o'zgartirishni, ta'sir ko'rsatadigan rag'batlantiruvchi omillarni, samarali vositalarni kiritishga imkon beradi. Nazorat, baholash va o'zgartirish kiritish - rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan rag'batlantiruvchi omillarni yaratish, pedagogik ta'sir etish ob'ekti o'zgarishini muvofiqlash. Tugallangan jarayon tahlili- samarasizlikni, ularni paydo bo'lish sababini aniqlash, kelgusi takror ishlab chiqiladigan davrda unga yo'l qo'ymaslik choralarini aniqlash.



Ta'lif vositalari: ta'lif maqsadini amalga oshirish yo'lida xizmat qilayotgan metodlarni muvaffaqiyatli natijaga erishishi uchun ishlatiladigan o'quv asboblaridir. Ular issiqlik sig'imini o'lhash asbobi, kompyuterlar, turli xil laboratoriyada ishlatiluvchi apparat turlari, o'lhash asboblaridan tashkil topishi mumkin.

Ta'lif vositalari talabalarni amaliy ishlarni bajarishida hamda malaka hosil qilishida sharoitida bu yanada katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy universitet bitiruvchisi turdosh mutaxassisliklar bo'yicha ishlarni bajarish, yangi texnologiyalarga erkin moslashish, zaruratga ko'ra, malakasini oshirish, ixtisosligini o'zgartirishga tayyor bo'lishi lozim. Mutaxassisiga qo'yiladigan talablar majmuida axborot oqimida erkin yo'nalish tanlay olish va mustaqil ta'lif hamda bilim olish ko'nikmalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Ta'limning texnik vositalari (TTV) - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

Yordamchi ta'lif vositalari (YoTV) – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

O'quv - uslubiy materiallar (O'UM) - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar. Talabalarni o'quv - bilish faoliyatlarini jadallashtirishga yordam beruvchi har turdag'i ta'lif vositalarini tanlash va ulardan foydalananish quyidagilarga bog'liq: 1) maqsadni belgilash; 2) asosiy bilim manbaiga; 3) ta'lif usuliga; 4) o'quv materialining yangiligi va murakkabligiga; 5) talabalarni o'quv imkoniyatlariga.

Ta'lif vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar:

- Maqsadni belgilash;
- O'quv axborot mazmuni;
- Ta'lif vositalari;
- Yetakchi bilim manbai;
- O'quv materialining yangiligi va murakkabligi.

Talabalarni axborot bilan ishlash: ishonchli manbalarni izlash, qayta ishslash va tahlil qilish, shuningdek, olingan natijalarni taqdim qilish metodlariga o'rgatishga oid ixtisoslashtirilgan kurslarni joriy etish zarur. Bular xorijiy yetakchi ta'lif muassasalarining ko'pchiligidagi faol qo'llanib keladi. Axborotning turli manbalari va vositalari, jumladan, kompyuter texnologiyalari bilan erkin va tez ishlay olish malakasi zamonaviy yosh mutaxassislar uchun juda muhim. Mazkur faoliyat to'g'ri tashkil qilinganida talabalar o'zlarining alohida ehtiyojmand bolalar bilan ishlashga oid amaliy ko'nikmalarini jiddiy tarzda oshirish, shuningdek, o'zining yangi nazariy bilimlarni egallashga motivatsiyasini kuchaytirish, bo'lg'usi kasbida yaxshiroq yo'nalganlik kasb etish va OTM ta'lif jarayonida faolroq ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi.

NAZORAT SAVOLLARI.

13. O‘quv fanlarini integratsiyalash turlari, yo‘nalishlari, tiplari, funksiyalari?
14. Fanlararo integratsiya muammosini tadqiq qilishdagi yondashuvlar.
15. Fanlararo integratsiyaning umumkasbiy, maxsus va boshqa o‘quv fanlarida o‘rnatilishi.
16. Texnologik ta’limga oid fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishda ta’lim shakllari.
17. Ta’limni tashkil etish shakllari haqida fikringizni bayon qiling.
18. Texnologik ta’limga oid fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishda ta’lim vositalarining roli.



IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT:

Mavzu: Oliy ta’lim muassasalarida texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning innovatsion texnologiyalar asosida loyihalashtirish va tashkillashtirish (2 soat).

Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsadlar:

Shaxsiy va kasbiy sifatlar va ularning qiyosiy nisbatini;

“Kreativlik” tushunchasining tavsiyalarini;

“Kompetentlik” va “Kasbiy kompetentlik” tushunchalarining mazmun-mohiyatini o‘rgatishdan iborat.

Tinglovchilar faoliyatini tashkil qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar.

Mashg'ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

Amaliy mashg‘ulotga doir grafikli organayzeler


1-amaliy topshiriq. Shaxsiy va kasbiy sifatlarni berilgan jadval bo'yicha ajratib ko'rsating va har bir tushunchalarni izohlab bering.

2-amaliy topshiriq. Kreativlik tushunchasiga oid qanday ta'riflarni bilasiz? Quyidagi rasmni to'ldiring!

**Kreativlik tushunchasiga oid qanday
ta'riflarni bilasiz**



**3-amaliy topshiriq. Texnologiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligi
namoyon bo'ladigan holatlarni aniqlang!**



**3-amaliy topshiriq. Texnologiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligi
negizida namoyon bo'ladigan sifatlarni aniqlang!**



NAZORAT SAVOLLARI

1. Shaxsiy va kasbiy sifatlar nimalardan iborat va ularning qiyosiy nisbatini tushuntirib bering?
2. Kreativlik va kompetentlik nima?
3. “Kreativlik” tushunchasining tavsiyflanishini izohlang?
4. “Kompetentlik” va “Kasbiy kompetentlik” tushunchalarining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
5. P.Torrens fikricha, “Kreativlik” tushunchasi negizida qanday tushunchalar yoritiladi?
6. Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi?
7. Pedagog qanday kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi kerak?

2-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Interfaol ta'lif metodlari: o'quv loyihasi, keys-stadi SMART-education, algoritmik xarita, Keyzen kabi texnologiyalarni ta'lif jarayoniga tatbiq etish metodikasi (4 soat).


Ishdan maqsad: Qayta tayyorlash va malaka oshirish tinglovchilarida mehnat ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lif shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish metodikasiga oid ma'lumotlarni tizimlashtirish va mavjud ko'nikmalarini rivojlantirish .

Mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostonart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tinglovchiga eslatma

Kompetentli ijodkor pedagog o'z kasbining yetuk ustasi – ustozi pedagog, ma'lum pedagogik mahoratga ega shaxs hisoblanadi. Texnologiya ta'lifi o'qituvchisi barcha vaziyatlarda ham o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o'z bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni, ilg'or pedagogik tajribalarni, metod va usullarni muntazam o'r ganib, kasbiy-pedagogik ijodkorligini va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib boradi.

Ijodkorlikni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash samarali natija beradi Jumladan "SMART texnology" ayni paytda texnologiya olamida keng qo'llaniluvchi ibora bo'lib, Specific (o'ziga xos), Measurable (o'lchab bo'ladigan), Attainable (erishib bo'ladigan), Relevant (dolzarb), so'zlarining qisqartmasidan olingan. Mazkur texnologiya mashg'ulotlarni boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirishga qaratilgan ma'lumotlar bazalarini, axborot tizimlarini yaratish, ulardan foydalanish, xizmatlar ko'rsatish hamda boshqa axborot tizimlari bilan integratsiyasini amalga oshiradigan texnologiya sifatida qaraladi.



1- rasm “SMART texnology” dan foydalanish

Topshiriq. O'rganishlar davomida talabalarning malakaviy pedagogik amaliyotini “SMART texnology” asosida tashkil etishni yo'llarini ishlab chiqing.

- Specific (o'ziga xoslik, aniqlik) –.
- Measurable (o'lchab bo'ladigan) –.
- Attainable (erishib bo'ladigan) –
- Relevant (dolzarb, erkinlashgan) –.

Time-bound (aniq muddatli) –.

O'qituvchining yechimi

• Specific (o'ziga xoslik, aniqlik) – malakaviy pedagogik amaliyotning bo'lajak o'qituvchi kasbiy-pedagogik faoliyati uchun juda muhim axamiyatga ega ekanligi hamda amaliyot jarayonida erishiladigan aniq maqsadga egaligi. Erishiladigan maqsad sifatida bo'lajak o'qituvchining olgan nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olishi sinovdan o'tkaziladi. Darsga tayyorgarlik ko'rishi, tashkil eta olishi va boshqara olishi o'ziga xos tarzda amalga oshirilishi uchun axborot tizimiga hamda mexanizmlariga egaligi ilmiy asoslanadi.

• Measurable (o'lchab bo'ladigan) – Malakaviy pedagogik amaliyot bolanishidan oldin va o'tab bo'lganidan so'ng olinadigan natijalarni mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Qo'yilgan maqsadga ya'ni pedagog sifatida kasbiy-pedagogik ijodkorlik darajalarining rivojlanganligi hisobga olinadi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar asosida natijadorlik tahlil qilinadi hamda kerakli xulosalar chiqariladi.




- Attainable (erishib bo‘ladigan) – Malakaviy pedagogik amaliyotning belgilangan talablar asosida va maqsadga erishish nuqtai nazaridan to‘g‘ri tashkil etilishi oldindan bashoratlangan natijaga erishish imkonini beradi. Malakaviy amaliyotning avval passiv va keyinchalik faol tarzda tashkil etilishi natijalarning yaxshi bo‘lishiga zamin tayyorlaydi. Xar bir talaba o‘zining bo‘lajak kasbiy faoliyati bo‘yicha tegishlicha xulosalar chiqarib oladi.

- Relevant (dolzarb, erkinlashgan) – Malakaviy pedagogik amaliyotda bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorliklarini rivojlantirish, o‘z kasbiy kompetentlik darajalarini oshirish, kasbiy akmeologiyaga erishishda mustaqil va erkin ta’lim olishlari va o‘z ustilarida ijodiy ishlashlari kafolatlanadi. Malakaviy pedagogik amaliyotga chiqqan talabalar o‘z portfoliolarini to‘ldirib borishadi. Oxirgi natijadorlik maqsadga erishilganlik darajalari ta’milanadi.

Time-bound (aniq muddatli) – Malakaviy pedagogik amaliyotning tizimli va izchil tarzda tashkil etilishiga erishiladi. Amaliyot davomida bajariladigan ishlarning aniq muddatlari belshilab beriladi. Xar bir topshiriqning o‘z vaqtida va samarali bajrilishi “Ustoz-shogird” tizimi bo‘yicha biriktirilgan ustozlari tomonidan nazaort qilib boriladi. Passiv va faol amaliyot davomida bajarilgan vazifalar talaba portfoliosida saqlanadi va baholashda foydalaniлади.

Ikkinci topshiriq. Talabalarning kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning **algoritmik xaritasini ishlab chiqing!**



O‘qituvchining yechimi




Kirish: auditoriya (talabalar)

O'qituvchi tomonidan mustaqil ishlar, muammoli vaziyatlari topshiriqlar, ijodkorlikka yo'naltirilgan masalalar yechimini topishda noan'aviy, o'ziga xos g'oyalarining qo'llab-quvvylanishi, interfaol metodlarining qo'llanilishi kabi yechimlarni taklif etish imkoniyati beriladi. Talabalarda o'z "MEN"ini namayon qilish xislalari uyg'onadi va topshiriq ijrosiga faol kirishadi.



Tayyorlanish

Talabalarni sub'ekt darajasida, mustaqil harakat qila olish, o'z fikrini bayon qila olish, xulosalar chiqarishda analiz va sintez qilish, baholay olish muhitini shakllantirish




Natija va yutiqlar

Kasbiy-pedagogik ijodkor, kompetentli mutaxassis


Uchinchi topshiriq. Grafikli organayzerlar asosida ishlab chiqilgan mavzuga oid topshiriqlar keltirilgan bo'lib, ularda keltirilgan savollarning javoblarini toping va misollar bilan tushuntirib bering.

"Mehnat ta'limi" fani nomini "Texnologiya" fani nomi bilan o'zgartirilishining qanday omillari mavjud?





To‘rtinchi topshiriq. Texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi va vazifalari amaldagi mehnat ta’limi fani maqsad va vazifalaridan qanday farqli tomonlari bor?



3-AMALIY MASHG'ULOT:

Mavzu: Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning xususiyatlarini o‘rganish: kuzatish, diagnostik suhbatlar, kasbga moslashish, professiografiya kabi tushunchalarni amaliyotga joriy etish (2 soat)

Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar: Tinglovchilarda Ta'lim jarayonida o'quvchilarining xususiyatlarini o'rganish: kuzatish, diagnostik suhbatlar, kasbga moslashish, professiografiya kabi tushunchalarni amaliyotga joriy etish billyicha malakalarini rivojlantirish.

Tinglovchilar faoliyatini tashkil qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar.

Amaliy mashg'ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

1-topshiriq. O‘quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini inobatga olib, maktabda kasbga yo‘naltirish ishlarining yo‘nalishlari va mazmuniga oid tushunchalarni izohlang!

№	Yo‘nalishlar	Mazmuni
1.	Ijtimoiy yo‘nalish-	
2.	Iqtisodiy yo‘nalish-	
3.	Psixologik yo‘nalish-	
4.	Pedagogik yo‘nalish –	
5.	Tibbiy-fiziologik yo‘nalish-	



Tinglovchilar tomonidan to‘ldirilgan jadval o‘qituvchining varianti bilan taqqoslanadi.

O‘qituvchining varianti

Nº	Yo‘nalishlar	Mazmuni
1.	Ijtimoiy yo‘nalish-	o‘quvchilarda kasbning asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish, tanlangan kasb xodimi yoki shu tizimga qo‘yiladigan malaka talablarini o‘rganish bilan belgilanadi.
2.	Iqtisodiy yo‘nalish-	yuqori sinf o‘quvchilarining jamiyat ehtiyojlari va shaxsning imkoniyatlari (mehnat bozorini o‘rganish)ga muvofiq kasb tanlashni boshqarish jarayonidir
3.	Psixologik yo‘nalish-	kasbiy yo‘nalishni shakllantirishda shaxsning tarkibini o‘rganish (tanlangan kasb afzalliklari (imkoniyatlari))dan iborat
4.	Pedagogik yo‘nalish –	kasb tanlash va kasbiy qiziqishlarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lganmoslashuvini shakllantirish bilan bog‘liqdir
5.	Tibbiy-fiziologik yo‘nalish-	kasb tanlash o‘quvchilar salomatligining psixofiziologik holatiga muvofiq tashkil etiladi

2-topshiriq. Xorijiy tajribalardan kelib chiqib, bir-biridan farq qiluvchi turli xil ko‘rinishdagи tizimning ob’ektivligiga muvofiq, kasblarni beshta asosiy turga ajratish mumkin:

«Odam-tabiat» (T), «Odam-texnika» (T₁), «Odam-odam» (O), «Odam-belgi» (B), «Odam-badiiy qiyofa» (Q).

Tinglovchilarga quyidagi jadvalni to‘ldirish talab etiladi.

Tinglovchi uchun ish varog‘i

Kasb turlarining shartli nomlari	Mehnat predmetlarining tavsifi	Kasbiy-texnologik ma’lumot	O‘rta maxsus ma’lumot	Oliy ma’lumot
«Odam-tabiat»				
«Odam-texnika»				
«Odam-odam»				
«Odam-belgi»				
«Odam-badiiy qiyofa»				



Tinglovchilar tomonidan to‘ldirilgan jadval o‘qituvchining varianti bilan taqqoslanadi.

O‘qituvchining varianti


Kasb turlari ning shartli nomlari	Mehnat predmetlari ning tavsifi	Kasbiy-texnologik ma'lumot	O'rta maxsus ma'lumot	Oliy ma'lumot
«Odam-tabiat»	Tirik organizmlar, biologik, mikrobiologik jarayonlar	Urug‘chilik, chorvachilik	Texnik-o‘rmonshunos, zootexnik, florist	Zooinjener, agronom, veterinar shifokor
«Odam-texnika»	Texnik tizimlar, energiya, sun’iy va jonsiz tabiat materiallari	Slesar, mashinisti avtokran	Texnik-texnolog, texnik-quruvchi	Injener
«Odam-odam»	Odamlar, jamoa, guruhlar, ijtimoiy jarayon	sotuvchi, parikmaxer	Hamshira, MTM tarbiyachisi	O‘qituvchi, injener, menedjer
«Odam-belgi»	Shartli belgilar, raqamlar, kodlar, tabiiy va sun’iy tillar (formulalar)	Teruvchi (sahifalovchi), chizmachizuvchi, kompyuter operatori	Moliyachi, iqtisodchi	Injener-iqtisodchi, redaktor
«Odam-badiiy qiyofa»	Badiiy obrazlar, uning tarkiblari, elementlari	Graver, arxitektura detallarini yopishtiruvchi	Quruvchi-pardozlovchi, skulptor-ijrochi	Rassom-konstruktur, dizayner interer, modeler, aktyor

3- topshiriq. Ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirish ishlari dars va darsdan tashqari soatlarda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kasb turlari bilan tanishtirish hamda o‘yinlar orqali ularda turli kasblarga bo‘lgan ilk qiziqishlarni aniqlashdan, shuningdek, ko‘rgan va eshitgan ma'lumotlarni yodda saqlash va qayta tiklashning oddiy va murakkab operatsiyalari (kasbiy ma'lumotni qabul qilish bilan bog‘liqni), umumiy o‘quv, mehnat va kommunikativ malaka va ko‘nikmalarini (biror bir kasb uchun ahamiyatli bo‘lgan o‘quv fanni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq) rivojlantirishdan iborat.



“Maishiy xizmat texnikalarini ta’mirlash” professiogramma o‘z xajmiga muayyan kasb haqida, kasb turlari, faoliyat mazmuni va sharti, mutaxassisning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda individual xususiyatlariga qo‘yiladigan talablar, tibbiy cheklovlar, kasbni egallash va uni amaliyotda qo‘llash, shuningdek, istiqbollari kabi masalalar majmuini qamrab olgan namuna asosida “Klasster” taqdim etiladi! (slayd orqali).

Topshiriq. Tinglovchilar Texnologiya ta’limiga oid fanlardanolib boradigan mashg‘ulotiga mos ravishda bir kasbni Klassterini yaratish talab etiladi.




4-AMALIY MASHG‘ULOT:

Mavzu: Texnologiya ta’limida AKTdan foydalanish metodikasi (real ob’ektlar, multimedia, elektron darslik va boshq). Ta’lim jarayoniga metod, vosita va shakllarni joriy etish (2 soat)

Ishdan maqsad: Qayta tayyorlash va malaka oshirish tinglovchilarida internet tarmog‘idan axborotlarni izlash, tahlil qilish asosida ularda kreativ qobiliyatni shakllantirishga oid ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Texnologiya ta’limida internet texnologiyalaridan foydalanish

1. **Texnologiya** ta’limi o‘qituvchilarni tayyorlashda yangilangan DTS asosida mutaxassislar tayyorlanmoqda. Malaka oshirish jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida mashg‘ulotlar tashkil etilmoqda.



Старт - Google

http://www.google.ru/

Поиск: google

Новости Карикатуры Картины Галерея Новости Быдло Инструменты

Результаты поиска: 2 750 800 000 (0.18 сек.)

Сайт. По этому адресу вы можете [зарегистрироваться](#). Текущий предложительный поиск для результатов поиска можно в разделе [Настройки](#).

Google
www.google.ru -
Помощь индексации в интернете: вид страниц, картинок, видео и многое другое.

Google Maps
maps.google.com - Перевести эту страницу
Find local businesses, places and get driving directions in Google Maps.

Google
www.google.com.ua - Перевести эту страницу
Помощь системе управления макетом: Ваша страница не в Украине.

Новости по запросу: google

Google запускает Google+ Social
Корпорация Google представила новую социальную сеть Google+. Учрежденная на основе платформы Google+, новая социальная сеть Google+ предоставляет пользователям возможность общаться с друзьями и коллегами в едином месте.

Всё о мире: Россия — спутниковый ответ Google Earth
3D карты - 2 в 1 карты

Помощь в создании стоимости инновационных проектов Google Maps
Оценка проекта.ru, 17 + ната.

Google Earth
earth.google.com - Перевести эту страницу
Google Earth lets you fly anywhere on Earth to view satellite imagery, maps, terrain, 3D buildings, real galaxies and more, right in the comfort of your home.

Google Inc. — американская транснациональная публичная корпорация, производящая инструменты в интернете, веб-браузер, видеоплатформу и различные технологии.

Код акции: GOOG Задачи: 1 (89.87 \$) +12.87 (+1.59 %)

Код акции: GOOGL Задачи: 1 (89.87 \$) +12.87 (+1.59 %)

Дата основания: 4 сентября 1995 г.
Штаб-квартира: Менло-Парк, Калифорния, Соединенные Штаты Америки

Генеральный директор: Ларри Пейдз

Основатель: Ларри Пейдз, Сергей Брин, Питер Сайман

Похожие запросы

Yahoo! Apple eBay Skype AOL

http://www.google.ru/



The screenshot shows a web browser window with the following details:

- Address Bar:** YouTube - Google Chrome
- Page Content:**
 - YouTube Home:** YouTube.com/YouTube - Официальный канал YouTube.
 - Search Results for "vocational education":**
 - Top Result:** Vocational Education - YouTube channel (2,531,937 subscribers). Description: Учебный канал о профессиях и профильном образовании.
 - Second Result:** Vocational Education - YouTube channel (2,531,937 subscribers). Description: Учебный канал о профессиях и профильном образовании.
 - Third Result:** Vocational Education - YouTube channel (2,531,937 subscribers). Description: Учебный канал о профессиях и профильном образовании.
 - Fourth Result:** Vocational Education - YouTube channel (2,531,937 subscribers). Description: Учебный канал о профессиях и профильном образовании.
 - Fifth Result:** Vocational Education - YouTube channel (2,531,937 subscribers). Description: Учебный канал о профессиях и профильном образовании.
 - Sixth Result:** Vocational Education - YouTube channel (2,531,937 subscribers). Description: Учебный канал о профессиях и профильном образовании.
 - Seventh Result:** Vocational Education - YouTube channel (2,531,937 subscribers). Description: Учебный канал о профессиях и профильном образовании.
 - Eighth Result:** Vocational Education - YouTube channel (2,531,937 subscribers). Description: Учебный канал о профессиях и профильном образовании.
 - Ninth Result:** Vocational Education - YouTube channel (2,531,937 subscribers). Description: Учебный канал о профессиях и профильном образовании.
 - Tenth Result:** Vocational Education - YouTube channel (2,531,937 subscribers). Description: Учебный канал о профессиях и профильном образовании.
 - Right Sidebar:** YouTube logo, "YouTube" text, and a large red play button icon.
 - Bottom Navigation:** YouTube logo, "YouTube" text, and a large red play button icon.



5-AMALIY MASHG'ULOT:

Mavzu: Texnologik ta'limdi tashxis qilish, korreksiyalash va prognoz qilish metodikasi (2 soat)

Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar:

Texnologiya ta'limi yo'nalishida tahlil olayotgan tinglovchilarning "Kasb tanlash motivini aniqlash", "O'quvchilarni kasbiy yo'nalanligini aniqlash" va "Kasb tanlashda tipik xatoliklar" bo'yicha amaliy ko'nikmalarini rivolantirishdan iborat.

1. "Kasb tanlash motivini aniqlash" metodikasi.

Agar o'quvchida u yoki bu kasbga moyillik yorqin ifodalangan bo'lsa va u muayyan bir kasbni tanlagan bo'lsa, unda aynan shu kasbni tanlash motivi qanday ekanligini bilish zarurati ham yuzaga kelib qolishi mumkin. Bu o'rinda psixolog quyidagi «Kasb tanlash motivini aniqlash» deb nomlangan metodikadan foydalanishi mumkin. Kasbiy motivatsiya-kasb tanlashga sabab bo'ladigan aniq rag'batlantiruvchi harakatdir.

Ko'rsatma: Quyida keltirilgan so'rovnomalarini diqqat bilan o'qib, kasb tanlashda o'zingiz uchun muhim bo'lgan motiv (sabab)ni aniqlab oling. Agar ushbu motiv Siz uchun ahamiyatli bo'lsa, u holda javob varaqasida savol yoniga (+) belgisini, ahamiyatsiz bo'lsa (-) belgisini qo'ying.

1. Kasbning mazmuniga qiziqish, tanlangan kasbda mutaxassisning vazifalari nimalardan iborat ekanligini bilish.

2. Tanlangan kasb bo'yicha malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga intilish.
3. Tanlangan kasbning jamiyatda nufuzga ega ekanligi.
4. Oilaviy anoanalarning taosiri.
5. Ota-onaga moddiy jihatdan qaram bo'lmashlik.



6. Tanlangan kasbiy faoliyatga aloqador bo'lgan o'quv fanlarini mактабда yaxshi o'zlashtirish.

7. Odamlarga rahbarlik qilish.

8. Yakka tartibda ishslash.

9. Ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish, yangilik yaratish orzusi.

10. Tanlangan kasb sening qobiliyatinga mos ekanligiga ishonch hosil qilish.

11. Moddiy ehtiyojingni qondirish imkoniyati.

12. Hayotingni to'laqonli, qiziqarli, maroqli bo'lishiga intilish.

13. Mustaqil faoliyat ko'rsatish imkoniyatining mavjudligi.

14. Tadbirkorlik faoliyatiga qiziqish.

15. Oilaga moddiy yordam ko'rsatish zaruriyati.

16. Iqtisodiy bilimlarni egallash istagi.

17. Mutaxassislik qanday bo'lishidan qatoiy nazar oliv maolumot to'g'risida diplomga ega bo'lish istagi.

18. Uzoq muddat o'qishni talab etadigan kasbni egallash istagi.

19. Nufuzli tashkilotda ishslash istagi.

20. Kasbni faqatgina moddiy manfaatni ko'zlab tanlash.

21. Zamonaviy kasblar (menedjer, biznesmen, broker)ni tanlash.

22. Odamlarga foyda keltirish istagi.

23. Kasbiy faoliyatning moddiy tomoniga qiziqish.

24. Kasbning faqatgina tashqi xususiyatlari (odamlarning diqqat markazida bo'lish, sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lish, maxsus kiyimda yurish)ga qiziqish.

"Kasb tanlash motivlari" so'rovnomasining natijalarini hisoblash:

Har bir ustundagi "+" lar yig'indisini hisoblang. Qaysi ustunda "+"lar soni ko'p bo'lsa, demak sinaluvchida aynan shu motivning ustunligini anglatadi.

A – nufuzli kasbni egallash, jamiyatda mavqega ega bo'lishga intilish motivining ustunligi;

B - tanlangan kasbdan moddiy manfaatdorlikka ega bo'lish motivining ustunligi;

V – tanlangan kasbning ijod bilan bog'liqligi, yangi texnologiyalarni yaratish, zarur malaka va ko'nikmalarni egallashga intilish.

JAVOB VARAQASI

A		B		V	
№	Javoblar	№	Javoblar	№	Javoblar
3		5		1	
4		8		2	

7		11		6	
17		14		9	
18		15		10	
19		16		12	
21		20		13	
24		23		22	
Jami.		Jami.		Jami.	

2. “O‘quvchilarni kasbiy yo‘nalganligini aniqlash” metodikasi.

O‘tkazish tartibi. Quyida Sizga ishda va bo‘sh vaqtlardagi mashg‘ulotlar va turli kasblarga oid mehnat vazifalari haqidagi 44 ta savol havola etilmoqda.

Savollar tartiblangan bo‘lib, javoblar varaqasidagi raqamlarga o‘zaro mos tushadi. Siz o‘z qiziqishlaringizni hisobga olgan holda har bir savolga bo‘lgan javobingizni 1,2,3 yoki 4 ball miqdorida baholashingiz lozim bo‘ladi. Qo‘yiladigan ballarning maonosi quyidagicha izohlanadi:

- Umuman qiziqarli emas – 1 ball;
- Unchalik qiziqarli emas – 2 ball;
- Qiziqarli – 3 ball;
- Juda qiziqarli – 4 ball.

Savollar ichida Sizga notanish bo‘lgan bir qator kasblar ham keltirilgan. Bunday hollarda Siz: “Ushbu kasblar haqida nimalarni bilasiz?” savoliga taxminan javob berishingiz lozim. Uzoq o‘ylamang. Ko‘proq hayolingizga ilk bor kelgan fikrlaringizni javob varaqasiga tushiring.

Savollar to‘plami. Menga yoqadi:

1. Har xil mashina va mexanizm asboblari bilan ishlash.
2. Metroda sayr qilish.
3. Radiotexnikaga doir yangilik va maolumotlarni kolleksiya qilish.
4. Biror bir bino maketini tayyorlash.
5. Uydagi suv kranlarini tuzatish.
6. Bemorlarni parvarish qilish.
7. Qishloq xo‘jalik mashinalariga texnik xizmat ko‘rsatish.
8. Uka-singillariga o‘qish va yozishni o‘rgatish.
9. Sahnada rol ijro etish.
10. Hisob-kitob ishlari bilan shug‘ullanish.
11. Biznes sohasida ishlash.



12. Radioteleapparaturalarni taomirlash.
13. Avtomobilarni tuzatish.
14. Kompyuterda ishlash.
15. Qurilishda ishlash.
16. Gaz plitalarini tuzatish va sozlash.
17. Bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish.
18. Ekskavator bilan ariq va zovurlarni kovlash.
19. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlash.
20. Musiqa asboblarida kuy chalish.
21. Matematik misollar yechish va hisob-kitob qilish.
22. Taom tayyorlash va bezash.
23. Mashina qismlarini yig'ish.
24. Transport vositalarini boshqarish.
25. Telefon aloqalarini boshqarish.
26. G'isht terish, suvoqchilik qilish, qurilishda ishlash.
27. Obodonlashtirish ishlarida qatnashish.
28. Dorixonalarda ishlash, dori-darmonlarni o'rganish.
29. O'rmon xo'jaligidagi ishlash.
30. To'garak ishlarini tashkil qilish.
31. Musiqa tinglash, raqsga tushish.
32. Birja yangiliklari bilan tanishish.
33. Milliy va yevropa taomlarini tayyorlash.
34. Metallarni payvandlash ishlari bilan shug'ullanish.
35. Samolyotlarga texnik xizmat ko'rsatish.
36. Telefon tarmoqlarini sozlash.
37. Eshik va romlarni o'rnatish.
38. Elektr-gaz payvandlash ishlari bilan shug'ullanish.
39. Kasallikni oldini olish choralarini bilish.
40. Mevali ko'chatlar yetishtirish, parvarishlash.
41. Bolalar va yoshlarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish bilan shug'ullanish.
42. She'r yodlash, ifodali o'qish.
43. Bozordagi narx navoni kuzatib borish.
44. Shirinliklar tayyorlash.

Savollarga javob berib bo'lganidan so'ng har bir qatordagi savollarga berilgan javob ballarining yig'indisi 2-ustunga yoziladi. Yig'ilgan ballarning eng yuqorisiga mos keluvchi sohaning kasblariga Sizdagи qiziqish va moyillik darajasi yuqori.

Javoblar varaqasi.

T/r	Savol №	Ballar yig'indisi	Kasblar guruhi	Sohalar
1	1 12 23 34		№1 guruh	Texnika va sanoat



2	2 13 24 35		№2 guruh	Transport
3	3 14 25 36		№3 guruh	Aloqa
4	4 15 26 37		№4 guruh	Qurilish
5	5 16 27 38		№5 guruh	Uy.j k. x.
6	6 17 28 39		№6 guruh	Tibbiyot
7	7 18 29 40		№7 guruh	Qish.o'rmon x.
8	8 19 30 41		№8 guruh	Ped-ka
9	9 20 31 42		№9 guruh	Sanoat va mad.
10	10 21 32 43		№10 guruh	Ijt. Iqtisod.
11	11 22 33 44		№11 guruh	Savdo um.ovqat.

1-guruh. Texnika va sanoat.

Sizda sanoat sohasiga mansub bo'lgan kasblarga qiziqish va moyillik mavjud. Siz samolyosozlik, energetika, avtomobilsozlik, geologiya, metallurgiya, kimyo va yengil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari, shuningdek, matematika, fizika, kimyo fanlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan akademik liseylarda ta'lim olishingiz mumkin.

2-guruh. Transport.

Sizda avtomobilarni boshqarish, taomirlash va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga moyillik yuqori. Shu bois Siz transport vositalari bilan bog'liq bo'lgan kasblar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarida yoki matematika va fizika fanlari yo'nalishidagi akademik liseylarda tahsil olishingiz mumkin.

3-guruh. Aloqa.

Sizda aloqa bilan bog'liq kasblarga moyillik yuqori. Siz telekommunikasiya, radio, pochta, elektron uskunalarini boshqarish, xalqaro aloqa, telefon, telegraf va boshqa sohalar bo'yicha kasbiy tayyorgarlik yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari va fizika fanini chuqur o'rgatuvchi akademik liseylarga o'qishga borishingiz mumkin.

4-guruh. Qurilish.

Sizda qurilish sohasidagi kasblarga qiziqish mavjud. Sizga qurilish avtomobilari va mashinalarini boshqarish, sanitariya-texnik tizimlar, temir-beton



mahsulotlari va konstruksiyalar, duradgorlik kabi kasblar tayyorlaydigan kasb-hunar ta'lifi muassasalarida o'qishga tavsiya etiladi.

5-guruh. Uy-joy, kommunal xo'jalik.

Sizda suv, gaz taominoti, turar joy va jamoat binolariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga qiziqish mavjud. Siz uy-joy va kommunal xo'jaligi sohasi uchun kasblar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejida yoki aniq fanlar yo'nalishidagi akademik liseylarda ta'lim olishingiz mumkin.

6-guruh. Tibbiyat.

Sizda sog'liqni saqlash sohasining umumiy amaliyat, stomatologiya, ortopediya, farmasiya, tibbiy optika va laboratoriya tashxisi sohalaridagi kasblarga qiziqishingiz yuqori. Tibbiyat yo'nalishidagi kasb-hunar kollejida yoki kimyo va biologiyaga ixtisoslashgan akademik liseylarda o'qishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

7-guruh. Qishloq va o'rmon xo'jaligi.

Sizga qishloq xo'jaligi va o'simlikshunoslik bilan bog'liq bo'lgan kasblar yoqadi. Sizga qishloq xo'jaligi texnikalarini boshqarish, taomirlash va xizmat ko'rsatish, gidromeliorasiya, fermer xo'jaligi, agronomiya, zootexnika, o'simlikshunoslik, chovchilik sohalari bo'yicha kasblar tayyorlaydigan yoki biologiya fanini chuqur o'rgatuvchi akademik liseylarda tahsil olish tavsiya etiladi.

8-guruh. Pedagogika.

Sizda bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish va ularni qo'llab-quvvatlashga bog'liq kasblarga moyillik mavjud. Siz maktabgacha ta'lim, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlari, boshlang'ich sinflarda sport va musiqa ta'limiga oid kasblarga tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarida ta'lim olishingiz mumkin.

9-guruh. Sanoat va madaniyat.

Sizni tasviriy sanoat, rassomchilik, xoreografiya, teatr hamda madaniy oqartuv ishlari qiziqiradi. Sizga madaniyat va sanoat yo'nalishidagi kasblarga tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarida ta'lim olish tavsiya etiladi.

10-guruh. Ijtimoiy, iqtisodiy soha.

Sizda moliya, hisobchi, menejment-marketing, bank, huquqshunoslik, yong'in xavfsizligi, davlat avtomobil nazoratchisi, ijtimoiy taominot va bojxonaga oid kasblarga qiziqish mavjud. Sizga ijtimoiy, iqtisodiy sohadagi kasb-hunar kollejlarida va aniq fanlar yoki ijtimoiy yo'nalishidagi akademik liseyda ta'lim olish tavsiya etiladi.

11-guruh. Savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rcatish.

Sizda umumiy ovqatlanish, savdo, xizmat ko'rsatish, radiotexnika va teleapparaturalarni taomirlash, maishiy gaz va mashinalarni taomirlash, kinofototexnika xizmatlari ko'rsatish sohalariga qiziqish mavjud. Sizga savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish bo'yicha kasblarga tayyorlovchi kasb-hunar kolleji yoki aniq fanlar yo'nalishidagi akademik liseylarda o'qish tavsiya etiladi.

3. Kasb tanlashda tipik xatoliklar.

1. Do'stlariga ergashib.

Ko'p hollarda yigit va qizlarimiz o'zlarining qobiliyatlarini bilmagan holda do'stlariga ergashib keyingi ta'lim turlarini tanlaydilar. Bunday tanlov juda kam

hollarda samarali bo'ladi, aniqrog'i tasodif tufayli muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Chunki kasbni o'z imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda tanlash o'zini to'liq namoyon qilish va tanlov imkoniyatini beradi.

2. Nufuzli kasb tanlash.

Hozirda iqtisodchi, huquqshunos, menedjer, broker, diler kabi kasblar nufuzli hisoblanadi. Juda ko'p o'quvchilar bu kasblarga qiziqadilar, lekin ularning hammasida ham bu kasb uchun zarur bo'lgan sifatlar (yuqori eruditsiya, shijoatkorlik, g'ayrat, muloqotchanlik, ishchanlik) bo'lmasligi mumkin.

3. Biror bir fanni yaxshi o'zlashtirishni kasb bilan bog'lash.

Masalan, o'quvchi adabiyot darsini yaxshi o'zlashtiradi, sheor va hikoyalarni yozadi va jurnalist kasbini tanlaydi. Lekin jurnalist kasbi egalaridan turli vaziyatlarda safarga chiqish, turli faoliyat turlarini bilsish va muloqotchanlik qobiliyati talab etililadi.

4. Aka-opolarining kasbini tanlash.

Oila aozolarning bir-biriga bo'lgan mehri ham kasb tanlashga turtki bo'ladi. Masalan, uka uchuvchi bo'lgan akasiga havas qiladi. Akasiga bo'lgan mehr uni ham uchuvchi bo'lish qaroriga undaydi. Lekin biror insonni yoqtirish boshqa insonning shu kasbga moyilligi borligini bildirmaydi.

5. Tanlangan kasb va mehnat sharoitining salomatlikka mos kelmasligi.

Har bir kasb turli darajada inson organizmi va u yoki bu aozolarini zo'riqtiradi. Shuning uchun har bir kasb uchun mavjud bo'lgan turli tibbiy cheklovlari haqida bilsish zarur. Shu bilan birga kasb tanlash bo'yicha qaror qabul qilinganda, o'zingizni sog'lom deb hisoblasangiz ham shifokor bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

6. Ota-onalarning bosimi ostida kasb tanlash.

Ota-onalar farzandlarining ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari haqida unutmasliklari, ularni majburlamasliklari, aksincha yordam berishlari va ularni qo'llab-quvvatlashlari kerak.

7. Kasbning imkoniyatlari va mehnat xarakteri haqida tasavvurlarning yetarli emasligi.

Jamiyat va texnik rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan kasbning rivojlanish dinamikasini bilmaslik xatolikka yo'l qo'yishga olib keladi. Kasbning zamirida mehnatning umuman o'zgacha bo'lgan yangi ko'rinishi yashiringan bo'lishi mumkin. Doimo kasbning zamonaviy ko'rinishi haqidagi bilimlarga ega bo'lish talab etiladi.

8. O'zining imkoniyatlari, qobiliyatlari, moyilliklari va kasb tanlash motivlari haqida bilmaslik.

Bu bir ko'rinishda oson narsa emas. Bundan tashqari ko'pgina o'quvchilar o'zlarining kamchiliklari va zaif tomonlari haqida bilishdan cho'chiydarlar. Buning uchun ular haqiqatni bilsish uchun o'zlarida jasorat topa olishlari, aql-zakovatni ishga solib xatolarni tuzatishga intilishlari lozim. Bitiruvchining o'zini anglashida tengdoshlari, yaqin insonlari va albatta kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar yordam beradilar.



6-AMALIY MASHG'ULOT:

Mavzu: Oliy ta'lif muassasalarida talabalarining bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash monitoringi (2 soat)

Ishdan maqsad: Qayta tayyorlash va malaka oshirish tinglovchilarida mehnat ta'lifini tashxis qilish, korreksiyalash va bashoratlash metodikasiga oid ko'nimalarini rivojlantirish.

Vazifa: texnologiya ta'lifi o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi funksiyalarini berilgan, uning mazmuni izohlang!

1. Gnostik -
2. Loyihalash -
3. Konstruksiyalash -
4. Diagnostik -
5. Prognostik -
6. Kommunikativ -
7. Ishlab chiqarish-texnologik -
8. Tashkilotchilik -

Kasbiy-pedagogik faoliyatda nazorat qilish va baholashga oid yuzaga kelayotgan muammolarning kelib chiqish sabablari

Savol:

Bahoning ob'ektivligi, ayrim o'quvchilar mehnati natijalarini taqqoslash imkonini beruvchi miqdor va sifat ko'rsatkichlari (buyumning aniqligi, buyumlar miqdori va hokazolar)ga asoslanadi. Bahoning yagona talablar asosida qo'yilishi ham uning ob'ektivligidir. Ana shu talablar mazmunini bayon qiling?

1. Ishlash aniqligi. Aniqlik – har qanday mahsulotni, shu jumladan, tikuvchilik sanoati mahsulotlarini tayyorlashga qo'yiladigan talabdir.

2. Vaqt me'yori. Me'yorlash xususida mehnat topshirig'ini bajarishni vaqt bo'yicha chegaralash o'quvchilar mehnat operatsiyalarini bajarish usullarini egallab olganlaridan keyin amalga oshirilishi kerak. Bunda o'quvchilar bir yo'la ham ishning sifatli bajarilishini kuzatishni, ham uni ma'lum muddatda bajarishga intilishni uddalay olmasligi va ta'lifning birinchi bosqichida vaqt me'yori kiritilsa, miqdor ko'rsatkichlari sifat hisobiga ortishidan kelib chiqadi.

3. O'quvchilarining bilimlari. O'quvchilarining amaliy ishlari ularning bilimlariga asoslanib tashkil qilinadi. Shu sababli ularning faoliyatini baholashda o'quvchilar dastur materialini qanday hamda va qanchalik chuqur o'zlashtirganini hisobga olish kerak.

4. Mehnat usullarini to'g'ri bajarish. O'quvchilar asbobni ushslash, ish holatida turish, asbobning ishlov berilayotgan sirtga nisbatan qanday holatga tutish




haqidagi ko'rsatmalarni qat'iy bajarishlari kerak. Mehnat usullarini to'g'ri bajarish ko'nikmalari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

5. Ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish. Ishlab chiqarishda ish o'rnini to'g'ri tashkil mehnat unumdorligini oshiradi. O'quvchilar mehnat madaniyatining saviyasi ko'proq o'z ish o'rnini to'g'ri tashkil qila olishiga bog'liqdir.


6. Mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Agar ishning xavfsizligini ta'minlovchi qoidalar buzilsa, jarohatlanish xavfi tug'iladi. Jihozlar va asboblarni ishlatischdagi mehnat usullari va hokazolarni bajarishdagi xavfsizlik qoidalarini buzgan o'quvchilarning bahosini pasaytirish kerak.

Topshiriq! Nazorat qilish va baholashning asosiy komponentlari mos o'rnlarga joylashtiring?





Nazorat qilish va baholashning asosiy komponentlari





V. GLOSSARIY

Tushunchalar	Mazmuni
Uzviy aloqadorlik –	o‘quv jarayonining bir komponentidan ikkinchisiga yo‘nalgan bir tomonlama aloqadorlik tushuniladi.
O‘rgatish –	o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati
O‘rganish –	anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallah jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi
O‘qitish –	qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan o‘quvchilarning tartiblangan o‘zaro harakati
Ta’lim –	o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi
Ko‘nikma –	egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallah
Malaka –	avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi
Kompetensiya –	tugallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo‘llay olish layoqati
Mazmun –	o‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi
Maqsad –	o‘qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda safarbar etilishi
Paradigma –	aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni aniqlash va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya
Shakl –	o‘quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig‘i, mazmuni uchun qobiq.

Metod –	o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li
Vosita –	o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan ob'ekt.
Natija –	o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darjasи
Ma'lumot -	ta'lim-tarbiya natijasida olingen va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'n ikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishi pedagogik jarayonda sodir bo'ladi
Mahorat –	bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning yengilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror maromidir
Pedagogik jarayon –	pedagogik kategoriyalardan biri bo'lib, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyat ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda "...tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida tarbiyalanuvchining o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir"
Pedagogik faoliyat-	estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy kabi maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir
Ma'lum o'quv predmeti doirasida uzviylik –	shu o'quv predmet bo'yicha nazariy materialni muntazam va ketma-ket o'rganish, uning laboratoriya va amaliy mashg'ulotlari hamda mustaqil ishlari mazmuni bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash
O'z-o'zini baholash–	mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat metodi
Tashkil etish –	qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon
Fanlararo aloqadorlik -	OTM fanlari tarkibida amal qiladigan ob'ektiv o'zaro aloqalarni aks ettirishni ta'minlaydigan didaktik shartlardan biridir

Innovatsiya-	yangilik, yangilik, o'zgarishni anglatadi; innovatsiya vosita va jarayon sifatida yangi narsani kiritishni o'z ichiga oladi. Pedagogik jarayonda innovatsiya o'qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni, usullari va shakllariga yangiliklarni kiritishni, o'qituvchi va tahsil oluvchilarning bиргалидаги faoliyatini tashkil etishni nazarda tutadi
Syllabus –	bu ta'lif oluvchilar uchun o'quv fani ishchi dasturining qisqacha mazmuni bo'lib, unda o'quv fanining maqsadi, vazifalari hamda ta'lif oluvchilarga qo'yiladigan talablar o'z ifodasini topadi
ECTS –	oliy maktabda o'quv jarayonini tashkil etishning eng demokratik tizimidir



VI. FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25



yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi "O'qituvchi va murabbiylar-yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir". Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 1 oktyabr, №207 (7709).

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevral "Pedagogik ta'lif sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

19. Muslimov N.A., Sharipov SH.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'lifi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. – Toshkent: TDPU, 2014. 389 b.

20. Olimov Q.T., Axmetjanov M.M., Uzoqova L.P., To'xtayeva Z.Sh. Kasbiy pedagogika. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi - T.: «Fan va texnologiya», 2018. – 495 bet.

21. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhamedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lif. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.

22. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lif texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

23. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lif texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.

24. Muslimov N.A., Mutualipova M.J., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo'llanma. –T.: 2014.

25. Obrazovanie v sifrovyyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova ; M-vo obrazovaniya i nauki RF ; FGAOU VO «UrFU im. pervogo Prezidenta Rossii B.N.Elsina», Nijnetagil. texnol. in-t (fil.). – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.

26. Sovremennye obrazovatelnye texnologii: pedagogika i psicho-logiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.Yu. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.

27. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

28. Ximmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorganlik diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. Monografiya. – T.: O'zbekiston, 2018. – 168 b.

29. Hamidov J.A Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qituvchining zamonaviy didaktik vaositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. avtoref. – T.: 2017. 70 b.

30. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2012.–264 b.

31. Radha Mohan. TEACHER EDUCATION. Published by Asoke K.Ghosh, PHI Learning Private limited, Rimjhim House, 111, Printed by Mudrak, 30-A, Delhi-110091/ ISBN-978-81-203-4382-5, India, 2013.

IV. Internet saytlar

32. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

33. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

34. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

35. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portalı ZiyoNET

36. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi